


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL
SANOAT INSTITUTI



I-BOSQICH BARCHA TA'LIM YO'NALISHI
TALABALARI UCHUN O'ZBEK TILIDAN
USLUBIY QO'LLANMA

TOSHKENT-2019

O'zbek tili eng avvalo, O'zbekistonda yashaydigan barsha uchun davlat tilidir. O'zbek tili fanini o'qish davomida talabalar o'zbek tiliga mansub bo'lgan til oilasi va guruhi, o'zbek tilining fonetikasi, morfologiyasi, o'zbek tilining gap tuzilishi, so'zlarning qo'llanilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi, nutq tovushlari va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi, sintaktik jihatdan to'g'ri gap tuza olishi, bog'lanishli matn tuzish va o'z sohasi doirasida fikrlarni o'zbek tilida bayon qila olishni bilishi kerak.

O'g'zaki va yozma nutqda o'zbek tilining grammatik qoidalarini qo'llay olishi, o'z ixtisosli bo'yicha o'zbek tilida maqola, risolalar tayyorlashda lug'atlardan foydalana olish; so'zlarni o'rinli qo'llay olish, o'qish va keyingi mehnat faoliyatida o'zbek tilida muloqatga kirisha olishi; yetarli o'zaki va yozma savodxonlikka ega bo'lishi lozim.

Ushbu uslubiy ko'rsatma barcha yo'nalishl 1-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan. Ko'rsatmaning maqsadi talabalarni o'zbek tili bo'yicha olgan bilimlarini qo'llash uchun va ularga kelajakda dolzarb masalalarni echishda, hamda hozirgi zamon ilmi darajasida yozilgan. Uslubiy ko'rsatma 36 ta darsdan iborat.

Tuzuvchilar:

TTYeSI "Tillar" kafedrası
katta o'qituvchisi N. Muminova
TTYeSI "Tillar" kafedrası
ass. U. Do'stova
TTYeSI "Tillar" kafedrası
ass. M. Muminova

Taqrizchilar:

Muxammad Al-Xorazmiy nomidagi
TATU "Chet tillari" kafedrası katta
o'qituvchisi M. Mavlonova
TTYeSI "Tillar" kafedrası
katta o'qituvchisi S. Yusupova

Uslubiy qo'llanma Toshkent To'qimachilik va Yengil Sanoat Institutining ilmiy uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya qilingan.

"__" _____ 2019 y __-son bayoni.

TTYeSI bosmaxonasida "__" nusxada ko'paytirilgan.

MUNDARIJA

1. O'zbekiston yagona Vatan. Orfoepiya qoidalarlari.....	5
2. O'zbek tili – Davlat tili. O'zbek tilining imlo qoidalarlari.....	6
3. Milliy qadriyatlar – millat iftixori. O'zbek tilida so'z yasalishi.....	7
4. Tarix va zamonamiz. Tilning leksik qatlamlari.....	9
5. Ulug' ajdodlarimiz. Atamalar va ularning vujudga kelishi.....	10
6. Vatan va vatanparvarlik. Ijtimoiy-siyosiy leksika.....	13
7. Muzeylar – o'tmish va kelajak orasidagi ko'prik. Sohaviy terminlar.....	16
8. Kelajak bilimli yoshlar qo'lida. O'zbek tilida sinonimlar.....	18
9. Zamonaviy dunyoda ta'lim. Til va terminologiya.....	20
10. Kitob mutolaasi. Erkin va turg'un birikmalar.....	20
11. A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. Frazologik birliklar.....	22
12. Adabiyot – ma'naviyat o'chog'i. Nutq uslublari. Badiiyuslub.....	23
13. Ommaviy axborot vositalari. Publitsistik uslub va uning xususiyatlari...	26
14. Internet hayotimizda. Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari.....	28
15. O'zbekiston va jahon. Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari..	28
16. XXI asrda innovatsiyalar. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.....	29
17. Davrimizning global muammolari. Maqola va uning turlari. .	30
18. Tabiat va inson. Intervyu olish va intervyu berish qoidalarlari.....	33
2. 1. Inson va salomatlik. Reportaj tayyorlash.....	38
2. Huquqiy madaniyat. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.....	40
3. O'zbekistonda oliy ta'lim. Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar.....	41
4. Oliygohimiz hayotidan. So'zlashuv uslubi. Shevaga xos so'zlar.....	42
5. Bo'lajak kasbim. Matn va uning ko'rinishlari.....	44
6. Hayot mening tasavvurimda. Dialogik matn.....	48
7. Ustoz maktabi. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.....	494
8. Kasbim tarixi. Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilish.....	54
9. Iqtidor va mehnat. Matnga so'z va termin tanlash.....	59
10. Yetuk mutaxassis. Matn tahlili va tahriri.	62
11. Kasb bayrami. Matn mazmunining qisqacha bayoni.....	65
12. Kasbim fidoyilari. Referat matni, tuzilishi, ifoda materialining xususiyatlari.....	66
13. Ilm sari yo'l. Taqriz matni, tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlar..	69
14. Kasb etikasi. Annotatsiya matni, tuzilishi, ifoda materialining xususiyatlari.....	72
15. Nutq odobi. Me'yor tushunchasi.	75

16.San’at va ma’naviyat. Umumxalq leksikasigagi san’atshunoslik terminlari.....	78
17.Men sevgan asar. Badiiy tasvir vositalari.....	79
18.Iqtisod va hayot. Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar.....	80

1-mavzu. O'zbekiston yagona Vatan. Orfoepiya qoidalar

O'ZBEKISTON-YAGONA VATAN

O'zbekiston – biz yashayotgan go'zal mamlakat. Uni Ona Vatan deb ataymiz. Chunki bu erda biz tug'ilib o'sdik. U tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud. Uning o'ziga xos tarixi, aholisi, o'ziga xos taraqqiyoti, tili, dini, turmush va urf-odatlar mavjud. Vatanimiz ona kabi muqaddas, yagona. U bizni onamiz kabi mehr bilan erkalaydi. Sevib voyaga yetkazadi. Kamol toptiradi. Shu sababli biz uni sevamiz, qadrlaymiz. Uning serunum tuprog'ini, yam-yashil o'rmonlarini, tuproq, daryo va suvlarini ardoqlashimiz kerakligini ko'rsatamiz. Ushbu matnni bo'ginlarga ajratish, so'z urg'usini qo'llash orqali grammatik mavzu tushuntiriladi.

MEN NECHUN SEVAMAN O'ZBEKISTONNI?

Vatan bu so'zni sevmaydigan, mehr bilan tilga olmaydigan hech bir inson topilmasa kerak! Vatan - har bir inson tug'ilib o'sgan, kindik qoni to'kilgan tabarruk zamin. Ona zamin ko'zlarida hayrat aks etgan bolakayning ilk muallimi. Vatan-kelinchakning orzular qanotida parvoz etib kirgan eshigi.

Ona zamin! Bu so'z qon-qonimizga, vujudimizga singib ketgan, bir umrga yuragimizda muxrlanib qolgan eng muqaddas unutilmas kalomdir!

Bu tuproqning farzandlari bek bo'ladi, topgan tutgan davlatlari erk bo'ladi. Mustaqil hur O'zbekiston bizning vatanimizdir! Zaminning eng yuksak tuxfasi bu tinchlikdir. Shu sababli mana shunday hur farovon mustaqil, yengilmas, eng asosiysi tinch osoyishta o'lkada yashayotganimizdan bir umr g'ururlanib, o'z diyorimizning nomini ko'klarga ko'tarib maqtansak arziydi. O'zbekiston baxtimizga omon bo'li! Uning baxt saodati, porloq istiqloli, yorqin kelajagi uchun yashash kurashish kerak bo'lganda jon fido etish shu zaminda yashayotgan har bir inson uchun ham farz, ham qarzdir.

Mana, yurtimizda hurlik va ozodlik shabadalari kezib yuribdi. Osmonimizda erk quyoshning zangori nurlari bulutlar orasidan sizib chiqdi. Ona erimiz, ozodlik, hurlik shamolidan, baxtiyorlik suvidan simirib yasharib ketdi. Kechalari baxt sohib yulduzchalar, kunduzlari omad tarab zar nurlar har bir inson qalbida Vatanga bo'lgan mehr -muhabbatni alanga oldiradi.

Mustaqillik shabadalari yosh avlodga e'tiborning kuchayishiga olib keldi.

Xalqimiz dilbandlari bugun dunyoning eng taraqqiy etgan bilim dargohlarida ilm olib kelmoqdalar. "Havas qilgan murodiga yetadi" - degan naql bor xalqimizda. Biz rivojlangan davlatlarga havas bilan boqamiz.

Ha, haqiqatan ham ona yurt-oltin beshik. Vatan esa ostonadan boshlanadi. Ostonadan xatlab o'tar ekanmiz, baxtiyor vatan ismini his qilamiz. Endi nish urib ko'karib chiqqan ko'kat ham, asrlar osha o'z taftida qizdirgan quyosh ham, bir parcha tuproq ham bu - Vatan, bu - kindik qonimiz to'kilgan tuproq. U har bir inson uchun muqaddasdir. Shuning uchun ham biz uni sevamiz.

2- mavzu. O'zbek tili – davlat tili

Til bilgan – el biladi. 1995-yilgi imlo qoidalari. Qo'shib va ajratilib yoziladigan so'zlar. Neologizmlar. O'zbek tiliga davlat tili maqomini berilishi, mutsaqillikning qo'lga kiritilishi yangi imlo qoidalarini ishlab chiqarish uchun qulay imkoniyat yaratilganligi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboning joriy etilishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirib yuborganligi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995 yilning 25 avgustida 339-sonli “ O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida” qaror qabul qilinganligi, u 82 banddan iborat bo'lganligi keltirilgan. Qo'shib yoziladigan so'zlar (qabulxona, tabriknoma, o'rinbosar, otboqar, cho'lquvar, ko'zoynak, qashqargul), ajratib yoziladigan so'zlar (to'q qizil, liq to'la, och sariq, o'n bir, hamma vaqt, o'sha yoqqa, hech qaysi) keltirilgan.

Davlat tili – har qanday davlatning tarixiy taraqqiyoti negizida vujudga kelgan, o'zini anglash, milliy ong va tafakkurning in'ikosi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy – ma'naviy bog'liqlik vositasi, mamlakatda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar yakdilligini ifoda etadigan, davlat doirasida va davlatlararo munosabatlarda o'zaro muloqot vositasi hisoblangan, qonuniy maqomga ega bo'lgan hamda qonun bilan himoyalangan rasmiy til.

Davlat tili odatda uch yo'l bilan belgilanadi:

1. Tarixiy an'ana asosida muayyan davlat hududida istiqomat qiluvchi barcha xalqlar mavjud tillaridan birini umum til deb tan oladi. U, ko'pincha, shu davlatdagi eng ko'psonli millatning tili bo'ladi.
2. Hukumat, prezident, parlament yoki rahbar organlar tomonidan xalqaro yoki jahon tillaridan biri davlatning rasmiy tili deb e'lon qilinadi. Davlat organlari, hukumat idoralari va rasmiy tashkilotlarda yozishmalar faqat shu tilda qabul qilinadi yoki jo'natiladi, shuningdek, barcha muzokara, muhokama, majlis, sessiya, konferensiya, congress va shu kabi yig'inlar ana shu rasmiy tilda o'tkaziladi.
3. Davlatning qonun chiqaruvchi organi yoki mamlakat prezidenti tomonidan jamiyat hayotining barcha sohalarida qollanilishi shart deb e'lon qilingan til. Angliya, Kanada, Yaponiya, Xitoy, AQSh, Shetsiya, Norvegiya davlatlarida hech qaysi til davlat tili deb e'lon qilinmagan bo'lsada, lekin ularda azaldan mamlakat aholisining ko'p qismini tashkil qilgan xalqning tili davlat tili, rasmiy til sifatida tan olingan. Gvineya, Gana, Kongo kabi sobiq mustamlaka davlatlarida rasmiy til sifatida sobiq mustamlakachilar tili, masalan, ingliz yoki fransuz tili qabul qilingan.

Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham o'zbek tiliga davlat maqomi berilishi jarayoni oson kechmagan. Prezidentimizning qat'iyati va oqilona sa'y-harakatlari tufayli 1989 yil 21 oktabrda mamlakatimizda o'zbek tili Davlat Tili deb e'lon qilindi.

Shu tariqa, xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Konstitutsiyamizda Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlab qo'yilgan. Shu

tariqa o'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'I, gerbi, madhiyasi, Konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi.

Yer yuzida qancha millat, xalq, elat, qabila bo'lsa, shuncha Til bor. Tilsiz xalq yo'q. Xalqsiz esa Til ham bo'lmaydi. Bular egizak tushunchalar bo'lib, biridan birini ayirib bo'lmaydi, ular ayirib qo'yilsa, ikkisi ham o'zligini yo'qotadi. Xalq boshqa bir xalqqa qo'shilib ketsada, uning Tili o'lik Tilga aylanadi. Kezi kelganda shuni aytib o'tish lozimki, birgina "Til" so'zi misolida ham Tilimizning naqadar boy vaserjilo ekanini yaqqol ko'rish mumkin. Til rivojining hozirgi holati o'z sohibi bo'lgan millat yoki elatning tadrijiy ravnaqi, bosib o'tgan tarixiy yo'li, jamiyatning qaysi bir taraqqiyot bosqichida ekani, iqtisodi, madaniyati, fani va ma'naviyati kabi omillarga bog'liq.

Biz uchun esa o'z ona Tilimiz bo'lmish O'zbek Tili azizu mo'tabar ekani shubhasiz. Bu esa barchamizning Tilimiz sofliqi, uni asrab-avaylash va takomillashtirish uchun mas'ul ekanimizni anglatadi.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

- Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
- Qiyin so'zlar lug'atini tuzing.
- Matn asosida savollar tuzing va ularga javob yozing.

O'zbek alifbosi

Aa, Bb, Dd, Ee, Ff, Gg, Hh, Ii, Jj, Kk, Ll,

Mm, Nn, Oo, Pp, Qq, Rr, Ss, Tt, Uu, Vv, Xx, Yy,

Zz, O'o', G'g', Sh sh, Ch ch, Ng ng, '(tutuq belgisi).

O'zbek tilida 6 ta unli tovush bor:

a, o, i, u, e, o'.

23 ta undosh tovush bor:

b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, r, s, t, v, x, y, z, g', sh, ch, ng

Ulardan: *b, v, g, d, j, y, ng, g', z* tovushlari jarangli;

p, s, t, f, sh, k, ch, x, q tovushlari jarangsiz;

m, n, l, r tovushlari esa sonarlar hisoblanadi.

3- mavzu. Milliy QADIRYATLAR millat iftixori. O'zbek tilida so'z yasalishi.

Xalqning madaniyati qadiryatlari, ma'naviy merosi ming yillar davomida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy

va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Ayni shu zaminda ko'p asirlar mobaynida jahon madaniyatlari dunyo miqiyosida bir-birini boyitgan.

Ma'naviy qadiryatlarning yana bir qudratli manbai an'anviy oila va qarimdoshtlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o'zaro yordamlashish, kelajak avlod haqidagi g'amho'rlik qilish hamish uning asosiy qoidalari bo'lib kelgan.

URF- ODAT VA MAROSIMLAR

Navro'z, Mehrjon, lola sayli, boychechak sayli, sunbula sayli, gul bayrami, suv sayli, qum sayli, qor xat, yerga urug' qadash, hosil bayrami, uzum sayli, qovun sayli, chorvani yaylovga haydash, jun qirqimi, chorvani qishlovga qaytarish, to'lo' olish, beshik to'yi, soch olish, birinchi qadam, sunnat to'yi, muchal to'yi, nikoh to'yi, qurbon hayiti, ramazon hayiti, Laylat ul Qadr, Payg'ambar yoshi, Mavlud, Bibi Mushkulkushod..... mazkur urf-odat va marosimlar o'zbek xalqi etnomadaniyatida muhim o'rin tutadi. Ularning tarixiy ildizlari qadimga davirlarga borib tarqalib, tarixning turli bosqichlarida ba'zan tazyiqlarga uchrab, ba'zan yangicha ko'rinish olib, hozirga qadar yetib kelgan.

O'zbeklar orasida kuzgi tengkunlikda o'tkaziluvchi qadimiy taqvimiy bayram "*Mehrjon*" dehqon va chorvodorlarning eng tantanali ravishda o'tadigan bayramlaridan biri sanalgan. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida "*Quyosh va oy* falakning ikki ko'zi bo'lganidek. *Navro'z va Mehrjon* zamonning ikki ko'zidir", -deb bejiz ta'kidlamagan.

Mazkur qadimiy forslar taqvimidagi yettinchi oyning nomidan olingan bo'lib, 23 sentyabrdan 22 oktyabrgacha bo'lgan davrin o'z ichiga olgan. Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida yozilishicha"....."mehr" - Quyosh nomi, Quyosh shu kuni olamga zohir bo'lib, (bayram) uning nomi bilan atalgan". Beruniyning ta'kidlashicha "Zardusht Mehrjon bilan romzo'ri(ushbu oyning 21 kuni)ni birga hayit qilishni buyurgan.

NAVRO'Z

Navro'z - O'rta Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining qadimiy yangi yil bayrami. "Navro'z" forscha so'z bo'lib, "yangi kun" degan ma'noni ifodalaydi.

Navro'z yangilanish, poklanish, uyg'onish bayramidir. Aynan, shu jihati bilan insonlar qalbidagi iliqlikni, ona zaminga bo'lgan muhabbat hissini uyg'ota oladi, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtiradi.

Navro'z bahor faslida nishonlanadi. Bu paytda tabiat uyg'onib, barcha o'simliklar ko'kara boshlaydi. Bahor insonlarga ezgu tuyg'ular hadya etadi. Inson qalbida orzulari mavjlanadi.

Dehqonlar, bo'g'bonlar bahorgi ishlarni boshlab yuboradilar. Navro'z ayyomiga atab bobodehqonlar yerlarni maromiga keltirish, ariq-zovurlarni tozalash, urug'larni

saralash ko'zlangan joylarni urug' qadashga moslash va boshqa taraddudlarni ko'radilar. Bog'bonlar esa toklarni ochish, anjir, anor va boshqa mevalarning ko'chatlarini tartibga keltirish yangi nihollarni ekishga tayyorlash, dov-daraxtlarai butash, payvandlash kabi yumushlarni rejalashtiradilar. Shuning uchun ham Navro'z yangi yil bayrami bo'lib qolmasdan, mehnat bayrami hamdir.

Navro'z 21-martda kutib olinadi. Shu kuni kecha bilan kunduz tenglashadi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda Navro'z bahor bayrami sifatda nishonlanadi. Bayram kunlari odamlar bir-birlariga gullar sovg'a qiladilar, yaxshi tilaklar bildiradilar.

Navro'z qadim-qadimdan yaxshilik va saxiylik ramzi bo'lib kelgan. Odamlar bir-birlariga mehr-oqibat ko'rsatadilar, urush-janjal, xafagarchiliklar unutiladi. Bemorlardan, nogironlardan, yolg'izlardan xabar olinadi. Bayram kunlari turli milliy taomlar, jumladan, sumalak, halim, ko'k chuchvara, ko'k somsalar tayyorlanadi. Navro'zda saylgohlar odamlar bilan gavjum bo'ladi, turli taomlar pishiriladi, tomoshalar uyushtiriladi. Yoshlar lapar aytib, raqsga tushadilar.

Navro'z bayrami kishilarga yaxshi kayfiyat, samimiylilik, zavqu shavq, ilhom va g'ayrat bag'ishlaydi.

O'ZBEK UDUMLARI


TO'YONA. To'y marosimi haqida gapirdik. O'zbek xalqi qadimdan to'yga to'yona bilan brogan. To'yona- to'yda, to'y egasiga sovg'a - salom bilan boorish degani. Ba'zi viloyatlarimizda bu odat to'yona emas, qo'shanch (qo'shish) deb ham yuritiladi. To'y bo'layotgan xonadonga qarimdosh- urug'lar, do'st- birodarlar yakka- yakka, ba'zan guruh - guruh, jamoa bo'lib, ishxona, xizmatdoshlar vakillari bir bo'lib, turli sovg'a -salom qilishlari mumkin.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

- Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.
- Qiyin so'zlar lug'atini tuzing.
- Matn asosida savollar tuzing va ularga javob yozing.

4-mavzu. Tarix va zamonamiz. Tilning leksik qatlamlari

Buyuk Ipak yo'li – insoniyat rivojlanishi tarixining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga, hayotiy fazo-yu mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishga intilishining o'ziga xos bo'lgan hodisasidir. Sharqda aytiladigan naqlga qaraganda: «O'tirgan – bo'yra, yurgan - daryo». Harakatlanish – bu hayotdir, sayohat qilish, jahongashtalik doimo taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi,bo'lgan



Insoniyat tarixida eng ulkan bo'lgan ushbu qit'alararo savdo yo'li Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog'lab, o'tmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha cho'zilgan edi. Albatta, sharq va G'arb o'rtasidagi savdo o'tmish qa'riga cho'kkan qadim-qadim zamonlardan beri olib borilar edi, lekin bu kelgusida bunyod etilgan Buyuk yo'lning aloxidagi qismlari edi. Savdo aloqalari hosil bo'lishiga Markaziy Osiyo tog'larida yarim qimmatbaho toshlar – Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko'p jihatdan ko'maklashgan. Masalan, Markaziy Osiyodan Eronga, Mesopotamiyaga va hatto Misrga lazurit toshi yetkazib beriladigan «lazurit yo'li» mavjud edi. U bilan bir paytda «nefrit yo'li» ham tarkib topgan, bu yo'l Xotan va Yorkent tumanlarini Shimoliy Xitoy mintaqalari bilan bog'lar edi. Bundan tashqari, Old Osiyo mamlakatlariga So'g'diyona va Baxtriya davlatlaridan aqiq toshlari olib ketilar edi, Xorazmdan esa feruza keltirilgan. Bu yo'nalishlarning barchasi oxir-oqibat Buyuk Ipak yo'liga kirib mujassamlashgan.

Markaziy Osiyodan G'arbg va Janubga o'tkazilgan karvon yo'llarini hamda Xitoydan Sharqiy Turkistonga olib boradigan yo'llarni o'zaro bog'lab bergan buyuk yo'lning haqiqiy boshlanishini tarixchilar eramizdan avvalgi ikkinchi asrning o'rtalarida, deb hisoblaydilar, o'sha davrda xitoyliklar uchun ilk bora G'arb o'lkalari – Markaziy Osiyo davlatlari kashf etilgan edi.

Vatanimiz xalqlari tarixida «Buyuk ipak yo'li» katta ahamiyatga egadir. Jamiyat taraqqiyotining bronza davridan ham ilgari davrlarda ham hududlarni bog'lovchi vosita sifatida unga xos ixtisoslashgan yo'llar bo'lganligini va bo'layotganligiga tarix guvoh. Tarixda VI-IV (Miloddan avvalgi v) asrlarda Eron ahamoniylari saltanati davrida uning hududi bo'ylab, «SHoh yo'liga» o'tgna. Undan ham ilgariroq o'rta va Yaqin Sharqda Badaxshon lazuratiga bo'lgan ehtiyoj «lazrut yo'li»ning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Badaxshon lazurutlari Mesopotamiya va Misr podsholari saroylarini ibodatxonalarini bezagan, ayollarning turli bezaklarini ishlashga keng qo'llanilgan. Yana takroriy suratda aytish mumkinki, Bronza davridagi (miloddan avvalgi III-II ming yillar) ana shunday yo'llardan biri «Lojuvard yo'li» deb atalib. Uning bir tarmog'i Badaxshon, Baxtriya va Marg'iyona

hududlarini Xorazm, So'g'd. Markaziy Qozog'iston va Ural Bilan bog'lagan yana bir tarmog'i esa, Baxtriya va Marg'iyonani Mesopotamiya bilan bog'lagan. Badaxshon lojuvardning hind vodiysi. Mesopotamiya va Misrdan topilishi bu qimmatbaxo vodiysi. Qadimgi Sharqda nihoyatda qadrlanganligidan dalolat beradi. Yuqorida aytilganidek, qadimgi yo'llardan biri, Eron, ahmoniylarning yo'li bo'lib, bu yo'lining bir tarmog'i miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Kichik Osiyo shaharlarini hamda O'rta yer dengizi bo'yidagi Efio, Sardi shaharlarini Eronning markazlaridan biri Suza bilan bog'langan bo'lsa, yana bir tarmog'i Eron, Baxtriya, orqali So'g'diyonaga, Toshkent vohasi va Qozig'iston hududlaridan o'tib Oltoygacha borgan.

Miloddan avvalgi 138 yilda Xitoy imperatori U-di Chjan Tsyanni O'rta Osiyo yerlariga jo'natadi. Elchi Chjan u-di (Miloddan avvalgi v. 138-126 yillarda) Xitoyning xunlarga qarshi kurashi uchun ittifoqchi yuzlab kelgan edi. miloddan avvalgi v. II-i asrlarga kelib Chjan Tsyann yurgan yo'llarda Xitoyni O'rta va G'arbiy Osiyo bilan bog'laydigan karvon yo'li paydo bo'ladi va nihoyat g'arb bilan Sharqni bir necha yillar davomida bir biri bilan bog'lab kelgan ana shunday qadimgi yo'llardan biri-"Buyuk ipak yo'li"dir. Bu yo'l fanga "Ipak yo'li" nomi bilan faqat XI asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rityufen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo'l "G'arbiy merednopal yo'l" deb atalar edi. Anna shunday karvon va savdo yo'lining asl mazmunini tashkil etgna ipak qachon va qayerda paydo bo'ldi, degan masalada fanda har xil qarashlar bor.

Rivoyatlardan birida miloddan avvalgi 2698 yilda, yana bir rivoyatda esa miloddan avvalgi 2600 yilda Xitoy malikasi Si Ling Chi bog'da tut daraxtlari soyasida choy ichib o'tirgan paytida, uning piyolasiga yuqoridan pila tushib, issiq choyda yumshab, uning tolalari chuvalab bo'lmaguncha choyni ipak ipdan tozalab olmadi. Rivoyatda aytilishicha, pilla tolasini olish ana shu rivoyatdan keyin boshlangan. Xitoy xalqi pila kalavasini topib olishni osmon xudosi Si Ling Chiga bog'laydi.

Si bu osmon xudosi nazari tushgan malika, uni ilohiylashtirilgan, unga atab ibodatxonalar qurgan. Hozirgacha Xitoyda unga atab ipak bayramlari o'tkaziladi.

Xitoy yilnomalarida Fi Gi nili hunarmandning miloddan avvalgi 3400 yilda musiqa asbobi yasab, uni Gorlarini ipakdan qilganligi haqida ma'lumot bor. Xullas ipakning vatani Xitoydir. "Ipak yo'li" Xitoydagi ana shu ipak savdosi bilan bog'langan yo'ldir. Bu yo'l Buyuk Ipak yo'li deb atalib, umumiy uzunligi 12000 km.dan iborat bo'lgan.

Bundan tashqari So'g'dlar IV-V asrlarda tarkib topgan va Turfondan Shimoliy mo'g'iliston tomon va Sharqiy Turkistondan Jungoriya orqali Xakasiyaga borib yetgan.

Xitoyning Dunxuan shahrida III-IV asrlardan ming xo'jalikdan iboart So'g'd qishloqlari qad ko'targan.

Shimoliy G'arbiy ipak yo'li faqat iqtisodiy jihatdagina ahamiyatli bo'lib qolmasdan, ayni payda u diniy madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi,

mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta'minlovchi yo'l ham edi. Budda dini xuddi shu yil bilan Xitoyga Markaziy Osiyo orqali kirib kelgan.

Yozma manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra III-VII asrlarda Markaziy Osiyo va O'rta Sharq orqali o'tgan ipak yo'lining nazorati So'g'dlarning qo'lida bo'lgan bo'lsa, VIII asrga kelib «Ipak yo'li»ning G'arbiy qismi arablar nazoratiga o'tdi. XIII asrda esa «Ipak yo'li»ning barcha tarmoqlari bo'ylab Chingizxon o'z nazoratiga oldi. So'ng «Ipak yo'li» Temur va Temuriylar nazorati ostiga o'tdi. XVI asrda jahonga mashhur afsonaviy ipak yo'lining ahamiyati keskin tushadi.

Buyuk iapk yo'li ahamiyatining pasayib ketishiga ko'plab omillar sabab bo'ldi. 1453 yilda Shimoliy Turkistonning Anqara yonidagi qattiq mag'lubiyatdan keyin o'zining avvalg qudratini tiklab olib, Konstantinapolni bosib oldilar va yarim asr mobaynida ulkan imperiyalarini barpo qildilar. Ular butun Yaqin Sharqni o'zlariga bo'yso'ndirdilar. Buyuk iapk yo'li bo'ylab olib borilayotgan butun savdo o'tadigan O'rta dengiz portlarini bosib oldilar. Shunday qilib, Xitoy bilan YEropa o'rtasida asosan O'rta Osiyo orqali olib boriladigan butun savdo munosabatlariga qaqshatqich zarba berildi. Bu esa Yevropaliklarni bosh savdo yo'llarini izlashga majbur qildi. 1499 yilda Portugaliya dengiz sayyohi Vasko Da Gamma yaxshi umid burnini aylanib o'tib, Hindiston va Xitoy yo'lini kashf etdi. 1515 yilda portugallar Ormuzni qo'lga qirtdilar, 1516 yilda esa Xitoyga yetib borganlar. Eron Hindiston va Xitoyga olib boradigan dengiz yo'li karvon yo'liga nisbatan arzon, oson, qulay yo'l bo'lib, Xitoy bilan savdo tez orada butunlay dengiz yo'llariga ko'chirildi.

- guruh ishtirokchilarining faolligi (0.5 ball)			
- berilgan savollarga javob berdi (0.3 ball)			
- reglamentga rioya qildi (0.2)			

5-mavzu.Ulug' ajdodlarimiz. Atamalar

Abu Nasr Farobiy

Fan va madaniyat olamida o'z o'rnini va mavqeiga ega bo'lgan ulug' mutafakkir, zabardast olim, buyuk allomalardan biri, shubhasiz, Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon Forobiydir (873—950). Dunyo fani va madaniyati, uyg'onish davrining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lgan Forobiy qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat tsivilizatsiyasida tutgan o'rnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, cheksiz hayratlandi va ilhomlandi, balki kishilik tarixida o'chmas iz qoldirgan yunon olimlarining, ko'proq Arastuning asarlarini targ'ib qildi, ularning ko'plarini arab tiliga tarjima qildi, sharhlar yozdi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini to'la o'zlashtirmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Forobiy yunon mutafakkirlarining «quli»ga aylanib qolmadi, balki ko'p qirrali olim va ijodkorlarning davomchisi, o'z davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida o'zini namoyon qildi.

Abu Nasr Forobiy «Sharq Arastusi», «Ikkinchi muallim» nomlari bilan O'rta Osiyo madaniyatining asoschilaridan biriga aylanganligi bejiz emas edi, albatta. Forobiyning shaxsi va ijodi ko'pgina olimlarning diqqatini o'ziga jalb etgan bo'lib, u haqida ko'pdan-ko'p tortishuv va munozaralar bo'lib turar edi. Uning so'nmas ilmiy va madaniy merosi ta'siri ostida dunyoning juda ko'p madaniyat vakillari, jumladan, Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, Nosir Xisrav, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Grigor Tativatsi, Ioane Petritsi, Rodjer Bekon, Sicher Brabantskiy va boshqa yuzlab fan fidoyilari shakllangan, o'zligini anglab, mustaqil ijod yo'lini topib olganlar, desak mubolag'a bo'lmas.

Abu Nasr Forobiy o'rta asr fani va madaniyatining barcha muhim sohalarini to'la egallagan buyuk allomadir. Uning 160 dan ortiq asar yozib qoldirganligi ma'lum. Taniqli forobiyshunos akademik M.Xayrullaev o'zining «Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri» asarida Forobiy asarlari turli mamlakatlardagi mashhur shaharlar: Sankt-Peterburg, Moskva, Toshkent, Boku, Qozon, Qohira, Bayrut, Damashq, Istanbul, Berlin, London, Parij, Madrid, Nyu-York, Haydarobod, Isfaxon, Bombey, Tehron va boshqa ko'plab shaharlarning katta kutubxonalarida, davlat va shaxsiy qo'lyozma fondlarida saqlanib, e'zozlanib kelayotganligi haqida yozadi. Forobiyning sotsiologik, ijtimoiy-falsafiy, tabiiy-ilmiy, tarbiyaviy-tibbiy qarashlari, nazariy xulosalari keng qamrovli va rang-barang bo'lib, mohiyat mazmuniga ko'ra nafaqat o'z zamonasi uchun, balki hozirgi davrda ham juda ahamiyatlidir.

6.Vatan va vatanparvarlik. Ijtimoiy-siyosiy leksika

Forobiy yaratgan falsafiy tizim mazmunan universal xususiyatga ega bo'lib, o'z davri fanlarining barcha muhim masalalari — falsafaning umumiy muammolaridan tortib, tabiatshunoslik ilmining asosiy falsafiy masalalari, borliqni bilish va mantiqning bahsli muammolari, inson va tabiat o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik, ya'ni ekologik muammolarni ham o'z ichiga oladi.

Forobiyning ijtimoiy-falsafiy fikrlari o'zining keng qamrovli, teran va mazmundorligi bilan gumanistik xususiyatga ega. U «Fozil shahar aholisining fikrlari» deb nomlangan asarida Arastu tomonidan ilgari surilgan, inson, eng avvalo, ijtimoiy hodisa, deb ta'riflangan g'oyani yanada aniqlashtirib, quyidagilarni yozadi: «Har bir inson, o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi va ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoji tug'iladi... Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuvi uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi». E'tibor bering, muhtaram o'quvchi, bu fikrlarning zamirida falsafaning bosh muammosi bo'lgan bahsli masala — insonning paydo bo'lishi, shakllanishi va yetuklikka erishuvi haqida so'z bormoqda. Eng muhimi, bu jarayonda jamoatning roli va ahamiyati to'g'risida aniq va lo'nda fikr bildirilmoqda.

Darhaqiqat, Forobiy o'z dunyoqarashi bilan zamonasidan ancha ilgari ketgan yetuk olim, ilm va ma'rifat kurashchisi, tabiat va jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini ochib berishga astoydil intilgan buyuk shaxsdir.

Al-Xorazmiy

Muhammad Ibn Muso Al-Xorazmiy jahon madaniyati taraqqiyotiga g'oyat katta hissa qo'shgan, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan buyuk qomusiy olimdir.

Al-Xorazmiy Algebra fanining asoschisi. Uning "Al-kitob al muxtasar fi hisob al-jabr va al muqobala" asaridagi "al-jabr" so'zi lotincha transkripsiyada "Algebra" ni anglatib, Al-Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomidir.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (taxminan 783- 850-yillar) asli Xiva shahridan bo'lib, matematika, astronomiya, geografiya va boshqa fanlar sohasida barakali ijod qildi hamda "aljabr" (algebra) fani va "algoritm" tushunchasiga asos soldi. "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Kitab al-Jabr val-muqobala" (Tiklash va qiyoslash kitobi) degan risolasi nomidan olingan. Uning arifmetikaga oid risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash tizimi va shu tizimdagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Olining "al-Xorazmiy" nisbasi esa "algoritm" shaklida fanda abadiy o'rnatib qoldi. Uning XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilingan "Zij" (Astronomik jadval), "Hisob al-Hind". "Quyosh soati haqidagi risola" va boshqa asarlari Sharq va G'arb mamlakatlarida o'rta asrlar ilmiy tafakkurining taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Allomaning eng mashhur asari "Yulduzlar ilmi va samoviy harakatlar haqida to'plam"! hisoblanadi. Uning bu kitobi Yevropada Kopernikkacha bo'lgan astronomiya fanida asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. U sferik trigonometriya asoschilaridan biridir. Farg'oniy nisbasi lotinchada "alfraganus" shaklida yozilib, shu nom ostida u Movarounnahrning Farg'ona viloyatidagi qadimgi Qubo (hozirgi Quva) shahrida tavallud topgan Ahrnad al-Farg'oniyning (798-865-yillar) ijodiy faoliyati Bag'doddagi ilmiy markaz (akademiya) bilan bog'liq bo'lib, hozirgi kunda uning 8 asari bizga ma'lum fanga abadiy kirdi.

Buyuk faylasuf, qomusiy olim Abu Nasr al-Farobiy (873-950-yillar) Sirdaryoqirg'og'idagi Farob degan joyda tug'ilib, Farob, Toshkent, Buxoro va Samar-qandda o'qidi. Keyinroq Bag'dod va Damashqda yashab o'z ma'lumotini oshirib, umrim ilg'a baxshida etdi. U fanning barcha sohalarini qamragan 160 dan ortiq asarlar yozgan va ayrim ma'lumotlarga ko'ra 70 dan ortiq tilni bilgan.

Al-Farobiy barcha ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, xususan, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga tanishtirganligi iichun Sharq mamlakatlarida "Ikkinchi Aristotei" deb ulug'langan.

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy (973-1048-yillar) Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ildi. Uning ilmiy merosi turli fan sohalariga doir 150 dan ortiq asardan iborat bo'lib, ulardan faqat 30 tasi bizgacha yetib keigan.

Beruniy fanning turli sohalarida yangi fikrlar va kashfiyotlarni olg'a suradiki, bu kashfiyotlar o'rta asr Sharqida uzoq vaqtgacha fan taraqqiyotini belgilab berganligidan g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ahmad-al-Farg'oni

IX asrda yashab arab tilida ijod etgan Ahmad Farg'oni (taxmin. 798-865) zamonasining atoqli astronomi, matematigi va geografi edi. Uning to'liq ismi Abulabbos Ahmad ibn Muhammad Kasir al Farg'oni. U xalifa Horun ar Rashid (986 -809) topshirig'iga binoan Bag'dod yaqinida Raqqoq nomli mavzeda rasadxona qurishga boshchilik qiladi. Rasadxona qoshida uning rahbarligida astronomiya maktabi tashkil etiladi. Bu yerda Ahmad Farg'oniya zamondosh olimlar va shogirdlar bilan faoliyat olb bordi. U "Astronomiya asosi", "Samoviy harakatlar" va "Yulduzlar haqidagi fan" nomli asarlar yozdi. Uning o'z zamonasida "Astronomiya asosi" nomli asari astronomiya bilimining o'ziga xos qomusi hisoblangan va u XV asrda lotin tiliga tarjima qilingan. Bu asar bir necha asr davomida yevropa astronomlari uchun qo'llanma va dastur bo'lib xizmat qilgan.

Abu-Ali-ibn-Sino

Ulug' mutafakkirlardan biri Abu Ali ibn Sino (980 - 1037) Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida mahalliy amaldor oilasida dunyoga keldi. Uning asl ismi Husayn ibn Abdulloh. Besh o'n yoshlarida maktabda ta'lim oldi. Maktabni bitirgach, ustoz Abu Abdulloh an-Natiliy dan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmlarini o'rgandi. U asosan tabobat ilmiga qiziqardi. Usha vaqtda uni Husayn deb atagan bo'lsalar, sharqda Sheyxulrais, g'arbda Avitsenna, arablar esa Abu ali Alhusayn ibn Abdullo ibn Hasan ibn Sino deb atar yedilar. 10 yoshidayoq arab tilini mukammal bilib olgan ibn Sino 16 yoshida ulug' xakim va 18 yoshida Sharqning buyuk olimi bo'lib tanildi. Ibn Sino Buxoroda yashagan davrida, ya'ni 1002 yilgacha Aristotel asarlaridan falsafani, Evklid asarlaridan geometriyani, Ptolemey asarlaridan astronomiyani zo'r qunt bilan o'rgandi. Bunga ibn Sino somoniylar davlatining amiri No'h ibn Mansurni muvaffaqiyatli davolaganligi tufayli amir o'sha vaqtlarda Sharqda tengi yo'q darajada boy kutubxonasidan shu asarlardan foydalanishga ruxsat berganliga va u ana shu asarlarni qunt bilan o'rganganligi sabab bo'ldi. Biroq ibn Sinoning Buxorodagi ijodiy faoliyati uzoqqa cho'zilmadi, chunki bu vaqtda somoniylar sulolasi o'zinnng so'nggi kunlarini yashamoqda edi. Mehnatkash xalqni shafqatsiz ezish, xalqqa quloq eshitmagan soliqlarsolib talash, somoniylarga nisbatan xalqning g'azab-nafratini oshirgan edi. Somoniylar podsholigi xalq madadidan mahrumligidan foydalangan turklar — Qoraxoniylar Buxoroni bosib oldi va shu bilan somoniylar hukmronligi inqirozga yuz tutdi. Anarxiya hukmron bo'lib qolgan Buxoroda ibn Sino turolmadi. Bu vaqtga kelib uning otasi ham vafot etdi. Bularning hammasi uning Buxorodan siyosiyva madaniy vaziyat boshqacha bo'lgan Xorazmga (Urganchga) ketishiga sabab bo'ldi. Xorazmshoh saroyida O'rta Osiyo fanining atoqli olimlari to'plangan edilar.

Qoraxoniylar sultoni Mahmud Xorazmshohdan ibn Sino singari olimlarni Buxoroga qaytarishni talab qiladi. Shundan so'ng ibn Sino G'arbga — Kaspiy dengizi sohillari tomon qochadi. Bu kabi og'ir sinovlar buyuk mutafakkirning irodasini sindirolmadi, u 35 yil ijod qilib, jahon fani taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. To'la bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra uning hammasi bo'lib 280 ta asaridan 185 tasi falsafaga, qolganlari esa meditsina, matematika, fizika, astronomiya, ximiya, botanika, geografiya, mantiq, davlatni idora qilish usullari, harbiy fan va boshqalarga bag'ishlangan.

Ibn Sino fors tilida yozgan (1031 yoki 1035 yil) «Donishnoma» (ilm kitobi) asari 1955 yilgacha Yevropa tillaridan birortasiga tarjima qilinmagan. Uning bu asari uch qismdan iborat bo'lib, mantiq, metafizika, fizika masalalariga bag'ishlangandir.

Ibn Sino o'z fizikasida mexanika, harakat va uning shakllari, fazo, jismlar holati, Aristotelning ko'rish nazariyasi va boshqalarga doir masalalarni ko'rib chiqadi.

Ibn Sino «Past fan boshi» (fizika) nomli asarining «Tabiat haqidagi fan» deb atalgan bo'limida fizikaga ta'rif berib, «fizika shunday fanki, u materiyadan ajratib bo'lmaydigan holat va qarashlarni o'rganadi» deydi. Ibn Sino ko'rish masalalarini tahlil qilib chiqar ekan, ko'z borliqni ko'rish sabablari haqidagi o'z zamonasida tarqalgan fikrlarning noto'g'riligini isbot qiladi. Ibn Sino Beruniy bilan xat orqali qilgan munozaralarida issiqlikdan kengayish va sovuqlikdan torayish sabablariga o'z qarashlarini bayon etib, geometrik optika masalalari, umuman akustika, elektr, magnetizm masalalari bilan ham yetarli darajada shug'ullanganligini ko'rsatadi. Ibn Sino 1037 yilda Hamadonda (Eron) vafot etgan.

Atamalar va kasb-hunarga xos leksika

So'zlar atamalarga hamda kasb-hunarga xos so'zlarga bo'linadi. Atamalar ma'lum bir fanga oid bo'lib, shu sohaga tegishli so'larni tashkil etadi. Ma'lum bir kasb-hunarga oid so'zlar ham majudki, ular asosan shu kasbning so'zlari hisoblanadi. Masalan, tikuvchilikka oid so'zlar – igna, qaychi, ip, andoza, chok, angishvona, astar.

7-mavzu. Muzeylar.Sahoviy terminlar

Ilmiy-ma'rifat muassasalardan biri-muzeydir.

Unda tarixiy, ma'naviy yodgorliklar saqlanadi, to'planadi, o'rganiladi hamda tashviqot qilinadi. Muzeining tarbiyaviy ahamiyati katta. Bunda ko'gazma, ekspozitsiya shakllari alohida o'rin tutadi. Muzeylar yo'nalishi va kolleksiyalariga qarab, tarmoq, o'lkashunoslik va memorial turlarga bo'linadi.

Tarmoq muzeylar ishlab chiqarish, fan, san'atning bir tarmog'iga tegishli bo'ladi. Masalan, Amur Temur muzeyi, yaqinda qayta ishga tushgan tarix muzeyi, san'at muzeyi, tabiat muzeyi shu guruhga kiradi.

O'lkashunoslik muzeylari ham mavjud. Ularda ma'muriy, mintaq, ya'ni viloyat tarixi, tabiati, xo'jaligi, san'ati, etnografiyasi va boshqa sohalari o'z aksini topgan bo'ladi. Bunday muzeylar barcha viloyatlarda mavjud.

Memorial muzeylar ham muhim o'rin tutadi. Unda muhim tarixiy voqealar, atoqli arboblarning hayoti aks etadi. Shahidlar xotirasi, ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari bilan tanishtiruvchi Mustaqillik maydonidagi Xotira ko'rgazmasi memorial muzey safiga kiradi. Shu turdagi muzeylar qatoriga O.Tansiqboyev, Tamaraxonim, Oybek uy muzeylarini kiritish bo'ladi.

O'zbekiston jahondagi muzeylarning xalqaro tashkilotiga a'zo bo'ldi. YUNESKO tarkibidagi Xalqaro muzey Kengashi O'zbekistonga e'tibor berishi bejiz emas. Chunki Samarqand, Buxoro, Xivadagi qadimiy yodgorliklar, muzeylardagi qimmatbaho ashyolar barchani qiziqtiradi.

Amir Temur muzeyi haqida

Tashkil etilishi: 1996-yil, Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan. Rekvizitlar: O'zbekiston, 100000, Toshkent shahri, Amir Temur 1; Tel: 232-02-12 Faks: 232-02-13 e-mail: temurid@temurid.uz; URL: <http://www.temurid.uz>. Direktor: tarix fanlari nomzodi Xabibullayev Nozim Nasibullayevich Ishchilar tarkibi: fan nomzodlari – 4, ilmiy xodimlar – 23, jami ishchilar – 70. O'zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi 1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan va bevosita rahbarligi ostida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 martdagi 99-sonli qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari: - mamlakat madaniyati va ma'rifati tarixining muhim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlarni ishlab chiqish; - respublika jamoati va xorijiy davlat vakillarini Temuriylar davri tarixi bilan tanishtirish; - respublika hamda xorijda o'rganilayotgan davr bo'yicha yozma manbalar va ashyolarni to'plash; - mavzuiy, tarixiy hujjatlar, qo'lyozmalar, moddiy-madaniy yodgorliklar, arxeologik qazilmalar va h.lar yordamida Amir Temur va temuriylarning jahon madaniyati va faniga qo'shgan hissasini aks ettiruvchi doimiy va davriy ekspozitsiyalar, ko'chma ko'rgazmalarni tashkil etish.

Noyob ilmiy obyektlar: Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosi va ekspozitsiyasi. Muzey binosi o'zida o'rta asrlar (aniqrog'i, temuriylar davri) sharq va zamonaviy arxitektura uslublarini mujassam etgan. U katta aylana shakliga ega bo'lib, gumbazi ko'p qirrali, tomi panjarali. Ochiq ayvonlari va ustunlari bor. Tashqaridan bino ajib naqshlar bilan bezatilgan. Muzey «Davlat noyob ilmiy obyektlar ro'yxati»ga kiritilgan. Muzey fondlarida O'zbekiston tarixi, jumladan Amir Temur va temuriylar davrini aks ettiruvchi eksponantlar saqlanadi; ular – qo'lyozmalar, har xil xatlar, etnografiya, me'morchilik buyumlari, kumush va mis tangalar, sopol va mis idishlar va h. 2006 – 2011-yillar mobaynida 17 ta ko'rgazma tashkil etildi. «Amir Temur – Klavixo – Samarqand», «Yozuv madaniyati tarixi», «Amir Temur hayotidan lavhalar», «Xorij merosi», «Samarqand 2750 yoshda», «Shohruhiya topilmalari», «Toshkent – islom madaniyati markazi», «Toshkent –

Sharq yulduzi», «Imzolar», «Noyob qo'lyozmalar xazinasidan», «Temuriylar davri renessansi», «Temuriylar davlatida diplomatik aloqalar» va hokazolar shular jumlasidandir. Yoshlarni vatanparvarlik va milliy iftixor, tarix, buyuk shaxslar va o'tmish merosiga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida muzeyda bir qator madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Masalan: «Buyuk qalam ustalari», «Temuriylar davri huquqiy merosi», «Amir Temur avlodlari», «Tarix marvaridlari», «Buyuk siymo». Mavzuiy ekskursiyalar ham o'tkazilgan: «Amir Temur va Yevropa», «Amir Temurning jang san'ati», «Amir Temur davrida tibbiyot», «Temur tuzuklari», «Ulug'bek davrida Movarounnahr», «Temuriy malikalar», shuningdek, muzeyning boy eksponatlaridan foydalangan holda boshqa tadbirlar ham tashkil etilgan. Muzey ekspozitsiyalarini tomosha qilishga ko'plab chet elliklar, rasmiy delegatsiyalar ham tashrif buyurishadi. Amir Temur va temuriylar davri tarixi bilan tanishish jarayonida ular boy taassurotlarga ega bo'lishadi. Ko'rsatilgan muddat ichida muzeyga turli mamlakatlarning 600 dan ortiq rasmiy delegatsiyalari tashrif buyurishgan. Temuriylar davri tarixi bilan yaqindan tanishgach, o'z taassurotlari va fikr-u mulohazalarini "Faxriy mehmonlar kitobi"ga yozib qoldirishgan. Mana shu yozuvlar asosida muzeyda "Imzolar" ko'rgazmasi tashkil etilgan. Muzey tashkil etilganida uning fondlarida 600 ta predmet bor edi. Hozirgi kunda muzey ekspozitsiyalarining o'zi 2000 dan ortiq eksponatni tashkil etadi. Muzey ochilganidan beri uning eksponentlarini 1 6500 00 dan ortiq odam tomosha qilishga muvaffaq bo'lgan.

8-mavzu. Kelajak yoshlar qo'lida. Sinonimlar

Ma'lumki, Konstitutsiyaning 2 bo'lim, 9 bob 41 va 42 moddalari ta'lim va ijod erkinligiga bag'ishlangan. Unda shunday satrlar yozilgan "Har kim bilim olish huquqiga ega" (41-modda), "Har kimning ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafotlanadi" (42-modda).

Otgan qisqa davrda bu sohada nima ishlar qilindi? Avvalo, ta'lim-tarbiya tizimi tubdan qayta ko'rildi.

Konstitutsiyaning yuqoridagi ikkita moddasi bergan kafolat asosida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1992 va 1997 y.) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi.

Bu ikki qonunda jami 64 modda va band bo'lib, u Konstitutsiya boshqa barcha qonunlar uchun "Ona qonun" ekanligining isbotidir. Xo'sh, bu qonunlarda nimalar o'z aksini topdi, ular hayotga qanday joriy etildi?

O'zbekiston Respublikasining 1992 - yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga asosan mamlakatimiz ta'lim – tarbiya tizimida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi:

- ta'lim tarbiya tizimi doimiy siyosiy ta'sir;
- partiyaviylikdan;
- sinfiylikdan;
- kundalik mafkuraviy va g'oyaviy tazyiqdan xalos bo'ldi;
- eng muhimi, ta'lim-tarbiya tizimiga milliy ruh bag'ishlandi;
- sobiq, soxta ittifoqning o'ta mafkuraviylashtirilgan,

milliy qadriyat va ma'naviyatimizdan uzoq bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimidan mutlaqo voz kechildi.

Iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlarning nufuzli institut va universitetlariga o'qishga yuborish, shuningdek, malaka oshirish, tajriba almashish, ilmiy sohada hamkorlik qilish yo'lga qo'yildi.

Ta'lim-tarbiya tizimida jiddiy islohatlar amalga oshirildi. O'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar tubdan yangilandi. O'rta, maxsus va oily ta'lim moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, tizimga kompyuter texnikasi, test usulida o'qitish kabi yangiliklar joriy etildi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar menejment, marketing, axborot texnologiyalari mutaxassisliklari, qator yangi fakultetlar, jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, aviatsiya instituti, ichki ishlar, qurolli kuchlar va bank-moliya akademiyalari shular jumlasidandir.

2001 - yil 25 - yanvar kuni yoshlar masalalari bo'yicha yig'ilishda O'zbekiston Prezidentining kiritgan takliflariga asosan "Kamolot" yoshlar jamg'armasi asosida tashkil etildi. Harakatning ta'sis qurultoyi 25 - aprel kuni bo'lib o'tdi.

"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining asosiy vazifalari:

-mamlakatimizda erkin demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etishga ko'maklashish maqsadida muntazam ravishda yoshlarning xuquqiy bilimini oshirib borish;

-barkamol avlod tarbiyalash sohasidagi dasturiy vazifalarni amalga oshirishga yoshlarni jalb etish, bu borada turli davlat va jamiyat birlashmalari bilan hamkorlik qilish;

-yoshlarning kuch-g'ayratini, intellectual salohiyati, kasb malakasini Vatan ravnaqi uchun yo'naltirish;

-xalqaro yoshlar tashkilotlari bilan o'zaro foydali aloqalarni yo'lga qo'yish;

-yoshlar va o'smirlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, jinoyatchilik, diniy ekstremizm, giyohvandlik, loqaydlik kabi turli illatlarga qarshi kurashda Harakatning ta'sirchan kuchga aylanishiga erishish;

-millatlararo totuvlik va do'stlikni yanada mustahkamlashga hissa qo'shish;

-yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, boqimandalik kayfiyatidan xalos qilish, tadbirkorlik qobiliyatini yuzaga chiqarish, ularda bozor iqtisodiyoti ko'nikmalarini yuzaga chiqarish, mulkka egalik tuyg'usini shakllantirish;

- yoshlarni ish bilan ta'minlashda imkoniyatlar yaratish, shu yo'l bilan yangica fikrlaydigan mulkdorlarni shakllantirish va ularni "Kamolot" tayanadigan ijtimoiy kuch bo'lishiga erishish.

"Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining shiori – "Vatan menga nima berdi deb emas, men o'zim xalqim, Vatanim uchun nima qilmoqdaman", deb yashash kerak.

Topshiriq 1.

1) O'zbekistonning ta'lim tizimi haqida nimalarni bilasiz.?

2)Yoshlarga berilgan imtiyozlar ya'ni Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati to'g'risida nimalarni bilasiz.?

3) Son so'z turkumi haqida ma'lumot bering.

9-mavzu. Iqtidor va mehnat. Matnga soʻz va termin tanlash

Sinonimlar (maʼnodosh soʻzlar- **grekcha** *syronymosyoki synonymon* - “bir nomli” degan maʼnoni bildirib, bir ifodalaydigan kamida ikkita soʻz yoki undan ortiq soʻzdan iborat boʻlgan sinonimik qatorini tashkil etadi. Bu qatordagi maʼnosi betaraf boʻlgan soʻz bosh soʻz) deb ataladi.. Masalan, *kishi, inson, odam* maʼnodosh soʻzlar qatori uchim “ongli mavjudot”, Xususiy maʼtiolar maʼnodosh soʻzlar qatoridagi har bir soʻz uchungina xos boʻlgan maʼnolardir. Maʼnodosh soʻzlar qatoridagi soʻzlar oʻzaro quyidagicha farqlanadi: 1) maʼno qirrasiga koʻra; 2) uslubiy bahosiga koʻra; 3) salbiylik-ijobiylikka koʻra. Masalan, *shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, boʻkirmoq, toʻngʻillamoq, mingʻirlamoq, vaysamoq, javramoq, irod etmoq, bayon etmoq* maʼnodosh soʻzlar qatorini yuqoridagi belgilar boʻyicha 3 ta guruhga boʻlish mumkin:

Umumiy maʼno	Xususiy maʼnolar		
	Ovozning baland-pastligiga koʻra	Uslubiy bahosiga koʻra	Salbiylik-ijobiylikka koʻra
Soʻzlash	<i>shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq, boʻkirmoq,</i>	<i>irod etmoq, bayon etmoq</i>	<i>toʻngʻillamoq, mingʻirlamoq, vaysamoq, javramoq</i>

Maʼnodosh soʻzlar nutqning taʼsirli boʻlishiga, bir maʼnoning turli xil qirralarini ifodalashga yordam beradi. Ular bir xil soʻz turkumiga oid boʻladi: *yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, oraz, jamol* (ot); *hayoli, ondishali, oriyatli, iboli* (sifat); *yarim, ikkidan bir* (son), *hamma, bari, barcha* (olmosh); *gapirdi, sozladi* (fel), *koʻp, moʻl bisyor* (ravish); *va, hamda* (bogʻlovchi); *kabi, singari, yangligʻ* (koʻmakchi); *xuddi, naq* (yuklama), *ehtimol, balki* (modal soʻzlar) va hokazo.

Tildagi oʻzlashma (boshqa tildan kirgan) soʻzlar oʻzbekcha soʻzlar bilangina emas, balki oʻzaro ham sinonim boʻlishi mumkin: *respublika* (lot.) - *jumhuriyat* (arab.). Tub soʻzlar yasama soʻzlar bilan sinonim boʻlishi mumkin: *his* (tub) - *sezgi* (yasama), *savol* (tub) - *soʻroq* (yasama). Sinonimik qatordagi soʻzlar eskirishi mumkin: *odat, rasm, urf fan* (rasm, odat); *iltimos, oʻtinch, tavallo; oqsoq, choʻloq, lang*

10-mavzu. KITOB mutolaasi

Kitob – axborotlar, gʻoya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish vositasidir. Halqaro miqyosda YUNESKO tavsiyasiga koʻra 3 bosma taboqdan ortiq

,ya'ni, 48 saxifadan kam bo'lmagan bosma asarni shartli ravishda kitob deb qabul qilingan.

Kitob siyosiy va mafkuraviy kurashning muhim qurolidir, u ijtimoiy ong mahsuli sifatida sinfiy va partiyaviy xarakterga egadir.

A.Navoiy: "Olamda kitobdan aziz do'st yo'qdir", "Kitoblar inson tafakkuri javohirlarini yig'ib avlodlarga meros qoldiradi", "Kitob g'oyat, g'oyat katta kuchdir";

Oybek: "Xalqning qay darajada madaniyatli ekanligini mamlakatda nashr etilayotgan kitoblarning miqdori bilan o'lchanadi";

Kitob ishi – bu kitobni yaratish, tayyorlash, tarqatish, saqlash va o'rganish bilan bog'liq katta jaryonni o'z ichiga oladi. Kitobni ko'plab chiqarishni paleografiya sanoati amalga oshiradi.

Kitobning paydo bo'lish tarixi Yozuvning yaratilish va shakllanishi jaryoni bilan uzviy bog'liqdir. Yozuvning tuzilish xususiyatlari va materiali kitbning tuzilishini belgilab beradi. Qadimgi Misr, Rim, Yunoniston va O'rta Osiyoda dastlab insonlar tosh, palma darahti barglari, sopol boshqa materiallarga yozishgan, shuning uchun ham qadimgi kitoblar bir necha kilogrammdan iborat bo'lgan. Mil.avv. Dastlab papirusdan, mil.avv.II – asrga kelib pergamentdan foydalanish boshlandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda "Avesto" kitobi ham pergamentga yozilgan.

Arablarining O'rta Osiyoga bosqiniga qadar kitoblar kutubxonalarda saqlangan, halifa Usmon tomonidan pergamentga yozilgan "*Qur'oni Karim*" 681 yili yozilgan bo'lib, hozirgi kunda u Oybek nomli O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda.

Qog'ozning kashf qilinishi kitob rivojlanishida yangi davrni ochdi. Qo'lyozma kitoblar odamlarni kitobga bo'lgan ehtiyojini qondira olmadi, qog'ozning kashf qilinishi kitobning ko'payishiga, tarqalishiga, turli rasmlar, xoshiyalar bilan kitob chiqarish imkonini berdi, hattotlik, muqavvasozlik kasblari shakllandi.

XV – asrning 40 – yillarida Germaniyalik Iogann Gutenberg zamonaviy kitob bosish san'atini ixtiro qildi, u dastlab yog'ochdan keyinchalik metaldan harakatlanadigan harflarni tayyorlab, qog'ozning ikki tomoniga kitob bosishni kashf qildi.

1465 yili Italiyada, 1468 yili CHexoslovakiya va SHveytsariyada, 1470 yili Frantsiyada, 1473 yili Polsha va Vengriyada, 1477 yili Angliyada kitob bosish keng tarqaldi. XVIII – XIX asrlarda bosmaxona, badiiy bezak sohalari alohida kasb sifatida shakllandi. 1798 yilda Litografiya, ya'ni, Toshbosma ixtiro qilindi, endi kitoblarni rasmi hamda turli bezakli qilishi mkoniyati yaratildi.

Pergament – maxsus ishlov berilgan mol teri bo'lib, qadimda xat yozish uchun ishlatilgan, birinchi bo'lib Pergam shahrida (Kichik Osiyodagi qadimiy shahar - Pergam shahri nomidan olingan bo'lib, hozirgi kunda Bergama nomi bilan ataladi) xat yozishda papirus o'rniga pergamentdan foydalanilgan. Pergam shahri kutubxonasida pergament qo'lyozma kitoblar ko'pligi jihatidan Misr (uzoq Aleksandriya) kutubxonasidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

Qog'oz – o'simlik tolasidan tayyorlanadigan maxsulot bo'lib, ermizning II – asrida Xitoyda ixtiro qilinganligi haqida ma'lumotlar mavjud. VI – VIII asrlarda O'rta Osiyo, Koreya, Yaponiya, Hindistonga, VIII – XI asrlarda Arab halifaligiga,

XI - XII asrlarda Evropaga keng tarqalgan. Xitoylik CHay Lun degan kishi qog'oz tayyorlashda eng murakkab usullardan foydalangan. Xitoyda qog'oz tayyorlash uchun bambuk va ipakli darahtlardan foydalanilgan.

Qalam – turkcha “qara” va “tash” so'zidan olingan bo'lib, ko'mirning bo'lagi yoki grafit (qalam qattiq siyoh) ga aytiladi. Ko'mirning yozish xususiyati borligi insoniyatga olovdan foydalanish boshlanganidan ma'lum. XIV – asrdan boshlab Italiyaliklar qalami keng tarqalgan. Qalam ichdagi qattiq siyoh shaklidagi qalam XVI – asrdan boshlab uchraydi. Qalam ichiga quyib ishlatiladigan grafit (qora mineral) xom ashyosi 1565 yilda Britaniyaning Kamberlend grafligida, Ispaniyadan keyinchalik Sbirdan topilgan.

Birinchi bo'lib yog'ochdan qilingan qalam 1790 yilda Frantsuz olimi N.Kante (1755 – 1805 y.y.) tomonidan ixtiro qilingan. Bir vaqtning o'zida Chex olimi Gartmut birinchi bo'lib grafit va loy tuproqdan o'zgaruvchan Yozuv vositasi ishlab chiqarishni taklif etgan, shu taklif asosida XVIII – asrda Lomonosov grafitli qalam ixtiro qilgan.

Qalam ishlab chiqarish uchun 3 protsess : qalamning asosi, qalam taxtachalari va qalam ishlab chiqarishdan iborat.

11-mavzu. ALISHER NAVOIY NOMLI O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONA

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi O'rta Osiyodagi eng yirik va boy kutubxonalardan biridir. U 1870-yilda ochilgan. O'sha vaqtda uning fondida 2000 ta kitob va jurnallar bor bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda kutubxona fondida 70 tildagi 4,5 million tom kitoblar mavjud. Kutubxonaga har yili 250 mingdan ortiq nashrlar kelib tushadi. Bu yerda bebaho madaniy boyliklar saqlanadi, xususan kutubxonada XV-XVII asrlarda nashr qilingan tarix, jug'rofiya, harbiy ishlarga oid nodir kitoblar, O'rta Osiyo va O'zbekiston haqidagi adabiy asarlar to'plangan. Qadimgi va nodir kitoblar bo'limida Fyodorovning "Apostol", Petr I buyrug'iga asosan tuzilgan I.F. Magnitskiyning "Arifmetika"(1703-y.), M.V. Lomonosovning "Rossiya grammatikasi" asarlari saqlanadi.

Kutubxonaning kitoblar fondidan har yili 20 mingdan ortiq kitobxonlar foydalanadilar.

Kutubxona roppa-rosa soat 10 da ochiladi. Dastlabki kitobxonlar o'z o'quv chiptalarini ko'rsatgan holda navbatchidan nazorat qog'ozlarini olib umumiy zalga yo'l oladilar. Bir vaqtning o'zida ilmiy, o'smirlar, periodik, xorjjiy adabiyotlar zallari, qo'lyozmalar, nodir kitoblar bo'limlari hamda mikrofilmlar zali ish boshlaydi.

Kutubxonaga har kuni yuzlab kitoblar, jurnallar, broshura, gazeta va jadvallar keltiriladi.

Kataloglar bo'limida 70 tilda yozilgan kitoblarning nomi yozilgan kartochkalar yig'ilgandir. Ularda kitoblarning muallifi, nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili hamda betlar miqdori ko'rsatilgan. Ba'zi o'rinlarda kartochkadajritobning qisqacha mazmuni, ya'ni annotatiya ham berilgan. Katalogda kartochkalar turli sohalar: falsafa, iqtisod, matematika, fizika, kimyo, texnika, badiiy

adabiyot bo'yicha ajratilgan holdadir. Biror kitob bo'yicha buyurtma berish uchun katalogdan shu kitobning shifrini topish kifoya qiladi. Kutubxona o'z ishini kechqurungi soat 10 da tamom qiladi. Kitobxonlar o'z kitoblarini topshirib, uylariga ketadilar. Sizchi, aziz talaba, ushbu kutubxonaga a'zo bo'ldingizmi? Bo'lmasa, bugunoq a'zo bo'lishga shoshiling!

12-mavzu. Adabiyot- ma'naviyat o'chog'i

MOHLAROYIM NODIRA

Mohlaroyim Nodira yuksak badiiy iste'dod sohibasi, dilkash, samimiy, ma'rifatparvar o'zbek ayolidir. U Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Anbar otin kabi o'zbek mumtoz shoiralari safining sardori bo'lgan.

Shoira 1792-yili Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida tug'ildi. Otkir zehnli Mohlaroyim otin oyi qo'lida ta'lim oldi, xususiy mutolaa bilan shug'ullandi. Sharq mumtoz adabiyotini jiddiy o'rgandi, she'rlar mashq qilib, yoshligidayoq shoira sifatida tanildi. Uning ulg'ayish yillari adabiyot ahli davrasida kechdi. 1808-yili Norbotabiyning o'g'li Umarxon bilan oila qurdi. 1810-yilgacha Marg'ilonda, undan keyin umrining oxirigacha Qo'iqonda yashadi. Mohlaroyim Muhammadalixon va Sulton Mahmudxon ismli o'g'ililar tarbiyaladi. Amiriy taxallusi bilan ajoyib she'rlar yaratgan Amir Umarxon 1822-yilda vafot etib, umr yo'ldoshi Nodirani yolg'izlatib ketdi.

Yirik shoir Amiriy bilan birga o'tkazgan hayot davri Nodira qismatining baxtli onlarini tashkil etdi. Bu davrda u turmush lazzatlaridan bahramand edi. Farzand tarbiyaladi, tabiat va hayot go'zalliklarini tarannum etuvchi ajoyib she'rlar yozdi. Biroq Amir Umarxonning nogahoniy o'limi tufayli Nodira nazmidagi shodlik va baxt tuyg'ulari o'rnini alam va ayriliq iztiroblari egalladi. Haqiqiy ishq tasviri kuchaydi, tasavvufiy ramzu timsollar kuchaydi, sog'inch va armon nolalari rivoj topdi. Mohlaroyim badiiy ijod bilan astoydil shug'ullandi. Nodira, Maknuna, Komila taxalluslari bilan she'rlar yozib, mukammal devon yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Umarxon vafotidan keyin Nodira davlat ishlarida ham bosh-qosh bo'ldi, bu borada o'g'ili Muhammadalixonga homiylik qildi. U ijtimoiy umrini ezgu ishlarga safarbar etdi. Shoiraning mana bu dono so'zlari uning ijtimoiy faoliyatida o'zining amaliy ifodasini topdi:

Xusho oqilki, aylab yaxshilik bunyodini mahkam,
O'tar dayru foniyan o'zini nekmom aylab.

Nodira ezgu ishlar bunyod etdi va o'ltar dunyoda yaxshi nom qoldirdi.

Mohlaroyim Nodira islom diniga samimiy e'tiqod qo'iygan, tasavvuf maslagiga mehr bog'ilagan komil musulmon shoira edi. U islom va tasavvuf yo'nalishida katta kitoblar yaratmagan, tafakkur tarixida iz qoldurgulik kashfu karomatlar ko'rsatmagan bo'lsa-da, ijtimoiy faoliyatini bu ezgu yo'lda shu qadar fidoyilik bilan safarbar etdiki, uning sa'y-harakati bilan din hamda millat takomili uchun tabiiy sharoit vujudga keldi. Shoiraning amaliy faoliyati nazariy va ma'rifiy yutuqlar omili bo'ldi. Nodira ushbu tarixiy xizmatlarini devoni debochasida iftixor va qoniqish hislari bilan yozadi: iUlamoyi din rivojlarig'a imdod yetkurdim, to shar'i sharif rivoj topti, zuhd ahliga

ixlos va aqidatan zohir qildim, to din va millat kamol topti. Fazlu donnish qabilasiga shafqat va marhamatdin oncha inoyatlar ko'rguzdumkim,, e'tibor darajasig'ia taraqqiy qildilar. Soyil va gadolarni talablarig'ia yetkurib, karam va ehson eshikidin noumid yubormadim. Mushafi sharif va kutubi diniy va rasoyili yaqiniy ko'p yozdurdim. Barchasin xolisanlilloh vaqf qildimî. Bunday iftixor izhori Nodira g'iazallarida ham sado beradi:

Din Nodiradin kamol topdi,
Iqbol rafiqu mulki obod.

Yuqoridagi singari savob ishlarni amalgam oshirish Nodira faoliyatining qat'iy shioriga aylangan edi. Uning:

Aylag'ii obod tavfiq adolat mulkini,

Komila, mavlo yo'lida himmati mardona tut
bayti mazkur shiorning badiiy ifodasidir ammo nosoz ijtimoiy muhit Nodiraga vafo qilmadi. Jamiyatdagi ayovsiz kurash Mohlaroyim singari nodir san'atkorlarni o'z manfaati yo'lida qurbon qildi. Aqlu donnish va ezgu fazilatlar sohibi Nodirayi davron nomi bilan shuhrat qozongan shoira 1842-yili Qo'qon bosib olingan paytda Amir Nasrullo tomonidan o'g'illari Muhammad Alixon, Sulton Mahmudxon; mahramlari Xushholbibi, Norbibi, Oyshabibilar bilan birga qatl qilindi.

JA'HON OTIN UVAYSIY (1780—1845)

Atoqli shoira, o'zbek shoirlari murabbiysi Jahonotin Uvaysiy Marg'ilonda tug'ilgan. Otasi Siddiq bobo ikki tilda she'rlar yozgan. Onasi Chinnibibi otinoyi bo'lib, akasi Oxunjon hofiz sifatida mashhur edi. Uvaysiyni Hojixon ismli kosibga uzatishgan, biroq shaxsiy hayoti quvonchli kechmagan. U Nodira bilan hamdardlikda Qo'qonda xon saroyida yashay boshlaydi. 65 yoshida Marg'ilonda vafot etadi. Uvaysiyning 15.000 misraga yaqin she'riy asarlari mavjud. Uning bir devoni O'RFASHIda saqlanadi (inv.№ 1837). Unga shoiraning g'azal, muxammas, musaddas, murabba'lari va «Shahzoda Hasan» hamda «Voqeoti Muhammadalixon» dostonlari kiritilgan. Shoira devonining 3 nusxasi topilgan."Shahzoda Hasan", «Shahzoda Husayn» kabi dostonlari mavjud, «Voqeoti Muhammadalixon» nomli tarixiy asari tugallanmagan.

Uvaysiy hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar uning asarida, ayrim tazkiralarda yetib kelgan. «Majmuai shoiron» tazkirasida (1821) ham shoira ijodiga munosabat bildiriladi. Ijodini izchil ilmiy yo'nalishda o'rganish 30-yillarda boshlangan. Uvaysiy ijodi A.Qayumov, T.Jalolov, I.Haqqulov, E.Ibrohimova v.b. tomonidan o'rganilgan.

SO'Z MULKINING SULTONI MIR ALISHER NAVOIY

O'zbek xalqining buyuk farzandi, so'z mulkining sultoni, ulug' mutafakkir, shoir, zullisonayn azalnavis, olim va davlat arbobi Mir Alisher Navoiy hijriy yil hisobi bilan 844-tovuq yilida, ya'ni 1441-yil 9-fevralda temuriylar hukmronligi Xuroson davlatining poytaxti Hirotning Bog'i Davlatxona mavzeida xizmatchi oilasida tavallud topgan.

Alisher Navoiy bolaligidanoq o'zining ziyrakligi, o'tkir zehni, xush xulqi va xushfahmliligi bilan boshqa tengdoshlaridan ajralib turgan. To'rt-besh yoshidanoq fors-tojik shoiri Qosim Anvar g'azallarini yoddan bilishi, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" falsafiy dostonini to'liq yodlab olgani, etti-sakkiz yoshidan g'azallar bitishi, o'n ikki-o'n uch yoshlarida mamlakat b'ylab shu'rat taratishi va hukmdorlar nazariga tushishi Navoiyning dunyoga tug'ma qobiliyat bilan kelgandan dalolat edi. Biz yaxshi bilamizki, Navoiy faqat serqirra ijodkor, balki yuksak qalb egasi hamdir. U o'zining hayotini qalb osoyishtaligi, tinch-totuvligi, iloji boricha ularning yaxshi yashashi uchun bag'ishlagan. Do'sti, shoh Husayn Boyqaroga ham o'zining hokimiyatni mustahkamlash yo'lidagi odilona maslahatlarini berib turgan. Fan, ilm, obodonchilik madaniyatini rivojlantirishdek ulkan ishlar qanchalik og'ir va mas'uliyatli b'lmasin, ularni katta mehr-muxabbat va ulug'vorlik bilan amalga oshirgan.

Navoiy xalqparvar, halol, jonkuyar bo'lganligi uchun xalq unga "Amiri Kabir" ("Ulug' amir"), Husayn Boyqaroga esa "Muharrabi Shohiy" ("Shohning eng yaxshi kishisi") deya unvon bergan. U o'z hisobidan xalq uchun "Ixlosiya" madrasasi, "Xalosiya" xonahoqi, "Shifoia" tabobatxonasi, Jome masjidi, "Dorul xuffoz" va shu kabi boshqa o'nlab binolar, rabotlar ³urdiradi, kanallar qazdiradi. o'sha zamonning boshqa ko'plab ilm a'li, san'at aqlini atrofiga to'playdi. Ularga homiylik qiladi. Bu ulug' siymo 1501-yili 3-yanvar kuni Hirotida og'ir betoblikdan vafot etadi. Butun mamlakat a'li uning uchun motam tutadi. Navoiyning xalqimiz oldida qilgan xizmatlari beqiyosdir. U turkiy tilimiz dovrug'ini birinchilardan bo'lib dunyoga taratdi. Xalqimiz ma'naviy merosiga 'zining ulkan hissasini qo'shdi. Uning asarlari o'lmas xazinadir.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Navoiyning xalqimiz oldidagi xizmatlarini munosib ba'olandi. O'zbekiston milliy bog'iga Navoiyning nomi berilib unga haykal ³yildi. Ulug' inson xotirasi uchun qur'on tilovat qilindi. Bundan tashqari teatr, kinoteatr va ko'chalarimizga buyuk zotning nomi berildi. Shuningdek, keyingi yillarda Tokio, Moskva va Boku shaharlarida ham ulug' o'zbek shoiri haykali ham qad rostladi. Yurtimizda har yili fevral oyida A.Navoiyning tavallud kuni nishonlanadi. Maktab, litsey, kollej, institutlarda Navoiyxonlik kunlari o'tkaziladi. Navoiy g'azallari, dostonlaridan parchalar qiladi. Milliy bog'dagi uning uaykali poyiga guldastalar ³yiladi. Mana bu yil ham vatanimizda A.Navoiy tavalludining 570-yilligi keng nishonlanmoqda. Men bu an'ana uzoq yillar davom etishiga ishonaman. har safar Milliy bog'ga borganida Navoiyning munis, mehribon siymosi mehr bilan bizga boqib turganday tuyuladi. Aminmanki, dunyoda ma'naviyatli insoonlar bor ekan, ularning xotirasi ham, asarlari ham qadam-baqadam kelgusi avoldga bus-butunligicha etib boradi.

ZAHIRIDDI MUHAMMAD BOBUR

Ulug' o'zbek shoiri, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi, markazlashgan davlat va boburiylar saltanati asoschisi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon shahrida (1483-yil 14-fevral) tug'ildi. Amir Temurning beshinchi avlodi, Farg'ona hukmdori Umarshayxning farzandi. Bobur 12 yoshda (1494) taxtga chiqdi. 1503-1504 yillarda Afg'onistonni egalladi. 1519-1525 yillarda Hindistonga 5 marta yurish qiladi. Uch asrdan ortiq davom etgan (1526-1858 yillar). Boburiylar saltanatiga asos soldi 1530-yilning dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi. Qabri keyinchalik vasiyatiga ko'ra Qobulga ko'chirilgan.

Lirik merosi "Qobul devoni" (1519)ga, 1528-29 yillarda "Hind devoni"ga jamlangan. To'liq devon tuzgani haqida ma'lumot bor. She'rlarining umumiy hajmi 400 dan ortadi. Shundan 119 g'azal, 231 ruboiy va tuyuq, qit'a, fard, masnaviy kabi janrlarda asarlar yaratgan. She'rlarini mavzu jihatidan oshiqona, ta'limiy, tasavvufiy, hasbi hol kabi turlarga ajratish mumkin. Bobur she'riyati intellektual qalb izhori sifatida ardoqlidir. Uning asarlari samimiy, ravon, usluban tugal va mushakkaldir. Bobur ruboiy janrini turk adabiyotida dunyoga olib chiqqan shoirdir.

Boburning ulug' asari "Boburnoma" bo'lib, uni "Vaqoe" deb ham nomlaydilar. Buyuk memorial asarda 1494-1529 yillar Markaziy va Kichik Osiyoda, Yaqin va O'rta sharq mamlakatlarida kechgan voqealar bayon etilgan. "Boburnoma"ning o'ndan ortiq qo'lyozma nusxalari bor. Asarni Qozonda N.I. Ilminskiy (1857), Londonda Beverij xonim nashr (1905) etgan. O'zbekistonda dastlab professor Fitrat 1928-yilda asardan parchalar e'lon qildi. "Boburnoma"ning 1948-1949 yillarda ikki jildli; 1960, 1989 yillarda tuzatilgan, 2002 yilda to'ldirilgan qayta nashri amalga oshirildi.

"Boburnoma"ni Abdurahim xoni xonon (1586) fors tiliga, Vitsen (1705) golland tiliga, J.Leyden (1826) va V.Erskin ingliz tiliga, Pavel de Kurteyl (1871) fransuz tiliga, Rashit Rahmati Arat (1940) turkchaga, Mixail Sale (1943) ruschaga tarjima qilganlar. 1826-1985 yillar davomida "Boburnoma" 4 marta ingliz (1826,1905,1921,1922), 3 marta fransuz (187, 1980, 1985), 1 marta nemis (1878) tiliga o'girilgan.

Bobur yangi alifbo - "Xatti Boburiy"ni (1504) kashf qildi. Unda she'rlar yozdi va Qur'on ko'chirtirdi. Boburning soliq ishlari haqida ma'lumot beruvchi "Mubayyinul-zakot" (1521), aruz vazni haqidagi "Risolai aruz" (1523-25) kabi asarlari bor. "Aruz risolasi"da turkiy aruzning tabiati, taraqqiyoti va she'riy asarlardagi ko'rinishlari; aruzning 272 vazni va 21 bahriga ilmiy sharhlar berilgan. Xoja Ahror Valiyning "Volidiya" asarini o'zbekchaga she'riy tarjima qilgan. Boburning "Harb ishi", "Musiqqa ilmi" nomli asarlar yaratgani haqida ham ma'lumot bor. Ammo, ular topilgan emas.

13-mavzu. Internet hayotimizda.Og'zaki yozma uslub va uning xususiyatlari

1 – avlod mashinalari. Bu kompyuterlar XX 40-yillarida paydo bo'lgan. Edison tomonidan 1883 yil vakuumdagi tuk utkazish mumkinligini kashf kilinganiga karamay. 1904 yili Fleming birinchi vakum diodli elektron lampani qurdi. Keyinchalik Li de Forrest vakumniy triod kashf etdi, keyin gaz tulatilgan elektron lampa – tiratron kashf kilindi. 30-yillargacha elektron vakumli va gaz tulatilgan

lampalar radiotexnikada ishlatilgan. Lekin 1931 yilda ingliz olimi Vinni-Vilyams (fizik eksperimentlar uchun) elektr impulsli tiratron schetchik ishlab chikdi, shu bilan u elektron lampalarga yangi yo'nalish ochib berdi. EXMda elektron lampalar ishlatilishi juda katta muammolar keltirib chiqarardi. Lampalarning uzunligi 7 sm bo'lganligi uchun mashina xajmi juda katta bulardi. Xar 7-8 minutda bir lampa ishdan chiqardi, undagi lampalar 15 - 20 mingta bulishini xisobga olsak kuygan lampani topib almashtirishga juda kup vaqt ketardi. Bundan tashkari ular uzidan juda katta issiklik energiyasi chiqarardi, uni ishga solish uchun maxsus sovutgichlar kerak edi. I avlod kompyuterlariga Mark 1, ENIAC, EDSAC (Electronic Delay Storage Automatic Calculator), UNIVAC (Universal Automatic Computer) misol bo'la oladi.

2 – avlod mashinalari. “Nyu-York Tayms” gazetasining 1948 yilning 1 iyulida “Bell telefon laboratoriz” firmasi elektron lampa o'rnini bosa oladigan elektron kurulma ishlab chikarganini e'lon qiladi. Fizik-teoretik Djon Bardin va mazkur firmaning eksperimentatori Uolter Braytten birinchi tranzistor yaratishdi. Tranzistorga asoslangan birinchi kompyuterlar 50-yillarning oxirlarida paydo bo'ldi. 60-yillarda tashqi tomondan ancha kichikrok kompyuterlar paydo bo'ldi. Digital Equipment firmasi 1965 yilda birinchi xolodilnikka teng keladigan kiymati atigi 20000 \$ ni tashkil kiladigan mini-kompyuter PDP-8 yaratdi. Tranzistorning eng qulay jixati shunda ediki 1 tarnzistor 40 ta elektron lampalar urnini bosa olardi. Kompyuterdagi eng katta yangilik tezligining bir sekundga million operatsiya bajara olishi bo'ldi. Tranzistorli kompyuterlar oilasiga “Stretch” (Angliya), “Atlas” (SShA). Usha davrdagi “BESM-6” (SSSR).

3 – avlod mashinalari. Tranzistorlar o'ziga yarasha ikkinchi avlod kompyuterlarini keltirgan bo'lsa uchinchi avlod kompyuterlari yaratilishiga sabab integral sxemalar bo'ldi. Integral sxema (uni yana kristall-deb xam atashadi), usti kremni kristalidan iborat bulib 10 mm 2 xajmga ega edi. Birinchi integral sxemalar (IS) 1964 yil paydo bo'ldi. Boshida ular faqat kosmik va harbiy soxada ishlatildi. Xozir esa ularni xar kayerda uchratish mumkin (avtomobil, Kir yuvish moshinasi va x.k.). Kompyuterlarga keladigan bo'lsak IS siz ularni tasavvur etib bulmaydi! Bitta IS 1000 tranzistorning urnini bosa olardi. Bir so'z bilan aytganda kichkina bir kristall 30-tonnali Eniakning vazifasini bajara oladi! Uchinchi avlod EXMning ishlash tezligi 100 baravar oshdi.

4 – avlod mashinalari. Katta integral sxemalar, kristalda birnecha IS lar urnatish mumkinligini isbotlanganligi bilan boshlangan. Mikroelektronikaning usishi bitta kristallda minglab integral sxemalar joylashga imkon berdi. 1980 yilga kelib, uncha katta bulmagan kompyuterning markaziy protsessorini 1,61 sm²ga urnatish mumkin ekanligini ishlab chikishdi. Mikrokompyuterlar davri boshlandi. Zamonaviy mikro EXMning tezligi qanday? U 10 baravar uchinchi avlod kompyuterlaridan. 10 baravar tezroq ishlaydi.

14-mavzu. O'ZBEKISTON VA JAHON.Rasmiy diplomatik uslub

O'zbekiston qisqa vaqt ichida ulkan ishlarni amalga oshirdi. Muhimi, davlatimiz respublikani suveren davlat sifatida tashkil toptirish yuzasidan xalqaro hamkorlikni rivojlantirdi. O'zbekiston 165 davlat tomonidan tan olindi. 120 dan ortiq mamlakatlar bilan diplomatiya munosabatlarini o'rnatdi. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochdi.

Bugungi kunda O'zbekiston obro'li va nufuzli xalqaro tashkilotlar a'zosi. Qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni o'rnatgan. Eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonda 24 ta hukumatlararo tashkilotlar, 13 ta nohukumat tashkilot ishlab turibdi.

O'zbekiston dunyo miqyosida turli darajadagi integratsiya jarayonlarida qatnashmoqda. Bozor tizimiga asoslangan demokratik davlatni barqaror toptirish yo'lida jahon hamjamiyati bilan xalqaro aloqani mustahkamlash va kengaytirishga intilayapti. Ayniqsa, xavfsizlik borasida BMT bilan hamkorlikda turli yig'ilish va seminarlar o'tkazishga erishdi. BMTning ixtisoslashgan YuNeSKO, YuNISEF, Jahon soliqni saqlash, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNATAD va boshqa muassasalari bilan hamkorliklikni rivojlantirayotir.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda xalqaro moliyaviy tashkilotlar -xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamkorlik yordamini bermoqda.

O'zbekiston mintaqaviy tashkilot bilan ham yaqindan hamkorlikka alohida e'tibor bergan.

Fan, madaniyat, ta'lim, transport kommunikatsiyasida ham har tomonlama hamkorlikni kengaytirishga ahamiyat bergan.

15-mavzu. XXI-ASR innovatsiyalari. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari

Insoning butun hayoti biror darajada axborotlar olish ularni toplash va qayta ishlash bilan bogliq. Umuman insonning barcha bilimlari toplangan va tartiblashtirgan axborotlardan iborat. Kitoblar oynoma va roznomalar oqiyimiz, televizor koramiz ilmiy ishlar bilan shugilanamiz ijod qilamiz yaratamiz, odamlar bilan suhbatlashamiz, xullas, biz doimiy va uzliksiz ravishda ahborotlar olib turamiz hamda ularni qayta ishlaymiz. Keng manoda inson xolating ozgarishiga sabab xar qanday tasirni ahborot deb xisoblash mumkun. Bugungi kunda ahborotlar olami shu qadar kopayib ketgani, ularni bevosita qayta ishlash uyokida tursin, xatto qabul qilishga xam urinib bolmaydi.

Ijtimoiy xayotda va ishlab chiqarishda EXMlarni qolashda bolgan talab va ehtiyojlar nazarida tutiladigan bolsa, xisoblash texnikasining rivojlanish asosida yuzaga kelgan mutlaqo yangi fan – informatika [axborotshunoslik]ning asosini organishda togri keladi. Informatika -ilmiy ahborotlarning umumiy xossalarini va tuzilishini [tarkibiy qisimlarini], shuningdek ularni toplash, saqlash, axtarish, qayta ishlash, o'zgartirish tarqatish va ulardan inson

foilyatining turli sohalarida foydalanish bilan masalalarini orgatuvch fan tarmogidir

Xosh aftamatlashtirishdan bizga nima foyda EXMiarning vazifasi nimalardan iborat? Vaqtni tejash va shu orqali mehnat samaradorligini oshirishda albata EXMlar qol keladi. Bolayotgan ijtimoiy va tabiiy ozgarishlar togrisdagi malumotlarni qabul qilishda ,turli xolatlarni taqqoslashda va boholashda , mantiqiy xulosalar chiqarishda elektron xisoblash mashinalari insonga tengsiz yordamchidir. Qanday masalalar xal etamiz ,EXMlarning vazifa bitta: xarflar raqamlar so'zlar bilan ifodalangan xolda qabul qilingan axboratlarni qayta ishlab berishdir. Masalan jaxoning ko'pgina kutubxonalarda axborat sistemasi yaratilgan. Kutubxonalar bo'lmasiga bitta yoki bir nechta xizmatchi vazifasini bajaradigan qudratli EXM lar ulangan ekranlar- displeylar o'rnatilgan. Bunday displeylar ishga tushurilib kutubxonada qiziqtiruvchi masalar tegishli yoki yangi qabul qilingaqn adabiyotlar ro'yhatini tezda olish shuningdek, biron maqolaning qisqacha mazmuni bilan tanishish . ravshanki bunday ma'lumotlarni ahtarib topishga sarflangan vaqt ancha tejaladi. Ish joyida EXMlarning bo'lishi katta miqdordagi axborotlarni saqlash va ularni qisqa daqiqalarda tartiblashtirish imkonini beradi. Ilmiy dargohlarda kimyo, fizika tajribalar o'tkazishda xarorat, kuchlanish , tebranish kabi kuzatish ishlari EXM larsiz samarali natijalarga erishish mumkin emas. EXMlarsiz fazoga uchirilgan raketalarni yerdan turib boshqarish imkoni bo'lmasdi. Chunki hisoblashlar shunchali ko'pki raketa bosib o'tgan yo'lning faqat bitta nuqtasi koordinatalarini u yerga qaytib tushgandan keyingina hisoblashga ulgurish mumkin. Ehtimol oymomamiza mushtariylarning ko'pchiligi EXM xizmatidan foydalangandirlar. Axir, mamlakatimizning ko'pgina shaxarlari vokzalarda pattalar EXMlar boshqaradigan teletaypdan bevosita beriladi. Yillar davomida EXMlar bosqichma bosqich takomillashtirib borilgan va ularni tashkil etgan unsurlar xam o'zgartirilgan. Bizni mamlakatimizda 50- yaillarning boshlarida birinchi turdagi EXMlar ishlab chiqarila boshlagan bu BESM-1 mashinasi edi. Bu mashina boshqa turdagi radioelektronika apparatlariga qarganda tuzilish jihatdan ancha murakkab bo'lgan.. demak, birinchi avlod sxemalarini tashkil etgan bo'lib bunda asosan radoilamopalardan foydalanilgan. Ikkinchi avlod mashinalarining asosini yarim o'tkazgichli unsurlar tashkil etgan. Uchinchi avlod mashinalaridan integral shakillardan foydalanilgan integral deyilishiga sabab ularning bitta kristalida juda murakkab mantiqiy vazifalar yo'lga qo'yilgan. To'rtinchi b avlod mashinalarida bunday qurilmalaridan tashqari tezkor xotira si mikro- protsessorlar keng tatbiq etilgan. Demak, EXM lar vazifalari, xususiyatlariga, umumiyligiga axboratlarni qayta ishlash tezligi va katta miqdordagi axboratlarni saqlashga ko'ra bir biridan farq qiladi. Albata inson yaratgan mashinalar qanchalik "aqilli" mo'jizakor bo'lmasin, ular faqat inson ko'rsatmasi u tuzgan dasturlar asosidagina ishlaydi. Dasturlar esa ma'lum qoidalar asosida tuziladi. Dasturlarni tuzishda tegishli qoidalardan ozgina chetga chiqilsa ham mashina talab etgan ammalarni bajarmaydi.

Demak, mashinani ishlashi uchun behato ishlaydigan dastur kerak. Turli buyruqlardan iborat dasturlarda qaysi amallar qay tarzda amalga oshirilishi va qaysi sonlar bilan bajarilishi ko'rsatilgan bo'ladi. Masalan, aylana bo'ylamasining uzunligi 10 sm bo'lgan doiraning yuzini hisoblash uchun mashinalarga quyidagi buyruqlarni berish lozim: 1.10ni 10 ga ko'paytirish. 2 hosil bo'lgan natijani 3.14159 ga ko'paytirilishi. 3. Natijani display yoki qog'ozga ko'chirish 4. Ishni tugatish. bunda mashinani ikkiga ko'paytirish bosqichini natijani display qog'ozga ko'chirish buyrug'I bajaraladi va to'ta buyrug'I tugmasi bosilishi bilanoq yangi dasturni bajarishga tayyor turadi. Allbata EXM qanday tuzilgan savol hamani qiziqtiradi. EXM juda ko'p elektron, elektronmexanik va mexanik qurilmalaridan iborat. Ammo o'ziga xos vazifalarni bajarishlariga ko'ra eng muxim qurilmalar ni ajratib ko'rsatish mumkin. Ular quyidagilar arifmetik- mantiq qurilmasi xotira qurilmasi boshqarish qurilmasi axboratlarni kiritish va chiqarish qurilmasi.

16-mavzu. San'at va ma'naviyat. Umumxalq leksikasigagi san'atshunoslik terminlari

Orol Dengizi bundan 20-30 yil avval eng katta sho'r ko'l bo'lgan. Dengiz o'rta asrlarda yigirmadan ortiq nom bilan atalib kelgan. Orol dengizi sohilida yashovchi o'zbek, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlar uni Shimoliy dengiz, Sho'r dengiz, Jayhun dengizi, Jand ko'li, Xorazm dengizi, Qora dengiz, Orol dengizi va hokazo nomlar bila ataganlar. Lekin keyinchalik "**Orol dengizi**" deb atala boshladi. Bu nom Amudaryo deltasida daryo tarmog'i bilan dengiz oralig'idagi orolsimon joy nomidan kelib chiqqan deyiladi. Arab sayyohi va geografik Istaxriy X-asrda Orolni "Xorazm ko'li" deb atagan va Sirdaryoning shu dengizga quyilishini yozib qoldirgan. Orol dengizini 1-marta A.I. Butakov 1848-1849 yillarda tekshirgan va xaritaga tushirgan. Orol dengiziga 1960-yillar o'rtalarigacha O'rta Osiyodagi 2ta eng katta daryo- Amudaryo va Sirdaryo suvi quyilgan. Keyinroq bu daryolarning suvi keskin kamaygan. 1970 yillarda Orol dengizining maydoni 57 ming kvadrat kilometr, qirg'oq chizig'ining uzunligi 4500 kilometr bo'lgan. Kattaligi bo'yicha dunyoda Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin 4-o'rinda turgan.

Hozirgi kunda Orol dengizi sathi keskin kamaya borib, salkam 40 ming kvadrat kilometr joy quruqlikka aylandi. U joylar "Orolqum" deb atala boshladi. Orolqumdan shamolda chang-to'zon ko'tarilib, atrof-muhitga zarar keltira boshladi. Dengizning sho'rliigi ham tobora ortib boryapti. Bularning hammasi xalqaro muamoga aylandi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'armani 1997-1999 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov boshqardi. Orol muammosi yechimini topish maqsadida O'rta Osiyo respublikalari prezidentlari bir necha marta uchraruvlar o'tkazdilar. Orol dengizi atrofida 70 dan ortiq suv havzalari barpo etildi. Xitoyliklar bilan hamkorlikda Orol dengiziga quyiladigan kanallar qurilyapti. 1999-yilga kelib Orolning chekinishi to'xtatildi. Endigi vazifa dengiz suvini butun choralari bilan

ko'paytish, Orolqumda tuz va qum ko'chishini to'xtatish va eng asosiysi dengiz atrofida istiqomat qilayotgan aholining salomatligi haqida qayg'urishdan iborat.

Orol dengizi atrofida yashayotgan aholida ko'proq buqoq, kamqonlik kasalliklari uchraydi. Tug'iladigan yosh bolalar esa kasalmand bo'lib tug'iladilar. Biz u yerda yashayotgan aholining salomatligi haqida qayg'urishimiz kerak. Har doim shifokor nazoratida bo'lishlari kerak. Faqatgina, Orol dengizini qurib qolishini oldini olish mumkin. Uning uchun biz suvni bekordan bekor isrof qilmasligimiz kerak. Agar aholini ko'chirishni iloji bo'lmasa buqoq va kamqonlikka qarshi dori-darmon bilan har vaqt aholini ta'minlab turish kerak. Yana u yerdagi har bir aholiga vitaminli dorilar yetkazib berish kerak. Mevalar, sabzavotlar, oziq-ovqat va eng asosiysi toza suv ham yetkazib berish kerak. Orol dengizini mening fikrimcha faqat 1 ta yo'l bilan ko'paytirish mumkin, ya'ni, Amudaryo va Sirdaryo suvini ko'proq Orol dengiziga quyish kerak. Orol dengizi ilgari vaqtda dunyodagi eng katta ichki dengizlardan biri hisoblanib, unda balikchilik, ovchilik, transport va erkratsion maqsadlarda foydalanilar edi. Dengiz suv rejimini unga kuyiladigan Amudaryo, Sirdaryo, er osti suvlari hamda atmosfera yonilgilari tushishi va yuzadan suvning buglanishi tashkil etadi. qadimgi tarixiy davrlarda dengiz sathining 1,5 - 2,10 o'zgarishi tabiiy iqlim hususiyati bilan bo'liq bo'lib, suvning hajmi 100 - 150 kub km, suv sathi maydoni - 4000 kv, km ni tashkil etgan.

17-mavzu. Davrimizning global muammolari. Maqola va uning turlari

OROL DENGIZI

Sug'oriladigan dexkonchilikning rivojlanishi natijasida su'orilishga foydalaniladigan kaytmas suvlar va kurkchilik yillari Amudaryo va Sirdaryoning deltasiga kuyiladigan suv miqdori kamaydi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda dengizning sathi 1961 yilga nisbatan 16,8 m ga pasaydi. 1994 yil 36,6 m. Bunda dengizning hajmi 3 marta, yuzasi 2 marta, shurlanish darajasi 9-10 gG'l dan 34-37 gG'l ga ortadi; 2000 yilga borib 180- 200 gG'l kutariladi. Schozirgi kunda dengiz sathining pasayishi yiliga 80 - 110 sm tashkil etmoqda. Kirgok chizigi 60 - 80 km pasayib, ochilib qolgan erlar 23 ming km² tashkil etadi. Amudaryo va Sirdaryoning kuyi okimlarida suvning sifati yomonlashadi, hamda ichish uchun yaroksiz bo'libqoladi. Ekologik tizmlar, o'simlik va hayvonlar chuqur inkirozga uchrayapti. Eng yomon axvol Janubiy oroldir. Ushbu mintaqa

o'z ichiga shimoliy garbiy qizil qum, Zaungao'z, Qora qum, Janubiy ustyurt va Amudaryo delütasi kabi landshaft komplekslarini oladi. Orol bo'yining umumiy maydoni - 473 ming km² bo'lsa, uning Janubiy qismi 245 ming km² tashkil etadi. Bunga KKR hududi, O'zbekistonning Xorazm viloyati, Turkmanistonning Toshavvo'z vilochtlari kiradi. Orol va orol bo'yida sodir bulayotgan jadal ravishdagi chullanish hodisasi dunyo tajribasida uchratilmagan. Shuning uchun ham mikdor va sifat jixatidan baxolash ancha qiyinchilikalrga duch kelmoqda. Dengiz tubining ochilishi va daryo delütalarining qurishi hisobiga cho'l maydonlari kengaymoqda.

Ochilib qolgan 1 mln ga maydon yuzasi mayda tuz zarrachalari bilan koplanib yangi shakldagi kum qoplamlarini hosil qiladi.

Shunday qilib, markaziy Osiyo hududida kum, tuz ayrozonalarini shamol yordamida kuchirib yuruvchi kuchli yangi manba vujudga keldi. Dastlabki ma'lumotlarga karaganda yiliga atmosferaga 100-150 mln. tonnagacha chang - tuzon kutarilishi mumkin. Dengiz tubidan kutarilganchang - tuz tuzoni atmosfera ifloslanishi 5% ham ortib yubormoqda Chang - tuzonlarning atmosferaga kutarilishi 1 marta 1875 yili kosmosdan ko'zatilgan. Chang - tuzon uzunligi - 400 km, eni esa 40 km bo'lib, radiusi 300 km tashkil etadi. Tuzlarning er yuzasida yogilishi natijasida paxtaning hosildorligi 5 - 15 % sholining esa 3-6 % pasayib ketdi. Orol bo'yiga yogilayotgan chang - tuz zarrachalaridan umumiy mikdor o'rtacha 520 kgG'ga tashkil etib, tuproq holati yomonlashuvining asosiy sababchilaridan biri bo'lib koldi. KKR ning su'oriladigan maydonlari chang - tuz fraktsiyalari 250 kgG'ga dan Chimboy tumanida 500 t gacha boradi. Shurlangan kum tuzlari yili orol bo'yidagi 15 imng ga Yaylovlarni egallabbormoqda. ~o'za uchun ajratilgan maydonlar kasallik ko'zgatuvchi zarakunandalar bilan zararlangan. qishloq xo'jalik maxsulotlari hosili pasayib ketmoqda. Daryoning yuqori okimidagi hududlarda meliorativ holati yomonlashishi (Surxondaryo, Kashkadaryo, Buxoro, Samarkand) II kategoriyada erlaning ko'payishiga olib kelmoqda.

Amudaryoning o'rta oqimi joylashgan. Turkmanistonning suv xo'jalik tumanlaridamurakkab meliorativ holat kelib chikmoqda. Amudaryo va Sirdaryoning kuyi okimlarida ko'pchilik maydonlar konikarsiz meliorativ ahvoli bilan 3 va 4 katigoriyaga mansub erlar hisoblanadi, shurlangan, kuchli shurlangan maydonlar 35-70 % tashkil etadi. Tuproq-larning shurlanishi hisobiga kishlk xo'jalik maxsulotlari hosili O'zbekistonda - 30%, Turkistonda 40 %, Kozoxistonda - 33%, Tojikistonda - 1990 Kirgizistonda - 20 % pasayib ketdi. Kuchli shurlangan er osti suvlarning joylashishi, chullanishi jarayonini kuchaytirmoqda. Amudaryo av Sirdaryo kirgoklarini pasayish natijasida daryolarning kuyi qismida suv toshkinlarini akmaytirib yuboradi. Bu o'z navbatida tukay o'simliklari maydonlarini qisqarishiga, ilgari gumusga boy bo'lgan utloki - botqoqli tuproqlar unumsiz utlok takir cho'l, kumli tuproqlarga aylanishga olib keladi. Sutemizuvchi hayvonlar qushlar kamayib ketdi. Kurigan maydonlar aholi uchun xavfli kasalliklarni tarkatuvchi kemiruvchilar bilan tulib bormoqda. Orol bo'yining sanitar - epidemiologik ahvoli nixoyatda ogir aholi markaz-lashtirilgan suv bilan ta'minlash 29- 67 % ni tashkil etadi. Aholini yarmi ifloslangan ochiqsuv havzalaridan foydalaniladi. Orol dengizini saqlab qolish mumkinmi? Orol muammosini asosi uni dengiz sifatida saqlab qolish tashkil etadi.Shuni ta'kidlash lozimki Orol o'z tarixi davomida ilmiy ma'lumotlarga karaganda ko'p marta o'z shaklini o'zgartirganini va ko'rib qolgani ma'lum. Orol dengizining dastlabki absolyut balandligini tiklash uchun ming kub km dan ortiq suv kerak bo'ladi.

18-mavzu. Tabiyat va inson. Intervyu olish va intervyu berish qoidalari

O'zbekiston tabiyati haqida. Geografik joylashuvi

O'zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan, maidoni 447,4 ming kv. km. Respublika chegarasi g'arbdan sharqqa - 1425 km, shimoldan janubga qadar - 930 km. Respublika Qozogiston, Qirgiziston va Tojikiston, Turkmaniston, Afgoniston bilan chegaradoshdir.

Rel'efi

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida juda qulay tabiiy-geografik sharoitlarga ega. Mamlakat hududi o'ziga hos past - tekislik va tog' rel'efini o'z ichiga oladi. O'zbekiston hududining katta qismini (4/5 qismi atrofida) past tekisliklar tashkil etadi. Shulardan eng muhimi Turon past-tekisligidir. Mamlakat sharqi va shimoliy sharqida Tyan-Shan va Pomir tog' tizmalari joylashgan. O'zbekiston hududi markazida dunyoning bepoyon cho'llaridan biri - Qizilqum yastanib etadi.

Iqlimi

O'zbekiston iqlimi keskin o'zgaruvchan kontinental iqlimdir. Mintaqadagi kunduzgi va tungi, ezgi va qishki havo harorati keskin farqlidir. yillik havo harorati farqi sezilarli darajada yuqori. Pasttekislik hududlarida yillik yog'ingarchilik miqdori -120-200 mm., cho'l hududlarida -1000 mm. gacha etadi. Yog'ingarchilik miqdori kam bo'lgani sababli, qishloq xo'jaligi sun'iy sug'orish tizimiga bog'liqdir.

Ichki suv havzalari

Mamlakatning eng yirik daryolari Amudaryo va Sirdaryo. Amudaryo uzunligi - 1437 km., Sirdaryo - 2137 km.ga etadi. O'zbekistonning ko'pgina ichki daryolari suvi oquvi davomida keng dashtu-cho'llarga singib ketadi, faqatgina Amudaryo va Sirdaryo Orol dengiziga borib quyiladi. Respublikada yil davomida suv bilan ta'min etib turuvchi Chordaryo kabi bir necha sun'iy ko'llar mavjud.

Tuproq va o'simliklari

Pasttekisliklar cho'l o'simliklari, tog'lari esa dasht, o'rmon va tog'oldi yailovlari o'simliklaridan iborat.

Hayvonot dunyosi

Mamlakat faunasi juda turli-tumandir. Cho'llarda juda kamyob hisoblanagan sayg'oq va uzunligi 1,5 metrga teng echkiemar, baland tog'larda esa qor barsi va tog' echkisining noyob turlari va ayiqlar uchraydi.

Tog' tizimi

Respublika territoriyasining 1/5 qismini tog va tog'oldi hududi tashkil etadi. Sharqiy hududi o'rta va baland tog'li rel'efdan iborat: respublika hududi Garbiy Tyan-Shan (Ugom, Pskem, Chotqol va Qurama tog' tizmasi) va Pomir-Oloy (Zarafshon, Turkiston, Hisor, Ko'hitangtog' va Boysuntog' tog' tizmasi) tog' tizmalari yonbagrini o'z ichiga oladi. Janubdan g'arbga tomon ular qiyalab boradi va pasttekislikka qo'shilib ketadi. Ushbu tog'lar orasida ulkan Qashqadaryo, Surhondaryo, Zarafshon va Samarqand vohalari yastanib etadi. Bularning eng kattasi

hisoblangan Farg'ona vodiysi -370 kilometr, kengligi 190 kilometrga etadi. U uch tomondan baland tog' bilan o'ralgan va faqat g'arb tomoni tekislikdir. Afg'oniston bilan chegara hududda Amudaryo del'tasi yoylib yotadi.

Nima uchun yil fasllari o'zgaradi?

Bir yilda Yer sayyorasi Quyosh atrofida deyarli milliard kilometr masofani o'tadi. Yer o'qi orbitaga nisbatan biroz qiyaroq joylashgan. Shu tufayli Quyosh yil mobaynida Shimoliy va Janubiy yarimsharlarni turli kuch bilan isitadi. Bizning kengliklarimizda to'rt fasl (**bahor, yoz, kuz, qish**) ning mavjudligiga asosiy sabab ana shu.

Qish. Qish –yilning eng sovuq fasli. U qishki quyosh turishi kuni, ya'ni 22-dekabrda boshlanadi. Ana shu kun – yilning eng qisqa kuni. Shu kundan boshlab kunlar borgan sari uzayib boradi. Qishda ko'p daraxtlar o'sishdan to'xtaydi, ba'zi hayvonlar (masalan, ayiq) uyquga kiradi. **Bahor** fasli, to'rt [fasldan](#) biri bo'lib [qish](#) va [yoz](#) fasllarining o'rtasida joylashgan [fasldir](#). Bahor fasli 3 oydan iborat: Shimoliy yarimsharda - [mart](#), [aprel](#) va [maydan](#), janubiy yarimsharda esa [sentabr](#), [oktabr](#) va [noyabrdan](#).

Qish to'rt [fasldan](#) biri bo'lib, [kuz](#) va [bahor](#) fasllarining orasida joylashgan eng sovuq fasldir. Qish fasli 3 oydan iboratdir. Shimoliy yarimsharda: [Dekabr](#), [Yanvar](#) va [Fevraldan](#), Janubiy yarimsharda esa: [Iyun](#), [Iyul](#) va [Avgustdan](#). Bu faslda iqlim darajasi minusga qarab tusha boshlaydi. Shu sababli sovuq yog'ingarchiliklar orta boshlaydi.

Qish — yil fasllaridan biri. Mo'tadil mintaqalarda (shu jumladan, O'zbekistonda) dekabr, yanvar va fevral oylarini o'z ichiga oladi. Q. faslining astronomik davomiyligi urtacha 89,0 sutkadan iborat. Q.ning boshlanishi deb Quyoshning qishki turish nuqtasidan o'tishi kunlari (21 — 22 dekabr) qabul qilingan. O'zbekistonda Q. fasli xiyla sovuq keladi. Eng sovuq oy — yanvarning o'rtacha t-rasi tekisliklarda (Ustyurt. Churuk st-yasi) — 10°, jan. sharqda (Temir, Sherobod) 2—3°, mutlaq past t-ra jan.da —25°, —30° va shim. g'arbda —35°, —38". Lekin tekisliklarla Q.da ham 15—20°, tog'larda 5—10° gacha iliq kunlar bo'lib turadi (q. [Yil fasllari](#)).

Bahor. Astronomiy akalendari bo'yicha bahor 20 martdan boshlanadi. Anashu kuni kechasi bilan kunduzi tenglashadi va kecha-kunduz tengligi deb ataladi. So'ngra kunlar asta-sekin uzaya boradi, havo issiqlashadi. O'simliklar uyg'ona boshlaydi va gullaydi.

Bahorda daraxtlar g'uncha tugishga, havo asta-sekin isishga boshlaydi. Bu faslda qish faslida yog'ib o'tgan qorlarning erishi va juda ko'p miqdorda [yomg'ir](#), [do'l](#) kabi yog'inlarning yog'ishi suv omborlarini, ko'l va ko'lmaklarning to'lishiga sabab bo'ladi. [Chaqmoq](#) va [Momoqaldiraq](#) kabi tabiat hodisalari ham eng ko'p bahor faslida ro'y beradi. Bahor faslida yog'inlarning va ba'zi tabiat hodisalarining ko'p miqdorda sodir bo'lishi ba'zi o'lkalarda toshqin, sel, va yong'in kabi falokatlarga sabab bo'ladi.

Taqvimiy bahorga qaraganda, astronomik bahor kechroq, ya'ni yozgi [tengkunlikda](#) (shimoliy yarimsharda [20](#) yoki [21-mart](#), janubiy

yarimsharda [22](#) yoki [23-sentabrda](#)) keladi va yozgi [quyosh turishi](#) (shimoliy yarimsharda [20](#) yoki [21-iyun](#), janubiy yarimsharda [21](#) yoki [22-dekabrda](#)) boshlanadi

Yoz. Yoz 21-iyundan boshlanadi. Shimoliy yarimsharda bu kun yilning eng uzun kuni hisoblanadi, u 16 soatcha davom etadi. Bu kun yozgi Quyosh turishi deb ataladi. Shu kuni o'zining eng baland holatini egallaydi. Har yili 21-iyundan boshlab kunlar yana qisqara boradi. Bizning kengliklarimizda yoz hamma fasllardan issiqroq bo'ladi.

Yoz to'rt fasldan biridir. Yoz fasli [bahor](#) va [kuz](#) fasllarining orasida joylashgan bo'lib, eng issiq fasldir. Yoz [fasli](#) shimoliy yarimsharda eng uzun kundan boshlab, tengkunlikgacha davom etadi. Bu fasl Shimoliy yarimsharda [22 iyundan 22 sentabrgacha](#), Janubiy yarimsharda esa [22 yanvardan 21 martgacha](#) davom etadi.

Yoz — yilning eng issiq fasli; mo'tadil mintaqada (mas, O'zbekistonda) iyun, iyul, avg. oylari Yo. hisoblanadi. Xalq orasida yilning issiq yarmi Yo. deyiladi. Yoz faslining astronomik davomiyligi 93,6 sutkadan iborat. Ba'zi tarixiy manbalarda, chunonchi, "Bobirnoma"da bahor fasli Yo. deyilgan. ^[1]

Yoz fasli inson organizmi uchun eng kerakli fasllardan biridir. Yoz fasli, inson sog'lig'i uchun juda zarur bo'lgan, suyaklarning rivojlanishi uchun katta dastak beradigan [D vitaminiga](#) boydir. Chunki [D vitamini](#) eng yaxshi quyosh nurlari bilan insonga o'tadi. Quyoshda toblanish [bod](#) kasali bilan og'rigan odamlar uchun ham juda foydali. [Meva, sabzavot](#) va boshqa [o'simliklar](#) ham yoz faslida pisha boshlaydi.

Yozning juda qattiq jazirama issiq kunlari inson sog'lig'i uchun zararlidir, haddan ziyod oftobda toblanish ham inson [terisiga](#) zarar berishi mumkin.

Kuz. Har yili kuz 23-sentabrdan boshlanadi. Shu kuni yana kecha-kunduz tengligi yuz beradi, keyin har kuni tong kechroq otadi, kechqurun vaqtlitiroq qorong'ilashadi. Shimoliy yarimsharda Quyosh nurlari borgan sari qiyaroq tushadi, Yer sirtini deyarli "siypab" o'tadi. Harorat pasayadi, daraxt barglari sarg'ayib, to'kila boshlaydi.

Kuz, yoz va [qish](#) orasida joylashgan fasl bo'lib shimoliy yarimsharda [sentabr](#), [oktabr](#) va [noyabr](#) oylaridan, janubiy yarimsharda esa

Mart [aprel](#) va [may](#) oylaridan iborat.

Kuz — yil fasli, mavsum. Yerning Shim. yarim sharida ko'zgi teng kunlik (23 sentyabr) dan qishki Quyosh turishi (21 yoki 22 dekabr) gacha davom etadi. Shartli ravishda sentyabr, oktyabr, noyabr oylarini K. deyiladi. Bu vaqtda Yerning Jan. yarim sharida bahor. ^[1]

Kuz fasli kelganda asta-sekin kunlar qisqarib, tunlar uzaya boshlaydi. Sovuq, shamolli va yomg'irli kunlar ko'payadi. [Daraxt](#) va [o'simliklarning](#) barglari sarg'ayib qurishga boshlaydi.

Sirdaryo — [O'rta Osiyodagi](#) eng uzun va [Amudaryo](#) dan keyingi eng sersuv daryo hisoblanadi. [O'zbekistondagi](#) eng katta ikki daryolaridan biri. Sirdaryo O'zbekistonning shimoliy chegarasidan oqib o'tib, [Orol dengiziga](#) quyiladi.

- [1 Nomlanishi](#)
- [2 Geografik joylashuvi](#)
- [3 Tabiati](#)

- [4 Suv yig'ilishi va o'zgarishi](#)
- [5 Iste'mol](#)

YIL FASLLARI

Biz Quyosh tizimiga kiruvchi sayyoralardan biri — Yerda yashaymiz. Yer Quyoshdan taxminan 150 million kilometr masofada turib uning atrofida aylanadi. Yerning Quyosh atrofida bir marta to'liq aylanib chiqishi yil deb ataladi. Yer 365 kunda Quyosh atrofini to'liq aylanib chiqadi. Yer bir sutkada o'z o'qi atrofida to'liq aylanadi,-

Yer Quyosh atrofini aylanib chiqayotganda uning nurlari sayyoramiz yuzasini turlicha yoritadi. Natijada doimiy almashinib turuvchi yil fasllari vujudga keladi. Quyosh osmonda Yerga nisbatan tik ko'tarilganda, uning nurlari sayyoramizga to'g'ri tushib, uni qizdiradi. Shunda Yer yuzi issiq boiadi. Quyosh baland ko'tarilmay, uning nurlari qiyalab tushganda, sayyoramiz yuzasi yaxshi qizimaydi, havo sovuq bo'ladi.

O'zbekiston O'rta Osiyoning markaziy qismida — Sirdaryo va Amudaryo oralig'ida joylashgan. Faqat Toshkent va Namangan viloyatlari Sirdaryoning o'ng tomonida, Xorazm va Qoraqalpog'istonning bir qismi Amudaryoning chap tomonida joylashgan. O'zbekistonning janubi-sharqiy qismida Tyan-shan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Hisor tog'Mari joylashgan. Uning g'arbiy va shimoli-g'arbiy qismiga qarab tog'lar pasayib boradi, tekisliklar va vodiylarga ulanib ketadi. Vodiylar tugab, cho'l va qumliklar boshlanadi. O'zbekiston serquyosh o'lka. Bu yerda yilning deyarli 250—300 kunida havo ochiq, quyosh charaqlab turadi. Mana shuning uchun ham O'zbekistonda bahor erta — mart oyidan boshlanadi.

Har yili 22-martda kecha bilan kunduz tenglashadi. Shu kundan boshlab kechalar qisqarib, kunduzi esa uzaya boradi. Quyoshning tik ko'tarila borishidan tuproq qizib, o'simliklar, daraxtlar uyg'onadi. Barcha jonivorlar harakatga keladi. Dehqon, bog'bon, chorvadorlar bahorgi ishlarga kirishadilar. Qir- adirlar, dalalar ko'm-ko'k o'sirnlik]ar, rang-barang gullar bilan bezanadi. Tabiatdagi bunday o'zgarishlar aprel-may oylarigacha davom etadi. Iyun oyidan issiq yoz fasli boshlanadi. 22-iyunga kelib kunduzlari juda uzayadi, kechalari nihoyatda qisqaradi. Mevalar qiyg'os pishadi, sabzavot va poliz ekinlari yetiladi. Kechalari 20—25 daraja, kunduzlari 40—45 darajagacha isiydi.

Dekabr qish faslining dastlabki oyidir. Endi kunlar soviydi;- yomg'ir, ba'zan qor yog'adi. Turna, laylak, ko'kqarg'a, qaldirg'och, bedana, bulbul kabi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketadi. Shudgorlangan yerlar, yaproqlarini to'kkan daraxtlar dam oladi, ba'zi hayvonlar qishki uyquga kiradi. Yanvar oyidan boshlab kunlar uzaya boshlaydi. Bolalar issiq kiyimlarga o'ranib qorbo'ron o'ynaydilar, qorbobo yasaydilar, yaxmalak otib, chanada uchadilar.Fevral oyining oxirlariga borib bahorning ilk elchisi — boychechaklar qor ostidan chiqib, gullay boshlaydi. Mana shu taxlit yil fasllari almashaveradi, biz esa yana bir yosh ulg'ayaveramiz.

FAOL SO'Z VA IBORALAR

Quyosh tizimi, taxminan, atrofida aylanadi o'z o'qi atrofida turlicha yoritadi to'g'ri tushadi yer yuzi havo sovuq boiadi janubi-sharqiy qismi pasayib boradi quyosh charaqlab turadi kecha va kunduz uzaya boradi tabiat uyg'onadi bezanadi pishadi, yetiladi kuzgi tenglashish yig'ishga kirishiladi sayyora masofada to'liq aylanib chiqishi nurlari tik kotarilganda qizdiradi qiyalab tushganda oraligidajoylashgan shimoli-g'arbiy qismi havo ochiq tenglashadi qisqaradi tuproq iziydi bahorgi ishlar davom etadi sarg'aya boshlaydi tayyorlana boshlaydi avjiga chiqadi qishki uyquga kiradi qorbobo yasaydilar chana uchadilar bahorning ilk elchisi qor yog'adi qorbo'ron o'ynaydilar yaxmalak otadilar kuch yig'adi boychechak gullaydi

2-semestr. Mavzu-1 Inson va salomatlik. Reportaj tayyorlash

1-mavzu. SALOMATLIK - TUMAN BOYLIK

Dunyoning barcha mamlakatlarida salomlashish yuksak madaniyat belgisi hisoblanadi. Ko'chaga chiqqanda uchragan birinchi tanishga, do'stlarga, o'qish yoki ish joyiga kiriboq hamsaboqlar, hamkasabalarga, uyga qaytganda esa oila a'zolariga salom beriladi, salomga alik olinadi. Salom-alikning ma'nosi, eng avvalo, bir-biriga sog'liq, tinchlik, omonlik tilashdir. Shundan ham ko'rinadiki, inson uchun sog'liq, omonlik, tinchlikdan qimmatliroq boylik yo'qdir. Shuning uchun ham bir-birimiz bilan uchrashganda "Assalomu alaykum! Salomatmisiz? Sog'liqlaringiz yaxshimi? Sog'-omonmisiz?" desak, xayrlashayotganda esa, albatta, "Sog' bo'ling! Xayr, salomat bo'ling!" - deymiz.

Doim sog' bo'lish mumkinmi? Ha, mumkin. Buning uchun o'z vaqtida rejali ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, o'qish yoki ishni qat'iy tartib asosida yo'lga qo'yish, ertalab badantarbiya qilish, tanani, o'qish yoki ish joyini doim toza-ozoda saqlash, asabiylashishdan o'zni tiyish, ko'proq quvnoq kishilar davrasida bo'lish, o'z vaqtida dam olish, turli meva, sabzavot va ko'katlardan iste'mol qilib turish lozim.

Afsuski, har doim ham vaziyat biz istagandek bo'lavermaydi. Doim ham bir-birimizni to'g'ri tushunavermaymiz. Oqibatda kishi asabiylashadi. Asabiylashish esa o'qish yoki ishdagi diltirilliklarga, eng yomoni, salomatligimizning yomonlashuviga sabab bo'ladi. Shuningdek, ob-havoning tez-tez o'zgarishi, quyosh yoki tabiatdagi muvozanatning o'zgarishi, o'qish, ish yoki yashash joyimizdagi turli noqulayliklar ham salomatligimizga salbiy ta'sir etadi. Oqibatda kishi tanasi o'zining doimiy muvozanatini saqlab turolmay, tashqi yordamga muhtojlik sezadi. Shunda biz shifokorlarga murojaat etishga majbur bo'lamiz, O'zbekiston Respublikasi hukumati aholi sog'ligini mustahkamlash uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratmoqda. 2000-yili respublikamizda «Sog'lom avlod yili» deb e'lon qilindi. Aholi sog'ligini mustahkamlash yo'lida alohida xizmat ko'rsatgan kishilar uchun «Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'sis etilgan. Mamlakatimizda xalq hayotini farovonlashtirish, atrof-muhitning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik borasida bir qancha qonunlar qabul qilingan. Korxonalarda mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilinadi. Ko'pchilik korxonalarning profilaktoriyalari, dam olish pansionatlari mavjud. Aholi sog'ligini tiklash va mustahkamlash uchun qishloq vrachlik punktlari, ambulatoriyalar, poliklinikalar, shifoxonalardan tashqari, o'nlab sanatoriyalar, dam olish uylari yil bo'yi ishlab turadi.

Sog'ligini asrash har kimning o'z qo'lidadir. Buning uchun har birimiz uyda, o'qishda va ishdagi xushmuomala bo'lishimiz, rashk, ig'vo, fitnalarga barham berishimiz, bir-birimizga mehribon bo'lishimiz, ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik, fohishabozlik kabi illatlardan uzoq bo'lishimiz kerak. Biz sog'ligimiz uchun doimiy ravishda sport bilan shug'ullanamiz.

BIZNING MASHG'ULOTIMIZ

Bizning mashg'ulotlarimiz juda qiziqarli o'tadi. Murabbiyimiz Shuhrat Qosimovich buning uchun juda ko'p harakat qilib, bor mahor tlarini ishga soladilar.

Avval biz zalda saflanamiz, murabbiy bilan salomlashamiz. Ular bugungi mashg'ulotning maqsadini tushuntiradilar. Keyin badan qizdirishga kirishamiz: yuguramiz, sakraymiz, gimnastika mashqlarini bajaramiz. Hash-pash deguncha terlab ketamiz, lekin hali oldinda ishlarimiz ko'p .Asosiy qismda juft-juft bo'lib har xil usullarni o'rganamiz. Mening doimiy sherigim – qil o'tmas og'aynim – Qobil. Shuhrat Qosimovich bizning har bir harakatimizni sinchiklab kuzatadilar.Goh maqtab qo'yadilar, goh tanbeh beradilar.Mashg'ulotlarimiz 2 – 2.5 soat davom etadi. Shuhrat Qosimovich bizga milliy kurashning barcha sirlarini ipidan ignasigacha o'rgatadilar.Qattiq charchaymiz, lekin dimog'imiz chog' bo'lib uylarimizga tarqalamiz.


Lug'at

saflanmoq	–	Строиться
maqsad	–	Цель
badan qizdirish	–	Разминка
Sherik	–	Партнер
usul	–	Приём
sir	–	тайна, секрет

Matnda Grafik organayzerni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. Bu bola buncha shirin! Uning sochlari sap-sariq, jingalak, ko'zlari havo rang, kipriklari uzun. Qo'l va oyoqlari oppoq, do'mboq.
2. Mening dugonam Nargiza – juda yoqimtoy qiz. U o'rta bo'yli, ozg'in, peshonasi keng, sochlari qop-qora, uzun, qosh-ko'zlari ham qora. O'zi juda quvnoq, hazilkash.
3. Filmdagi jinoyatchining ko'rinishi juda dahshatli: soqol-mo'ylovlari qora, burni uzun, ko'zlari kichkina. Bo'yi past, semiz, oyoqlari kalta-kalta, ovozi ham yoqimsiz.
4. Bu suzuvchi yigit yosh, baquvvat, bo'yi baland, yelkalari keng. Sochlari kalta, qirra burun, kulishi juda chiroyli ekan. Qo'l va ko'krak mushaklari yaxshi rivojlangan (развиты).

7. Rasmlar asosida gaplar tuzing, ularda sportchilarning jismoniy sifatlarini ifodalovchi so'zlar qatnashsin.



8. Sizning mashg'ulotingiz qanday o'tishi haqida o'xshash matn tuzing va so'zlab bering.

2-MAVZU. Huquqiy madaniyat. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari

Fuqarolarning asosiy huquqlari

Fuqarolarning asosiy huquqlari - jahondagi rivojlangan, ma'rifatparvar, demokratik davlatlarda xalqlarning huquqiy va haqiqiy tengligini, har bir fuqaroning erkinligini ta'min etish bo'yicha tajribasini o'rganish natijasida O'zbekistonda fuqarolarning huquqlari va burchlari aniqlandi. Mustaqil O'zbekistonning demokratik mohiyati, avvalo, uning xalq manfaatlarini himoya qilishida namoyon bo'lmoqda. Inson huquqlarini va erkinliklarini rivojlantirish va takomillashtirish mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining asosiy tamoyilidir. Shu ma'noda, Prezident I.A.Karimov: "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlatdir. Bu insonparvarlik qoidalariga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlab beradigan davlatdir", deydi. O'zbekiston fuqarolarining o'z mustaqil davlatiga mansubligi, unga nisbatan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qonunlarida belgilangan huquq, erkinlik va burchlarning joriy etilishi, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini davlat tomonidan qo'riqlanishida o'z ifodasini topadi va ular uch guruhga bo'linadi:

III. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar: mehnat qilish, dam olish, bilim olish, moddiy ta'minot kabi huquqlardan iborat.

IV. Siyosiy huquq va demokratik erkinliklar: fuqarolarning jamoat birlashmalariga, siyosiy partiyalarga uyushish huquqi, saylash va saylanish huquqi, so'z va matbuot erkinligi, majlis va mitinglar, namoyishga chiqish huquqlaridan iborat.

III. Uy-joy daxlsizligi, shaxsiy huquqlar.

Bu huquq va erkinliklar O'zbekiston davlatida va jamiyatida fuqarolar erkin rivojlanishining asosiy omilidir.

KONSTITUTSIYA HAQIDA.

Konstitutsiyaviy komissiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini ishlab chiqish ustida qariyb 2,5 yil ishladi. Konstitutsiyaviy komissiyaning 1991-yil 12-aprelda bo'lgan yig'ilishida komissiya a'zolari hamda yetakchi mutaxassislar va olimlardan iborat 32 kishilik ishchi guruhi tuzildi. Konstitutsiya bo'limlarini tayyorlash bo'yicha 50 kishidan iborat 6 ta kichik guruhlar tuzildi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston davlat mustaqilligining e'lon qilinishi va "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi Qonunning qabul qilinishi, bu qonunga Konstitutsiyaviy maqom berilishi.

Konstitutsiyaviy komissiya mas'uliyatini yanada kuchaytirdi. Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasi o'rganildi, inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohasida jahonda qo'lga kiritilgan yutuqlar hisobga olindi. Milliy davlatchiligimizning tajribasi, Amir Temur va boshqa allomalarimizning davlatni idora qilish sohasidagi g'oyalari yangi Konstitutsiyaga

asos qilib olindi. 1992-yil 26-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. Muhokama 2 oycha davom etdi.

Muhokama jarayonida bildirilgan takliflar asosida tuzatishlar kiritilgan loyiha 1992-yil 26 noyabrda matbuotda ikkinchi marta e'lon qilindi. Umumxalq muhokamasi davrida 6 mingdan ortiq taklif va mulohazalar bildirildi. Konstitutsiyamiz xalqimizning siyosiy dahosi va tafakkurining mahsuli bo'ldi. Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Konstitutsiyasini ishlab chiqishda rahbarlik qildi.

Oliy Kengashning 1992-yil dekabrda bo'lgan XI sessiyasi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilish masalasini muhokama qildi. "Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki,-degan edi Prezident I.A.Karimov sessiyada so'zlagan nutqida,-yangi Konstitutsiya loyihasini yaratishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlariga, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning barcha e'tirof etgan qoidalariga amal qilindi. Shuningdek, rivojlangan demokratiya mamlakatlari hisoblanmish Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Kanada, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniyaning hamda Sharq mamlakatlari Hindiston, Pokiston, Misr davlatlarining Konstitutsiya tajribasidan ijodiy foydalanildi".

Sessiyada deputatlar loyihaga 80 ga yaqin o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shunday qilib, 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Hayotimizning asosiy qomusi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida, 1992 yil 8-dekabrda rasman qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy tamoyil, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari erkinliklari, burchlari hamda majburiyatlari, jamiyat va shaxs, ma'muriy va hududiy hamda davlat tuzilishi, shuningdek, davlat hokimiyatining tashkil etilishi bilan bog'liq bo'limlarida barcha huquq me'yorlari o'z ifodasi mujassam topgan.

Konstitutsiyaning eng e'tiborli moddalaridan biri-4 moddadir. Unda davlat tili o'zbek tilidir, deb qayd qilingan. Unda o'zbek tilining huquqiy maqomi va istiqboli aniq belgilanib berilgan.

O'zbek tili Davlat tili sifatida ijtimoiy turmushimizning barcha sohalarida qonuniy ravishda qo'llanishga o'tdi.

Konstitutsiyaning asosiy moddalari bo'lgan 8-14 moddalarida ish yuritishning tilga aloqador jihatlari alohida qayd etilib, qonunlashtirilgan.

Barcha korxona va tashkilotlar, muassasalarda ish yuritish davlat tilida olib boriladigan, hujjatlar o'zbekona rasmiylashtiriladigan bo'ldi. Shu bilan birga boshqa millat vakillarining til huquqlari cheklanmadi. Ko'pchilikni tashkil qiluvchi millat vakillari o'z ona tillarida so'zga chiqishlari, rus tilida yozishlari mumkin bo'ldi. Ammo davlat tilini bilishlari, unga hurmat bilan munosabatda bo'lishlari kerakligi qonun bilan rasmiylashtirilgani muhim ahamiyat kasb etadi

BBB TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. “Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.
3. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.
4. Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar

Rasmiyidoraviy uslub

Rasmiy uslub boshqa uslublardan keng farq qiladi. Uning quyidagi funksional turlari mavjud: 1.huquqiy (qonun, buyruq, farmon, fuqarolik akti) 2.Mamuriy (ish qog'ozlari va boshqa hujjatlar) 3.Diplomatik (nota, memorandum) Rasmiy uslub huquqiy- ma'muriy munosabatlar sohasi uchun xizmat qiladi va kishilar, idoralar va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Rasmiy uslubda farmon berish, da'vat etish, majburiylik ohangi mavjud.

Mavzu-4. Oliygohimiz hayotidan. So'zlashuv uslubi.Shevaga xos so'zlar. OLIYGOHIMIZ HAQIDA

Institut 1932 yilda paxtani dastlabki ishlash, yigirish, to'quvchilik va ipak texnologiyasi kafedralari faoliyatlari bilan tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda tarkibida 4 ta fakultet, 25 ta kafedra faoliyat ko'rsatmoqda. 12 ta ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar, 18 ta mutaxassisliklar bo'yicha magistrlar tayyorlanmoqda.

Institut o'zining 86 yillik faoliyati davomida 42000 dan ziyod yuqori malakali mutaxassislar, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarga 700 nafar oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlab berdi. Hozirgi kunda institutda 4500-dan ziyodroq talabalar taxsil olmoqdalar. Ularga institutning 300 nafar professor-o'qituvchilari, shu jumladan, 2 nafar akademik, 27 nafar fan doktorlari, 189 nafar fan nomzodlari, dotsentlar samarali ta'lim bermoqdalar va bir vaqtning o'zida ular 25 ta dolzarb mavzular bo'yicha keng qamrovli ilmiy ishlarni olib barmoqdalar va natijalarini ishlab chiqarishga, o'quv jarayoniga tadbiq etmoqdalar.

Institutda ko'p bosqichli uzluksiz ta'lim tizimi to'liq shakllanmoqda. Institut qoshida 1998 yildan Respublikada birinchilar qatori tashkil etilgan akademik litsey faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Institut Respublikadagi o'z yo'nalishlariga mos 50 tadan ortiq kasb-hunar kollejlari standartlar, o'quv dasturlari, darslik, ma'ruza matnlarini yaratilishida yaqindan yordam berib kelmoqda

Institutda kasb-hunarga o'rgatish va test sinovlariga tayyorlash markazi, paxta tozalash, to'qimachilik va yengil sanoat korxonalari mutaxassislari, kasb-hunar

kollejlari o'qituvchilari va oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining malakasini oshirish fakulteti faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro To'qimachilik Akademiyasiga, Matbaachi oliy o'quv yurtlarining Xalkaro Assotsiatsiyasiga, Xalqaro ipak uyushmasiga a'zo bo'ldi. Institut xorijiy mamlakatlarning 21 dan ortiq turdosh oliy o'quv yurtlari bilan mustahkam aloqa o'rnatgan. 400 dan ziyod professor-o'qituvchilar va asspirantlar Germaniya, Angliya, Belgiya, Braziliya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Gretsiya, Shveytsariya, Shvetsiya, Chexiya, Hindiston, Polsha, Isroil mamlakatlarining o'quv markazlarida malakalarini oshirib keldilar.

Mustaqillik yillarida institut jamoasi 6 mln. dollar miqdoridagi xorijiy investitsiyani olishga erishdi.

Jumladan, Yaponiya Xukumatining 4 mln. dollar miqdoridagi beg'araz yordami tufayli keltirilgan eng zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari va uskunalari institutning moddiy-texnika bazasini yanada yangiladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida yagona to'qimachilik mahsulotlari sertifikatlash markazi «CENTEXUZ» tuzildi va zamonaviy ravishda jixozlandi.

Iqtidorli talabalar Akademiyasi qoshidagi Talabalar modalar teatri, «Ipak parilari» xalq dastasi, Talabalar konstruktorlik byurosi, Talabalar ilmiy-texnika tarjima byurosi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, talabalar uchun institut tarixi muzeyi, Akademik M.A. Xojinova xona-muzeyi kompyuter markazi, sanatoriy-profilaktoriy, «Yoshlik» sport klubi, talabalar qahvaxonasi, Toshkent viloyati Bo'stonlik tumanidagi Xumson qishlog'ining so'lim tog' bag'ridagi «Rohat» sport - sog'lomlashtirish lageri ham talabalarimiz ixtiyorida.

Talabalar shaharchasida 1500 o'ringa mo'ljallangan 4 ta talabalar uylari mavjud. Viloyatlardan kelgan barcha talabalarga talabalar uylaridagi yorug', shinam xonalardan joy beriladi. Barcha talabalar uylarida Ma'naviyat va ma'rifat markazi, o'quv, dam olish, sport xonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'qishda, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol bo'lgan eng iqtidorli talabalar uchun tarixiy meroslarga boy navqiron va qadimiy shaharlarimiz - Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabzlarga sayohatlar tashkil etilmoqda.

Mustaqillik yillarida yaratilgan o'quv-ilmiy moddiy bazasi asosida 22 nafar fan doktori, 170 nafar fan nomzodlari tayyorlandi, 33 ta darslik, monografiya, 43 ta o'quv qo'llanma, 310 ta uslubiy qo'llanmalar, barcha fanlardan ma'ruza matnlari, 3500 ta ilmiy maqolalar chop etildi, 360 ta patentlar olindi. 13 nafar iqtidorli talabalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Davlat stipendiatlari, 140 nafar talaba-yoshlar bir qator nomdor stipendiyalarning sohibi bo'ldilar. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining serqirra faoliyati bilan sizlarni tanishtirdik. Har bir aziz mehmonimizga, yoshlarga Markaziy Osiyoda yagona va reyting natijalari bo'yicha Respublika oliy o'quv yurtlari o'rtasida birinchi o'rinni egallab turgan, ustuvor yo'nalishlar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlaydigan oliy o'quv yurtimizga xush kelibsiz, deb qolamiz!

So'zlashuv uslubi – kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos amal qilishdir. Vazifaviy uslubning bu turi o'ziga xos ish ko'rastirish sharoiti, ya'ni fikr olishuvining bevositaligi, til vositalarini

saylab ishlatilmasligi bilan, shuningdek, ohang vositalari, mimika, imo-ishora kabilardan keng goydalanish, oddiy leksik va frazeologik birliklarning, ekspressiv-emotsional vositalarning keng ishlatilishi bilan ajralib turadi. Masalan, farzand – jujuqs, dunyodan o'tmoq – jon bermoq, imtixonidan o'ta olmaslik – imtixonidan yiqilmoq kabi juftliklarning ikkinchisi asosan so'zlashuv uslubiga xos. So'zlashuv uslubi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik o'ziga xosliklarga ega.

B.B.B. usuli asosida		tarqatma materiallar	
Bilaman	Bilmayman		
1			
2			
3			
4			
5			

5-MAVZU. Bo'lajak kasbim. Matn va uning ko'rinishlari LIBOS DIZAYNI

Bizning institutimiz ko'p yillardan buyon libos yaratish uchun konstruktor va texnolog mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda. Bitiruvchilarimiz nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlamoqdalar, balki dizayn sohasida ham ishtirok etishmoqda. Libos yaratish – by kiyimlarning turli tashqi ko'rinishi, shakli va bichimlarini yaratishdagi doimiy izlanishdir. Asrlar davomida shakllangan an'anaviy o'zbek milliy libosi o'zida xalqimizning ko'p asrlik madaniyatini, tajribasini mujassamlashtiradi.

Bugungi kunda iste'molchilar tomonidan libos dizayniga qat'iy talablar qo'yilganligi bois dizayner mutaxassislarni tayyorlashga zaruriyat tug'ildi. Markaziy Osiyodagi turdosh kafedralar ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlamaydi. "Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi va dizayn" kafedrasi Respublikamizda yetakchi o'rin egallaganligi, o'quv laboratoriyalari bilan jihozlanganligi, moddiy-texnik va o'quv bazasi bilan ta'minlanganligi bois 2008 - yilda "Libos dizayni" kafedrasi tashkil qilindi.

Bu yo'nalishda ijodiy imtihon va test sinovlari orqali iqtidorli abituriyentlar qabul qilindi. Abituriyentlar ijodiy imtihonni chizmatasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari fanlaridan, test sinovlari – matematika, ona tili va adabiyot fanlaridan topshirdilar. Libos dizayni yo'nalishiga dastlabki yildayoq 84 ta abituriyent xujjat topshirdilar. Shundan 26 ta iqtidorli abituriyentlar talabalar safiga qabul qilindi.

Kafedra katta ilmiy salohiyatga ega bo'lib hozirda 1ta akademik, 2ta professor, 2ta dotsentlar faoliyat ko'rsatmoqda. Kafedra professor-o'qituvchilari quyidagi yo'nalishlarda ilmiy ish olib bormoqdalar, ya'ni O'rta Osiyo sharoiti uchun

kiyimlarni loyihalashda turli xil gazlamalarni qo'llash; maishiy va rasmiy kiyimlarni loyixalash jarayonini takomillashtirish; milliy kiyim tarixini taxlil qilish; turli materiallardan buyumlarni loyihalash tamoyillari va ularni avtomatlashtirish usullari; istemolchilarni uyg'un siymosi asosida liboslarni eskiz loyihalash jarayoninitakomillashtirish. Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash va dizayn fanlari bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan darsliklar chop etilgan.

Kafedra xorijdagi ko'plab oliy o'quv yurtlarida (Rossiya, Germaniya, Angliya, Qirg'iziston, Qozog'iston) bilan malaka oshirish, uslubiyat va ta'lim dasturlari kabi turli shakllarda ijodiy aloqada bo'lib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi yengil sanoati oldida liboslarni tayyorlash va sifatini oshirish, loyihalash jarayonlarini avtomatlashtirish vazifasi turibdi. Bu esa, dizaynerlarga umummuxandislik fanlari bilan bir qatorda tikuv buyumlarini loyihalash uning dizaynini yaratish fanlari bo'yicha ham bilim olishni talab etadi.

Kafedrada yangi modellar yaratish metodikasi badiiy fanlar, kiyimlarni tikish texnologiyasi va konstruktsiyalash fanlari bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. Ularga 3ta professor, 2ta dotsent, 5ta katta o'qituvchi va 7ta assistant mutaxassislikka tegishli fanlardan ta'lim bermoqdalar. Kafedrada "Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash" va "Kasbiy fanlarni o'qitish metodikasi" bo'yicha magistrilar tayyorlanib kelmoqda.

Kafedra o'quv xonalari eng zamonaviy asbob - uskunalar va kompyuterlar bilan jihozlangan. 2002 - yilda kafedrada Yaponiya hukumatining beg'araz yordam granti bo'yicha kiyimlarni loyihalash uchun eng zamonaviy avtomatlashtirilgan. "Gerber" firmasining dastur ta'minoti kiritilgan SADSAM sistemasidagi kompyuter qurilmalari o'rnatilgan. Bu jihozlar O'rta O'siyodagi oily o'quv yurtlarida va tikuvchilik korxonalarida yagona hisoblanadi.

Kafedra qoshidagi institut "Modalar teatri"ning ta'rif-tavsifi nafaqat respublikamizda, balki ko'plab xorijiy davlatlarda ham juda yaxshi ma'lum. Moda teatri o'z kolleksiyalari bilan Chexoslovakiya, Xitoy, Rossiya moda festivallarida qatnashib sovrindor bo'ldilar. Respublikamizda an'ana bo'lgan "Style Uz" moda festivalida talabalarimizning libos kolleksiyalari yuqori baholanmoqda. Bunday hamkorlik yoshlarimizga hozirdanoq raqobat sharoitida ish yuritish, menejment va marketing sirlarini o'rganish imkonini beradi.

Ushbu kafedra mutaxassisligini tanlasangiz, o'zbek milliy liboslari dovrug'ini olamga yetkazuvchi libos dizayni bo'yicha malakali mutaxassis bo'lib yetishasiz.

PAXTA TOLASI-IQTISODIYOTIMIZ POYDEVORI

Paxtani dastlabki ishlash muassasiligi kafedrasi institumizning tengdosh kafedralardan bo'lib 1932 yilda tashkil etilgan. Bugungi kungacha kafedrani 4000 dan ziyod muhandislar , 1800 dan ortiq bakalavrlar va 165 dan ziyod magistrilar bitirishdi. Kafedra qoshida ilmiy ish qiluvchilar uchun kichik va katta tadqiqotchi-izlanuvchi lavozimlari mavjud bo'lib , uni soha boyicha 180 nafardan ortiq fan nomzodlar bitirib chiqqan, shulardan 20 nafari fan doktoridessertatsiyalarini himoya qilishgan.

Hozirda “Paxtani dastlabki ishlash” kafedrasida yuqori malakali professor o’qituvchilar mehnat qilishib ulardan samarali mehnatlari bilan o’quv darsliklari ma’ruza matnlari, o’quv metodik qo’llanmalar va boshqa zarur adabiyotlar yozilib chop etilmoqda.

Bu mutahassislik bo’yicha talabalarimiz orasida Beruniy nomida davlat stipendiyatlari, akademiklardan M.O’rozboyev, M.Hajinova, B.A. Levkovi nomli stipendiyalarining sovrindorlari borligi bilan faxrilanamiz. Hozirgi kunda “Paxtani dastlabki ishlash” kafedrasida 3ta yo’nalishda davlat granti va ho’jalik shartnomasi asosida 100 mln. So’mlik ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu ilmiy ishlarni bajarishga iqtidorli talabalar jalb qilingan. Kafedra qoshida “Texnolog” ilmiy to’garagi faoliyat ko’rsatib kelmoqda. Iqtidorli talabalar 2-kursdan boshlab ilmiy ishlarga jalb qilinib, ilmiy yo’nalishi va mavzulari aniqlanib, professor-o’qituvchilar bilan birgalikda ilmiy ishlanishlar olib borishadi.

Kafedrani a’lo baholar bilan tamomlagan iqtidorli bakalavrlar 5A430510 “Paxtaga dastlabki ishlov berish” mutahassisligi bo’yicha magistraturaga kirib, a’lo va yaxshi baholarga o’qishmoqda. Magistraturani bitirgan yoshlarimiz “O’z paxtasanoat” uyushmasi va unga qarashli barcha hududiy “Paxtasanoat” birlashmalari va korxonalariga, shu bilan bir qatorda “Paxtasanoat ilmiy markazi”ga, “Sifat” markazlariga yo’llanma asosida ishga joylashadilar.

AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARUV

Hozirgi davr taraqqiyotiga axbarot texnologiyalari tez sur’atlar bilan kirib kelmoqda. Bu esa jamiyat rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuksalishiga poydevor bo’lib xizmat qiladi. Uning asosida boshqariladigan texnik-texnologiyalar o’zining yuqori samaradorligi bilan ishlab chiqariladigan mahsulotlarning jahon standartiga mos kelishini ta’minlaydi.

Taraqqiyotning asosiy belgilaridan biri ishlab chiqarishning yuqori darajada avtomatlashtirilganligi, kompyuterlar yordamida boshqariladigan texnik qurilmalar va texnologiyalar bilan jihozlanayotganligidir. Bu esa o’z navbatida shu sohani chuqur egallagan kompyuter texnikasi yordamida ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalarini yarata oladigan, foydalana oladigan va takomillashtira oladigan mutahassisslar tayyorlashda talab etadi.

Bu borada “Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish” kafedrasining professor o’qituvchilar samarali mehnat qilmoqda. Kafedra 2ta professor, 5ta dotsent va asistentlar faoliyat ko’rsatmoqda. 5521800-“Avtomatlashtirish va boshqaruv” yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar. 5A521802-“Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish”, 5A523811-“To’qimachilik sanoati jarayonlarini avtomatlashtirish” mutaxassislik bo’yicha magistratlar tayyorlab kelmoqda.

MATN VA UNING LINGVISTIK MOHIYATI

Tayanch tushunchalar:

Matn, gap, murakkab sintaktik butunlik, abzas, minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn, badiiy matn, nobadiiy matn, hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn.

Kirish. Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos hodisa hisoblanadi. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni o'rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug'ullangan V. Vinogradov o'zining «Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari» nomli ma'ruzasida badiiy adabiyot tili to'g'risida gap ketganda, «til» so'zi ikki xil ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi, ya'ni: 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi «nutq» yoki «matn» (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil material) ma'nosida; 2) «san'at tili», badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida. Adabiyotning so'z san'ati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi haqidagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish san'ati yaralibdi-ki, bu san'atning asosiy ifoda vositasi bo'lgan so'z, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi. Buyuk ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidolari qo'llanmasida «Go'zal san'atlarda tovar (materiyol) tovush, ohang bo'lsa, go'zal san'at musiqiy bo'ladi; bo'yovlar, chiziqlar bo'lsa, rasm bo'ladi; tosh yo boshqa turli ma'danlar esa, haykalchilik bo'ladi; tosh yog'och, kirpich, ganj, tuproq bo'lsa, me'morlik bo'ladi; tan, mug'a (muqom, mimika) harakatlari esa, o'yun (tans) bo'ladi; gap, so'z esa, adabiyot bo'ladi» deb yozadi va adabiyotga shunday ta'rif beradi: «Adabiyot - fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir»¹. Atoqli o'zbek adabiyotshunosi O. Sharafiddinov o'zining «Adabiyot tildan boshlanadi» nomli maqolasida shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobqa chiqariladi»

2. **Topshiriq.** FSMU jadvalini to'ldiring.

O'zbekiston jahondagi eng rivojlangan davlatlar orasidan munosib o'rin egallashi uchun qanday tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

F

S

M

U

fikringizni bayon eting

fikringiz bayoniga biror **sabab** ko'rsating

ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi **misol** keltiring

fikringizni umumlashtiring

Topshiriqlar :

1. Matnni so'zlab bering

2. Notanish so'zlar lug'atini tuzing

3. “TTYSI fakultetlari” mavzusida dialogik matn tuzing
4. Dialogik matndagi yordamchi soʻzlarini aniqlang

6-MAVZU. Hayot mening tasavvurimda. Dialogik matn

Kelajakka umidsizlik va tushkunlik bilan boqish qanchalik salbiy hol boʻlsa, kelajakka hech qanday ilm yo amalsiz-rejasiz, yolgʻiz orzular-u boʻshdan-boʻsh xayollar bilan boqish ham shunchalik salbiy holatdir. Yolgʻiz orzu-hayollar faqat adashishlikdir. Mening fikrimcha inson oʻz hayotida faqatgina orzu, umid yoki boʻlmasa hom-hayollar bilan yashashi hatolikdir. Eng avvalo inson hayotida maqsad boʻlishi zarur. Baʼzi bir toifadagi odamlar borki, ular na oʻtmishga, na kelajakka qarashadi. Ular yashayotgan faqatgina hozirgi lahzalarga berilib yashaydilar, ertangi kun esa ularni mutlaqo qiziqtirmaydi. Oliygohta boʻlsa, ilm olishga intilmaydi, biron-bir korxonada ishlagisi kelmaydi, oʻz vaqtini tezroq oʻtqissa boʻldi. Ularda na orzu na maqsad na intilish bor.

Ikkinchi toifadagi odamlar esa oʻz oldiga qoʻygan maqsadiga erishish uchun tinmay xarakat qilishadi. Oʻz mehnatlari va intilishlari tufayli albatta orzusiga erishadi. Buning uchun tinimsiz harakat va mehnat qilish zarurdir.

Mening eng katta orzularimdan biri ushbu oliygohtni yahshi baholarga bitirib mamlakatimizga kerakli mutaxassis boʻlishdir.

Topshiriq:

- 1) Kelajakdagi orzularingiz qanday?
- 2) Orzular sari nimalar qilmoqdasiz?
- 3) Matnni rus tilida soʻzlab bering.
- 4) MAVZU boʻyicha dialogik matn tuzing?
 - Men Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoati institutiga kirdim.
 - Akmal: Qaysi fakultetga kirding?
 - Olim: Paxta sanoati texnologiyasi fakultetiga.
 - Akmal: Institutingizda yana qanday fakultetlar bor?
 - Olim: Bizning institutda 4ta fakultet bor:
 - Paxta sanoati texnologiyasi fakulteti;
 - Toʻqimachilik sanoati texnologiyasi fakulteti;
 - Avtomatlashtirish, boshqaruv va matbaa fakulteti;
 - Yengil sanoat texnologiyasi va dizayn fakulteti.
 - Akmal: Sizlarning institut Oʻzbekistonda yagona boʻlsa kerak.
 - Olim: Ha albatta, toʻqimachilik sohasi boʻyicha mutaxassislar faqat bizning
 - Institutda tayyorlanadi.
 - Akmal: 4ta fakultetda qancha talaba oʻqiydi?
 -

Kutubxonada (dialogik matn)

- Asalom alaykum!
- Vaalaykum assalom, keeling xazmat?

- Menga marxamat qilib “O’zbek tili” darsligini bersangiz. Mana to’ldirilgan buyurtma qog’ozim.
- Xo’p bo’ladi, men qarab chiqay, siz bir oz kutib turing.
- Yaxshi, men mana bu jurnalni varag’lab turaman.
- Kechirasiz, siz yozgan muallifning “O’zbek tili” darsligi qo’lda ekan, sizga O’. Lafasovning “O’zbek tili” darsligini olib chiqdim, bo’ladimi?
- Yo’q, menga muallif M.Boltayevning “O’zbek tili” darsligi kerak edi. Chunki biz darsda shu kitobdan foydalanamiz.
- Unda xabar olib turing, boshqa talabalar topshirishsa olib qoyaman.
- Yaxshi, kelib turaman. Hozircha menga “Sharq yulduzi” jurnalining 2011 yil 5-sonini bersangiz, undagi yangi roman nusxasini o’qib turaman.
- Marxamat, qo’l qo’ying.
- Xo’p bo’ladi, raxmat.
- Xayr.
- Xayr, sog’ bo’ling.

7-Mavzu. Ustoz maktabi. Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.
Topshiriqlar

1. Quyidagi sinonim so’zlarning qaysilari neytral, qaysilari badiiy uslubga xosligini ayting.

Chiroyli – go’zal – ko’rkam; sekin – asta – ohista; yaxshi – soz; aqlli – zukko; dangasa – yalqov – tanbal; baxt – saodat – iqbol; qorong’i – zimiston – zim-ziyo; yorug’ – charog’on; sariq – oltinrang; havorang – moviy – zangori; keng – bepoyon; to’qqizil – yoqutrang.

2. Rasmlarga qarab gaplar tuzing, ularda yuqoridagi mashqda berilgan badiiy uslubga xos vositalarni qo’llang.



3. Matnlarni o’qing. Ular qanday uslubda yozilganini aniqlang. Ikkinchi matnni uslubiy jihatdan tahlil qiling.

1. Momaqaldiroq - qisqa vaqt davom etadigan atmosfera hodisasi. Momaqaldiroq vaqtida bulut bilan bulut yoki bulut bilan yer yuzasi orasida elektr razryadlari (chaqmoq) paydo bo’ladi va qattiq gumburlagan tovush chiqadi.


Momaqaldiroq yomg'irli bulutlarda vujudga keladi. Yomg'irli bulutlarning balandligi 7-15 km, harorati -15° , -20° dan oshmaydi. Bunday bulutlar suv tomchilari va muz kristallaridan iborat bo'ladi.... Planetamizda bir vaqtda 1800 tagacha momaqaldiroq kuzatilishi mumkin. Momaqaldiroq shimoliy kengliklarda juda kam bo'ladi, lekin yoz oylarida Markaziy Arktikada ham kuzatiladi.

2. Bugun shunaqa momaqaldiroq bo'ldi-ki! Ishonasanmi, men o'zim qo'rqq odam emasman, lekin yomon dahshatga tushdim.

Oldin hamma yoq jim-jit edi, endi yotmoqchi bo'lib turuvdim. Birdan chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumburladi, derazalarimiz zirillab ketdi. Oynalar sinadi deb o'yladim. Menga xuddi osmon chil-chil bo'lib, boshimizga qulab tushadiganday tuyuldi. Keyin jala yog'ib yubordi. Bilasanmi, go'yo chelakdan quyayotganga o'xshadi: birpasda ariqlar suvga to'ldi, hovlining o'rtasida kattakon ko'l paydo bo'ldi. Xayriyat, bu uzoq davom etmadi.

4. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.

ALISHER NAVOIY



Alisher Navoiy – ulug' shoir, mutafakkir, davlat arbobi, adabiyotshunos va tilshunos olim, tarixchidir. U 1441-yilning 9-fevralida Hirot shahrida tug'ildi.

Alisherning otasi G'iyosiddin aqlli, o'qimishli kishi edi. Alisher to'rt yoshida otasidan o'qishni, yozishni o'rgandi. U juda ko'p o'qidi, Sa'diy, Attor, Lutfiy she'rlarini yod oldi. 5-6 yoshidan o'zi she'rlar yoza boshladi. Alisherning g'azallari yigitlik vaqtidayoq mashhur bo'lib ketdi. Hofizlar bu g'azallarni qo'shiq qilib ayta boshladilar.

O'rta asrlarda shoirlar she'rlarini asosan fors tilida yozar edilar. Alisher Navoiy eng katta asarlarini o'zbek tilida yaratdi. Uning "Chor devon" to'plami lirik she'rlardan, "Xamsa" esa beshta katta dostonidan iborat. Alisher Navoiy odamlarni halol, mehnatsevar, qo'rqqmas bo'lishga chaqirdi.

- -yilning 3- yanvarida ulug' shoir Hirot shahrida vafot etdi.

Lugat

o'qimishli	–	Образованный
o'rganmoq	–	научиться
yodolmoq	–	выучить наизусть
hofiz	–	певец
yaratmoq	–	создать
halol	–	честный

Olingan bilimlarni mustahkamlash uchun “Kim ko’proq, kim tezroq” o’yini qo’llanadi.

1- varaqa

1. Alisher Navoiy qachon va qayerda tug’ilgan?
2. Alisherning otasi qanday odam edi?
3. Alisher necha yoshida o’qish va yozishni o’rgandi?
4. Navoiy qaysi tillarda ijod qildi?
5. Navoiyning lirik she’rlardan iborat asari qanday nomlanadi?

2- varaqa

1. Alisher o’qish va yozishni kimdan o’rgandi?
2. U kimlarning she’rlarini yod oldi?
3. Alisherning g’azallari qachondan mashhur bo’lib ketdi?
4. Navoiy eng katta asarlarini qaysi tilda yaratdi?
5. “Xamsa” nechta dostonidan iborat?

6. Navoiy ruboiylaridan namunalarni ifodali o’qing va yod oling.

G’urbatda g’arib shodmon bo’lmas emish,
El anga shafiqu, mehribon bo’lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshyon bo’lmas emish.

Jondin seni ko’p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko’p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortiq bo’lmas,
Ondin seni ko’p sevarmen, ey umri aziz.

7. Mustaqil o’qish uchun.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR



Bobur 1483-yilning 14 fevralida Andijonda tug'ildi. Uning otasi Umarshayh Farg'ona viloyatining podshosi edi. 1495-yilda Umarshayh halok bo'ldi. 12 yoshli Bobur taxtga o'tirdi. Ammo sharoit og'ir, taxt uchun kurashlar yana kuchaymoqda edi. 1504 yilda Bobur 300 askari bilan vatanidan chiqib ketdi.

Bobur Hindistonda Boburiylar imperiyasini tuzdi. Ammo u o'zbek xalqining ulug' shoiri edi. Bobur vatan, muhabbat, do'stlik haqida chiroyli g'azallar, ruboiylar, tuyuqlar yozdi. Shoirning "Boburnoma" asari O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston xalqlari tarixi, etnografiyasi to'g'risida hikoya qiladi. Unda shu mamlakatlarning geografiyasi, o'simliklari va hayvonot dunyosiga oid qiziqarli ma'lumotlar ko'p.

Bobur 1530-yil dekabrda Agra shahrida vafot etdi.

Lugat

halok bo'lmoq	—	погибнуть
taxt	—	трон
sharoit	—	условие
kuchaymoq	—	усиливаться
askar	—	воин, солдат
hikoya qilmoq	—	рассказать

8. Savollarga javob bering:

1. Bobur kimning o'g'li edi?
2. U necha yoshda taxtga o'tirdi?
3. Boburning qanday asarlari bor?
4. Bobur qayerda vafot etdi?

9. Bobur ruboiylaridan namunalarni ifodali o'qing va yod oling.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
 Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
 Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz
 Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

* * *

Yod etmas emish kishini gurbatda kishi,
 Shod etmas emish ko'ngilni mehnatda kishi,
 Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi oh,
 Gurbatda suyukmas emish, albatta kishi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Badiiy nutq uslubiga xos xususiyatlar qaysilar?
2. Badiiy nutq uslubida iboralar qo'llanishi mumkinmi? Misollar keltiring.
3. Badiiy nutq uslubida shevaga xos so'zlar qo'llanishi mumkinmi? Misollar keltiring.
4. Alisher Navoiy qachon va qayerda tug'ilgan?
5. Alisher necha yoshida o'qish va yozishni o'rgandi?

6. Navoiyning lirik she'rlardan iborat asari qanday nomlanadi?
7. Alisherning g'azallari qachondan mashhur bo'lib ketdi?
8. Navoiy eng katta asarlarini qaysi tilda yaratdi?
9. "Xamsa" nechta dostonidan iborat? Qaysilar?
10. Bobur kimning o'g'li edi?
11. U necha yoshda taxtga o'tirdi?
12. Boburning qanday asarlari bor?

BBB jadvali asosida bilimlar darajasini baholash

"Alisher Navoiy" matni

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Alisher Navoiy – ulug' shoir	Alisher Navoiy – adabiyotshunos	Alisherning otasi G'iyosiddin o'qimishli kishi edi
1441 yilning 9 fevralida Hirot shahrida tug'ildi	Alisher Navoiy – tilshunos olim	Alisher to'rt yoshida o'qishni, yozishni o'rgandi
5-6 yoshidan o'zi she'rlar yoza boshladi	Alisher Navoiy – tarixchi	O'rta asrlarda shoirlar she'rlarini asosan fors tilida yozar edilar
"Xamsa" beshta dostonidan iborat	Alisher Navoiy – davlat arbobi	Alisherning g'azallari yigitlik vaqtidayoq mashhur bo'lib ketdi.
1501-yilning 3-yanvarida Hirot shahrida vafot etdi.	Tuyuq nima?	"Chor devon" to'plami lirik she'rlardan iborat

"Zahiriddin Muhammad Bobur" matni

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Bobur 14 fevralda Andijonda tug'ildi	Bobur – mohir sarkarda	12 yoshli Bobur taxtga o'tirdi.
Bobur podshoning o'g'li	Bobur 12 yoshda qanday podsholik qilgan?	1504 yilda Bobur 300 askari bilan vatanidan chiqib ketdi.
Bobur Hindistonda	Hindistonda uni	"Boburnoma" asari

Boburiylar imperiyasini tuzdi	qanday qabul qilganlar?	O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston xalqlari tarixi, etnografiyasi to'g'risida hikoya qiladi.
Bobur vatan, muhabbat haqida g'azallar, ruboiylar, yozgan.	Boburning nechta farzandi bor?	"Boburnoma"da geografiya, botanika, zoologiyaga oid qiziqarli ma'lumotlar ko'p.
Bobur yosh vafot etdi	Bobur farzandlari bilan taxt talashganmi?	Bobur 1530-yil dekabrda Agra shahrida vafot etdi
O'qitish shart-sharoitlari:		dars o'qitishga mo'ljallangan uditoriya.

8-MAVZU Kasbim tarixi. Soha lug'atlari.

Ularda terminlar va birikmalarning berilish

Paxtachilik tarixidan

Paxta issiq mamlakatlarda o'sadi. U quyosh nurini yaxshi ko'radi. Paxtaning ochilishi uchun 3000 kaloriya issiqlik kerak.

G'o'za dastlab bundan ming yillar avval Hindistonda o'stirilgan. Hindistonliklar nozik gazlamalari bilan hammani hayron qoldirishgan.

Xitoy Hindistonning qo'shnisi, lekin Xitoyda g'o'za manzarali daraxt sifatida o'stirilgan. Xitoyliklar uni, istirohat bog'larida ekishgan. Gazlama-larni esa ipakdan to'qishgan. Faqat bir necha asrlardan keyingina paxtadan gazlama to'qishni o'rganishgan.

Go'za Peru, Meksika xalqlariga ham ilgaridan ma'lum bo'lgan. Misr paxtasi deb atalgan uzun tolali paxta Misrga Perudan keltirilgan. Paxtaning tarixi ana shunday boshlangan.

Topshiriq: Matnni o'qing, savollar tuzing va nutqingizning sofligiga e'tibor bergan holda so'zlang.

Libos dizayni.

Bizning institutimiz ko'p yillardan buyon libos yaratish uchun konstruktor va texnolog mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda. Bitiruvchilarimiz nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlamoqdalar, balki dizayn sohasida xam ishtirok etishmoqda. Libos yaratish – by kiyimlarning turli tashqi ko'rinishi, shakli va bichimlarini yaratishdagi doimiy izlanishdir. Asrlar davomida shakllangan an'anaviy o'zbek milliy libosi o'zida xalqimizning ko'p asrlik madaniyatini,

tajribasini mujassamlashtiradi.

Bugungi kunda iste'molchilar tomonidan libos dizayniga qat'iy talablar qo'yilganligi bois dizayner mutaxassislarni tayyorlashga zaruriyat tug'ildi. Markaziy Osiyodagi turdosh kafedralar ushbu yo'nalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlamaydi."Engil sanoat maxsulotlari texnologiyasi va dizayn" kafedrası Respublikamizda yetakchi o'rin egallaganligi, o'quv laboratoriyalari bilan jixozlanganligi, moddiy-texnik va o'quv bazasi bilan ta'minlanganligi bois 2008 yilda "Libos dizayni" yangi kafedrası tashkil qilindi.

Bu yo'nalishda ijodiy imtixon va test sinovlari orqali iqtidorli abituriyentlar qabul qilindi. Abituriyentlar ijodiy imtixonni chizmatasvir, rangtasvir va kompozitsiya asoslari fanlaridan, test sinovlari – matematika, ona tili va adabiyot fanlaridan topshirdilar. Libos dizayni yo'nalishiga dastlabki yildayoq 84 ta abiturient xujjat topshirdilar. Shundan 26 ta iqtidorli abiturientlar talabalar safiga qabul qilindi.

Kafedra katta ilmiy salohiyatga ega bo'lib hozirda akademik, 2ta professor, 2ta dotsentlar faoliyat ko'rsatmoqda. Kafedra professor-o'qituvchilari quyidagi yo'nalishlarda ilmiy ish olib bormoqdalar, ya'ni O'rta Osiyo sharoiti uchun kiyimlarni loyixalashda turli xil gazlamalarni qo'llash; maishiy va rasmiy kiyimlarni loyixalash jarayonini takomillashtirish; milliy kiyim tarixini taxlil qilish; turli materiallardan buyumlarni loyixalash tamoyillari va ularni avtomatlashtirish usullari; istemolchilarni uyg'un siymosi asosida liboslarni eskiz loyixalash jarayonini takomillashtirish. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash va dizayn fanlari bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan darsliklar chop etilgan.

Kafedra xorijiy ko'plab oliy o'quv yurtlari (Rossiya, Germaniya, Angliya, Qirg'iziston, Qozog'iston) bilan malaka oshirish, uslubiyat va ta'lim dasturlari kabi turli shakllarda ijodiy aloqada bo'lib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi yengil sanoati oldida liboslarni tayyorlash va sifatini oshirish, loyixalash jarayonlarini avtomatlashtirish vazifasi turibdi. Bu esa, dizaynerlarga umummuxandislik fanlari bilan bir qatorda tikuv buyumlarini loyixalash uning dizaynini yaratish fanlari bo'yicha ham bilim olishni talab etadi.

Kafedrada yangi modellar yaratish metodikasi badiiy fanlar, kiyimlarni tikish texnologiyasi va konstruksiyalash fanlari bilan chambarchas bog'liq holda olibboriladi. Ularga 3ta professor, 2ta dotsent, 5ta katta o'qituvchi va 7ta assistant mutaxassislikka tegishli fanlardan ta'lim bermoqdalar. Kafedrada "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash" va "Kasbiy fanlarni o'qitish metodikasi" bo'yicha magistrlar tayyorlanib kelmoqda.

Kafedra o'quv xonalari eng zamonaviy asbob uskunalar va kompyuterlar bilan jixozlangan. 2002 yilda kafedrada Yaponiya xukumatining beg'araz yordam granti bo'yicha kiyimlarni loyihalash uchun eng zamonaviy avtomatlashtirilgan. "Gerber" firmasining dastur ta'minoti kiritilgan SADSAM sistemasidagi kompyuter qurilmalari o'rnatilgan. Bu jihozlar O'rta Osiyodagi oliy o'quv yurtlarida va tikuvchilik korxonalarida yagona xisoblanadi.

Kafedra qoshidagi institut "Modalar teatri"ning ta'rif-tavsifi nafaqat respublikamizda, balki ko'plab xorijiy davlatlarda ham juda yaxshi ma'lum. Moda teatri o'z kolleksiyalari bilan Chexoslovakiya, Xitoy, Rossiya moda festivallarida

qatnashib sovrindor bo'ldilar. Respublikamizda an'ana bo'lgan "Style Uz" moda festivalida talabalarimizning libos kolleksiyalari yuqori baholanmoqda. Bunday hamkorlik yoshlarimizga hozirdanoq raqobat sharoitida ish yuritish, menejment va marketing sirlarini o'rganish imkonini beradi.

O'zbekistonda to'qimachilik korxonalari.

O'zbekiston sanoati sohasida to'qimachilik va yengil sanoat yo'nalishi alohida o'rin egallaydi. To'qimachilik sanoatining rivojlanishi keyingi yillarida ancha ilgari ketdi. Buning sababi ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishidir. Mustaqillik yillarida ko'plab to'qimachilik sohasida qo'shma korxonalar ishga tushirildi. Chet ellik sarmoyadorlar o'zining bir necha qo'shma korxonalarini ochishdi, yuzlab ishchi o'rinlari tashkil qilindi. Bular Shaxrixon tekstil, Samteks, Sarbontekstil kabilardir. Bu korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi, talabning ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu mahsulotlarning sifati ham oldigilardan farq qiladi. Ular chidamli, pishiq, rangi tez ko'tarilmaydigan qilib tayyorlangan. Mahsulotlar sifatini ko'tarishda ishlab chiqarish mashinalarining o'rni katta. Bu korxonadagi mashinalar jahon standarti talablariga javob beradigan, oxirgi rusumdagi mashinalar bo'lib mahsulot sifatini oshirishda yordam beradi. Albatta, bunday bejirim kiyim kechaklar jahon bozorida yaxshi sotiladi. Xullas O'zbekistonda to'qimachilik sanoati keng rivojlanmoqda.

O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI HAQIDA.

Hozirgi davrda O'zbekiston to'qimachilik sanoati iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Yengil sanoat oldida turgan asosiy vazifalardan biri hom ashyo ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishdan iboratdir. 1991 yildan korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlari, ya'ni pahta tolasining qayta ishlash hajmi bo'yicha 136,3 ming tonnadan 2008 yilga kelib 350 ming tonnaga ko'paydi. Buning asosiy sababi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish, to'qimachilik korxonalarini texnik jihatdan qayta qurollantirish, modernizatsiya qilish, shuningdek, ham mahalliy, ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida amalga oshirildi. Umuman, to'qimachilik tarmoqlariga 12 mlrd. dollar investitsiya kiritilib, xorijiy investorlar ishtirokida 50 dan ortiq, loyihalar bo'yicha 100 milliondan ortiq buyumlar ishlab chiqarildi. "O'zbekiyengilsanoat" uyushmasi tomonidan oxirgi yillarda 61,5 mlrd. so'mlik iste'mol buyumlari ishlab chiqarildi. Olgan foydasi 1,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2008 yildan boshlab, 8 ta to'qimachilik korxonalari qurib, foydalanishga topshirildi. Va natijada 1780 xodim ish bilan ta'minlandi. 1994 yilda yengil sanoatning eksport mahsulotlari 7,76 mln. Dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2008 yilga kelib bu ko'rsatkich 63 marta ko'paydi. Ja'mi 400,1 mln. dollarni tashkil qildi. O'zbekiston to'qimachilik korxonalari eksport qiladigan asosiy bozorlar Turkiya, Janubiy Koreya, Rossiya bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz to'qimachilik mahsulotlarini eksport geografiyasini kengaytirish borasida jiddiy tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilib

bormoqda. Qo'shma va modernizatsiya qilingan korxonalarning hajmi ishlab chiqargan mahsulotlarning 80 foizini eksportga yo'naltirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan.

Topshiriqlar:

1. Matnni so'zlab bering
2. Notanish so'zlar lug'atini tuzing
3. "TTYSI fakultetlari" mavzusida dialogic matn tuzing
4. Dialogik matndagi yordamchi so'zlarini ani
5. To'qimachilik sohasi haqida mustaqil matn tuzing.
6. To'qimachilikka doir so'zlar lug'atini tuzing.

LUG'ATLAR

Авторткани – matoning muallifi

Агрегатсостоитиз... - agregatqatorasboblardantuzilgan

Агрегатыагломераты –aglomeratlarning agregati

Агрегат – agregat

Анилинокислается – anilin oksidlanmoqda

Анилинткани – gazlamali anilin

Ароматическоевещество – xushbo'ynarsa

Акклиматизация – iqlimlashish

Ассортиментобновляется – matoturlariyangilanmoqda

Белениеткани – gazlamaniyoqlantirish

Белокстойкий – chidamliloqsil

Бельеносильное – kiyiladiganichkiyim

Бревно – yog'och , to'sin

Бланк – qog'oz (xujjat)

Большинство случаев – ko'phollarda

Варочный раствор – qaynatma , aralashma

Выход продукта – mahsulotningchiqqansanasi

Выходить однократно – birmartalik

Выпускать печатную продукцию – bosmamahsulotniishlabchiqarish

Высушенный – quritilgan , qoqish , qovjiratisht

Высокомолекулярное вещество – yuqorimolekulalimodda

Высококачественный – oilysifatli

Выдерживать что-либо при темпепатуре – birornarsanibiron-birxaroratdaushlash

Ведущий – etakchi

Внутренний – ichki

Вести вклад – hissaqo'shmoq

Вышел из печати – nashirdanchiqti

Военное время, военные годы – urushyillari

Виден чётко – aniqkorinmoq.

Гармония форм – shakluyg'unligi

Гигроскопичность высокая – yuqorinamtortishxususiyati

Гигроскопичность низкая – pastnamtortishxususiyati

Графическая – grafikli
 Грани округлые – yumaloqshaklliqirralar
 Дехканин, крестьянин - dehqon
 Дешифрующее устройство – shtrixkodliharflarnio'quvchiquirilma
 Жесткость – qattqlik , dag'allik
 Большая жесткость – kattaqattqlik , o'tadag'allik
 Жесткость на ощупь – paupaslashdagiqattqlik , dag'allik
 Нужная жесткость – kerakliqattqlik , dag'allik
 Повышенная жесткость – yuqoriqattqlik , dag'allik
 Зависимость – bog'liqlik
 Заводы оснащены чем-либо – zavodlarbiornarsabilanjihozlangan
 Заверстать пополюсно – qog'oznibuklash
 Загружать – ortmoq
 Задача сводится к тому... - masalashungaolibkeladi-ki..
 Закреплять наглухо – qattiqqotirmoq
 Закрепление краски – bo'yoqqotishi
 Завершенный -mukammal
 Запускать производство – ishlabchiqarishniboshlamoq
 Защита от светостарения –yorug'likta'siridanhimoyaqilish
 Звено – tarkibiyqism
 Идея была высказана – g'oyaaytilganedi
 Идея создания чего-либо – biornarsanituzishg'oyasi
 Интенсивность – jadallik
 Извлечение волокна – tolaniajratibolish
 Изобретение – ixtiroqilmoq
 Измельчение – maydalash
 Издательская продукция – nashretilayotganmahsulot
 Изделия в виде полотен – uzunmatobuyumlari
 Изготавливать – ishlabchiqarmoq
 Истечение – ishqalanish
 Известный – mashhur
 Издание – nashr
 Искусство –
 Кровь – qon
 Кроющая – birparcha (chetidanqirqibolinadigan)
 Крайняя способность – bo'yaydiganusul
 Кроющая способность – birparchaniusuli
 Кроющая способность органические – birparchaniuzviyravishi
 Кроющая способность исходные – birparchanioldingibirparchasi
 Краска – bo'yoq
 Край – chet

9-MAVZU Iqtidor va mehnat. Matnga so'z va termin tanlash.

Mehnat

Mehnat jamiyat yoki alohida individ talab va ehtiyojlarini qondirish uchun bajariladigan faoliyat turidir. Mehnat iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida ko'riladi.

Mehnat — insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati; eng avvalo tabiat predmetlarini o'zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi. M. kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi.

Insonning faoliyati tufayli mehnat predmetlari mahsulotga aylanadi. M. odamni hayvondan farqlantiradigan eng muhim belgidir. M. tufayli inson tabiatdagi narsalarni o'zgartiribgina qolmaydi, balki o'zi ham kamol topadi, uning akliy va jismoniy qobiliyatlari o'sadi. M. jarayonida inson tabiat kuchlarini o'z maqsadiga bo'ysundiradi.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan M. taqsimoti yuzaga keladi va borgan sari chuqurlashib boradi, M.ning yangi turlari yuzaga keladi, ular mustaqil vazifaga ega bo'ladi. M.dagi ixtisosla-shuv tufayli tabiat sirlari chuqur o'rganiladi, tabiiy narsalar to'laroq ishlatiladi, hatto, ularniig xossalari o'zgartiriladi. M. taqsimotining darajasi jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning qay darajgia ekanligini ifodalaydi. M. turlari yuzaga kelishi bilan M. faoliyati natijalarini ayirboshlash, har xil mehnashi bir-biriga moslashtirish ehtisji tug'iladi. Bu esa mehnatga ijtimoiy tus beradi, chunki mahsulotlar va chizmatlar ko'pchilik mehnatining shpijasiga aylanadi. Shunday sharoitla Mni boshqarish tizimi yuzaga kelali na u maxsus vazifaga ega bo'ladi. M. natijasi (mahsulot) tovarga aylapgapda, ya'ni pul vositasi bilan ayir-boshlanganda M.ning kiymat yaratishdagi roli jihatidan konkret va abstrakt M.ga bo'linishi yuz beradi. M. o'zining mazmuni va harakteri jihatidan aqliy, jismoniy, malakali (murakkab) va malakasiz (oddiy) M.ga bo'linadi.

Aqliy M. — insonning tafakkur faoliyati. Bunga muhandis, vrach, agronom, o'qituvchi, olim va boshqa mehnati misol bo'ladi. Jismoniy M. — insonning jismoniy faoliyati. Bunga ishchi, dehqon, kosib M.i misol bo'ladi. Malakali M. maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Malakasiz M. maxsus tayyorgarlikni va qobiliyatni talab etmaydi, mas, yuk tashuvchi, farrosh, qorovul Mehnat Fantexnika taraqqiyoti ta'sirida M. vositalari mukammallashadi, xodimlarning mahorati, malakasi usadi, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, axborotlar texnologiyasini keng joriy etish va uni tashkil etishni tubdan takomillashtirish natijasida M. mazmunining muntazam o'zgarishi yuz beradi. Mehnatda har bir xodimning uzluksiz ta'lim va madaniytexnikaviy saviyasi hamda malakasi ortib borib, ham ijtimoiy, ham yakka tartibdagi mexmat samaradorligining uzluksiz o'sib borishi asosida aholining turmush darajasi oshadi.

TADBIRKORLIK

Mamlakatimizda barcha sohalarga, jumladan, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ham keng yo'l berilgan. Endilikda ana shu imkoniyatlardan foydalanib, ko'plab kichik korxonalarni barpo etish, ishlab chiqarishni va kasanachilikni yanada rivojlantirish zarur. Har yili joylarda yosh mutaxassislar uchun mehnat yarmarkalari o'tkazilmoqda. Ammo bu bilan qanoatlanib bo'lmaydi. Kasb-hunar maskanlari, oliy o'quv yurtlari har yili ko'plab mutaxassis kadrlarni tayyorlab bermoqda. Endilikda yoshlar faqat tayyor ish o'rinlariga borib joylashib qolmasdan, Yaratilgan imkoniyatlardan kelib chiqib, o'zlari ham kichik korxonalarni tashkil etsalar, o'z xususiy bizneslarini boshlasalar, yangi ish o'rinlarini yaratib berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Har qanday tarbiya, albatta, avvalo oilada shakllanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda yosh oilalarni har tomonlama moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilyapti. Prezidentimizning "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish yo'lida tashlangan katta qadam bo'ldi. Ayni paytda yurtimizda 995 mingdan ortiq yosh oila istiqomat qiladi. Ular orasida doimiy ish o'rniga ega, uy-joyga muhtoj oilalar soni 343 ming nafardan ortiq ekanligini tahlillar ko'rsatib turibdi. Kredit olish uchun murojaat qilgan yosh oilalarning ahvoli tegishli komissiyalar tomonidan o'rganilib, lozim topilganlarida kreditlar ajratib berilmoqda.

"Yosh oilalarga munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlarni yaratib berish, ro'zg'orni butlash uchun mablag' va kreditlar bilan ta'minlash, ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom bolalarni tarbiyalab voyaga yetkazish yo'lida zarur imkoniyatlarni tug'dirib berishimiz kerak",-- deya ta'kidladilar Prezidentimiz majlisida. Yuqoridagi Farmon ana shu masalalarning ijrosini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi.

Farmonda yosh oilalarga uy-joy qurish masalasi ham ko'zda tutilgan. Hozirda yosh oilalar uchun ko'p qavatli turar joy binolari qurilishi boshlanib ketdi. Qurilish ishlarini olib borish maqsadida qirqqa yaqin pudratchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzilgan. Shuningdek, qurilish ishlariga bevosita yoshlarning o'zi ham jalb etilmoqda. Yoshlardan tuzilgan 44ta qurilish brigadalari ana shu turar joy binolarini barpo qilishda bevosita ishtirok etyapti.

Umuman, bugungi kunda yoshlar masalasi davlat siyosatida, xalqimiz hayotida alohida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa farzandlarimizga bo'lgan g'amxo'rlik, kelajakka yuksak ishonch belgisidir. Zero, hayotimizning turli jabhalarida faoliyat yuritayotgan, zimmalaridagi mas'uliyatni chuqur his etayotgan yosh yigit-qizlarni ko'rganda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning chinakam davomchilari voyaga yetayotganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Har bir xududning o'zaro muloqot qiladigan so'zlashadigan tili mavjud. Bu o'sha xududning shevasi hisoblanadi. Masalan: O'zbek adabiy tilidagi yostiq so'zining har xil shevadagi nomlanishini keltiramiz: bolish, dastiq, taka, ko'pchik, lo'la va hokazo.

10-MAVZU . Yetuk mutaxassis. Matn tahlili va tahriri.

O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI HAQIDA.

Hozirgi davrda O'zbekiston to'qimachilik sanoati iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Yengil sanoat oldida turgan asosiy vazifalardan biri hom ashyo ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishdan iboratdir. 1991 yildan korhonalarning ishlab chiqarish quvvatlari, ya'ni pahta tolasining qayta ishlash hajmi bo'yicha 136,3 ming tonnadan 2008 yilga kelib 350 ming tonnaga ko'paydi. Buning asosiy sababi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish, to'qimachilik korxonalarini texnik jihatdan qayta qurollantirish, modernizatsiya qilish, shuningdek, ham mahalliy, ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish asosida amalga oshirildi. Umuman, to'qimachilik tarmoqlariga 12 mlrd. dollar investitsiya kiritilib, xorijiy investorlar ishtirokida 50 dan ortiq, loyihalar bo'yicha 100 milliondan ortiq buyumlar ishlab chiqarildi. "O'zbekiyengilsanoat" uyushmasi tomonidan oxirgi yillarda 61,5 mlrd. so'mlik iste'mol buyumlari ishlab chiqarildi. Olgan foydasi 1,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2008 yildan boshlab, 8 ta to'qimachilik korxonalari qurib, foydalanishga topshirildi. Va natijada 1780 xodim ish bilan ta'minlandi. 1994 yilda yengil sanoatning eksport mahsulotlari 7,76 mln. Dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2008 yilga kelib bu ko'rsatkich 63 marta ko'paydi. Ja'mi 400,1 mln. dollarni tashkil qildi. O'zbekiston to'qimachilik korxonalari eksport qiladigan asosiy bozorlar Turkiya, Janubiy Koreya, Rossiya bo'lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz to'qimachilik mahsulotlarini eksport geografiyasini kengaytirish borasida jiddiy tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilib bormoqda. Qo'shma va modernizatsiya qilingan korxonalarning hajmi ishlab chiqargan mahsulotlarning 80 foizini eksportga yo'naltirish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. O'zbekiston sanoati sohasida to'qimachilik va yengil sanoat yo'nalishi alohida o'rin egallaydi. To'qimachilik sanoatining rivojlanishi keyingi yillarida ancha ilgarilab ketdi. Buning sababi ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishidir. Mustaqillik yillarida ko'plab to'qimachilik sohasida qo'shma korxonalar ishga tushirildi. Chet ellik sarmoyadorlar o'zining bir necha qo'shma korxonalarini ochishdi, yuzlab ishchi o'rinlari tashkil qilindi. Bular Shaxrixon tekstil, Samteks, Sarbontekstil kabilardir. Bu korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xaridorgirligi, talabning ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu mahsulotlarning sifati ham oldigilardan farq qiladi. Ular chidamli, pishiq, rangi tez ko'tarilmaydigan qilib tayyorlangan. Mahsulotlar sifatini ko'tarishda ishlab chiqarish mashinalarining o'rnini katta. Bu korxonadagi mashinalar jahon standarti talablariga javob beradigan, oxirgi rusumdagi mashinalar bo'lib mahsulot sifatini oshirishda yordam beradi. Albatta, bunday bejirim kiyim kechaklar jahon bozorida yaxshi sotiladi. Xullas O'zbekistonda to'qimachilik sanoati keng rivojlanmoqda.

TO'QIMACHILIK MATOLARI TEXNOLOGIYASI KAFEDRA

TARIXI

Kafedraning tarixi 1932-yilda nafaqat O'zbekiston balki o'rto osiyoda yagona bo'lgan Toshkent to'qimachilik institutini tashkil etishdan boshlangan. Kafedra o'z faoliyati davomida o'quv jaroyini tashkil etish bilan bir qatorda mutaxasislarga tarbiyaviy va ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish ko'nikmalarini o'rgatish bilan ham shug'ullangan. Kafedra mutaxasislik kafedralari sirasiga kirgani uchun ham uning faoliyati Respublika to'qimachilik sanoatining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

TO'QIMACHILIK MATERIALSHUNOSLIGI.

To'qimachilik materialshunoslik kafedrasini 1957-yilda mexanika texnologiya fakultetida texnika fanlari doktori, professor, akademik M.A. Xodjinova rahbarligi ostida tashkil topgan va ilmiy maktab yaratilgan. Ular rahbarligida 6 nafar fan doktori va 21 nafar fan nomzodlari tayyorlanib, himoya qilingan. 1967-yildan boshlab kafedra to'qimachilik materialshunosligi bo'yicha muxandis-mutaxasislar tayyorlana boshlandi. 1972-1998 yillarda kafedraga O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan injener va oliy ta'lim alochsi professor U.M. Matmusayev rahbarlik qildi.

“IPAK VA YIGIRISH TEXNOLOGIYASI” kafedrasini

Kafedra 1932-yili tashkil etilgan “Ipak texnologiyasi” va “Yigirish texnologiyasi” kafedralari 2013-yili birlashtirilib “Ipak texnologiyasi va Yigirish” kafedrasini sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Ipak texnologiyasi va Yigiruv texnologiyasi kafedralari 1932-yildan boshlab Respublikamiz va MDH davlatlari uchun Ipak va Yigiruv texnologiyalarini mukammal egallagan muhandislar tayyorlab kelmoqda. Kafedra 2 nafar Texnika fanlari doktori professor va 9 nafar texnika fanlari nomzodlari faoliyat yurit

"LIBOSLAR DIZAYNI" kafedrasini tarixi

Dizayn- bu dunyoning badiiy ifodasidir. Dizayner esa – zamonaviy va bugungi kunda dolzarb mutaxasislik. O'zbekistonda to'qimachilik va moda industrayasi rivojlanishi kichik va o'rta biznesining davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi yuqori sifatli eksklyuziv va dizayn mahsulotlariga talabni ortishi dizaynerlar faoliyatiga cheksiz imkoniyatlar beruvchi matolar va uskunalarining yangi avlodini paydo bo'lishi bularni barchasi yangi namunadagi mutaxasislar tayyorlashni taqozo etmoqda. Libos dizayni kafedrasini 2008-yilda yangi ijodiy kafedra sifatida ochilgan. Olim: Bilmasam, taxminiy 1500 ta talaba shekilli. Men institut faoliyati bilan endi tanishyapman.

Topshiriq: 1. To'qimachilik sohasi haqida mustaqil matn tuzing.
2. Matndan qiyin so'zlarga 10 ta misol tuzing.
3. To'qimachilikka doir so'zlar lug'atini tuzing.

MATN VA UNING LINGVISTIK MOHIYATI

Tayanch tushunchalar:

Matn, gap, murakkab sintaktik butunlik, abzas, minimal matn, maksimal matn, mikromatn, makromatn, badiiy matn, nobadiiy matn, hikoya mazmunli matn, tasviriy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn.

Kirish. Badiiy asar tili nihoyatda murakkab va o'ziga xos hodisa hisoblanadi. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni o'rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tili tadqiqi bilan bir umr shug'ullangan V.Vinogradov o'zining «Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari» nomli ma'ruzasida badiiyadabiyot tili to'g'risida gap ketganda, «til» so'zi ikki xil ma'noda qo'llanishini ta'kidlaydi, ya'ni: 1) u yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi «nutq» yoki «matn» (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil materiali) ma'nosida; 2) «san'at tili», badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida.

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi, uning birlamchi unsuri til ekanligi haqidagi haqiqatni hech kim hech qachon inkor etgan emas. Kishilik tarixida adabiyot atalmish dunyoni obrazli idrok etish san'ati yaralibdi-ki, bu san'atning asosiy ifoda vositasi bo'lgan so'z, tilni tadqiq etishdek mashaqqatli yumush inson tasavvuri va tafakkurini muttasil band etib keladi.

Buyuk ma'rifatparvar adib Abdurauf Fitrat «Adabiyot qoidolari qo'llanmasida» «Go'zal san'atlarda tovar (materiyol) tovush, ohang bo'lsa, go'zal san'at musiqiy bo'ladi; bo'yovlar, chiziqlar bo'lsa, rasm bo'ladi; tosh yo boshqa turli ma'danlar esa, haykalchilik bo'ladi; tosh yog'och, kirpich, ganj, tuproq bo'lsa, me'morlik bo'ladi; tan, mug'a (muqom, mimika) harakatlari esa, o'yun (tans) bo'ladi; gap, so'z esa, adabiyot bo'ladi» deb yozadi va adabiyotga shunday ta'rif beradi: «Adabiyot - fikr, tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir»¹. Atoqli o'zbek adabiyotshunosi O.Sharafiddinov o'zining «Adabiyot tildan boshlanadi» nomli maqolasida shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi»². 1 Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. –B. 12-13. 2 Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1986, 5-sentabr Bu o'rinda yirik adib va adabiyotshunos P.Qodirovning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: «haykallar misdan marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdar quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomiik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglari chiziqlar, bo'yoqlar vositasi biian emas, so'zlar vositasi bilar yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til har qanday adabiy asarning spesifikasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi».

O'zbek tilshunosligida ham badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlangan ishlarda, asosan, ikkita yo'nalish yetakchilik qilganligini kuzatish mumkin³.

1. Lingvistik yo'nalish. Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy – badiiy asarlarning tili o'rganiladi. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan.

2. Lingvopoetik yo'nalish. Badiiy asar tilini lingvopoetik yo'nalishda o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi.

1. Kommunikativ vazifa – tilning kishilar o'rtasida asosiy aloqa vositasi ekanligi. 2. Ekspressiv vazifa – turli fikr va tuyg'ularni ifodalash vazifasi.

3. Konstruktiv vazifa – fikrlarni shakllantirish, tartibga solish va ifoda tarzini belgilash vazifasi.

4. Akkumulyativ vazifa – ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash vazifasi.

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni "ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, «tilning estetik vazifasi» atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi ancha keng. Albatta har qanday badiiy asarda tilning boshqa vazifalari ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg'u beriladi: «Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi»

“Баҳс-мунозара” методи—бирор мавзу бўйича таълим олувчилар билан ўзаро баҳс, фикр алмашинув тарзида ўтказиладиган ўқитиш методидир. Ҳар қандай мавзу ва муаммолар мавжуд билимлар ва тажрибалар асосида муҳокама қилиниши назарда тутилган ҳолда ушбу метод қўлланилади. Баҳс-мунозарани бошқариб бориш вазифасини таълим олувчиларнинг бирига топшириши ёки таълим берувчининг ўзи олиб бориши мумкин. Баҳс-мунозарани эркин ҳолатда олиб бориш ва ҳар бир таълим олувчини мунозарага жалб этишга ҳаракат қилиш лозим. Ушбу метод олиб борилаётганда таълим олувчилар орасида пайдо бўладиган низоларни дарҳол бартараф этишга ҳаракат қилиш керак.

11-MAVZU Kasb bayrami. Matn mazmunining qisqacha bayoni 1 oktabr – o'qituvchilar va murabbiylar bayrami.
USTOZ OTANGDEK ULUG'.

Qay bir yetuk shaxs, ulug' inson bo'lmasin uning kamolida ustoz mehnati bemisl. Ustoz kaftini tutgan, etagini ushlagan zot borki, aslo kam bo'lmagan.

Bizning ozod va obod yurtimizda bugun ustozga, maorifga, bir so'z bilan aytganda ta'lim sohasiga bo'lgan e'tabor g'oyatda kuchli. Buning boisi bor, albatta. Bugungi avlod – ertangi kelajak. Yurtning jahon sahnasida tutgan o'rnini yorug' yuz bilan saqlash ular qo'lida. Buning uchun esa yoshlarimiz albatta ilmi, hunarli va kuchli bo'lishlari lozim. G'urur va iftixor bilan ayta olamizki, dunyoda ta'limning «o'zbek moduli» tan olingan milliy ta'limimiz bugun o'zini oqladi. Yoki yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «...oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlariga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratdi».

Darhaqiqat, tomchida quyosh aksi bor. Bugun yoshlarimiz erishayotgan yutuqlarda, albatta, ustozlarimiz, etuk kadrlarning mashshaqatli mehnatlari yotadi. Shuni faxr bilan aytish mumkinki, bugun viloyatimizdagi kasb-hunar kollejlari na akademik liseylarda 10 ming nafardan ziyod murabbiylar, o'z kasbining bilimdonlari bo'lgan aziz muallimlar faoliyat yuritishmoqda. Ular orasida «O'zbekiston xalq o'qituvchisi», O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» kabi faxriy unvon hamda davlatimizning bir qator orden, medallariga sozavor bo'lgan jonkuyarlar borligi quvonarli. Shuni alohida aytish lozimki, joriy o'quv yilda yana 400 nafar oily ma'lumotli mutaxassis o'qituvchi ustozlar safida ish boshladilar.

SHARAFLI KASB.

Ibtidoiy jamiyat davridayoq odamlar ovchilik, keyinroq esa chorvachilik, dehqonchilik, kosibchilik bilan shug'ullanganlar. Jamiyat rivojlangan sari ortib borayotgan ehtiyoj va talabni qondirish uchun kasblar ham ko'payib borgan. Bugungi kunda jamiyatimizni novvoy, uchuvchi, huquqshunos, konstruktor, sartarosh, operator, oshpaz, shaxtyor, etikdo'z, haydovchi, traktorchi, g'isht teruvchi, suvoqchi, ekskavatorchi, buldozerchi, payvandchi, aktyor, bo'yoqchi, xonanda, rassom, shifokor, musiqachi, sotuvchi, bastakor, duradgor, temirchi, hisobchi, naqqosh, chilangar, broker, yozuvchi, menejer va hokazo kabi yuzlab kasblarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ko'pchiligimiz hali maktabga bormasimizdanoq, ayrimlarimiz esa maktabda o'qiy boshlagach, o'zimizga kasb tanlaymiz. Kimdir mashhur sportchi, kimdir taniqli journalist, yana kimdir mohir tikuvchi, tergovchi, quruvchi, kosmonavt, harbiy

mutaxassis bo'lishni orzu qiladi. Har birimiz shu ezgu orzuimizga erishish, tanlagan kasbimizni egallash uchun tinmay o'qiymiz, izlanamiz, intilamiz.

Dunyoda shunday bir sharaflı kasb egalari borki, ular ming yillardan beri barcha xalqlar orasida el-yurt hurmatiga sazovor bo'lib keladi. Bu kasb ko'pchiligimiz sevadigan o'qituvchilikdir. Bu kasbning naqadar sharaflı ekanligini miloddan oldin o'tgan buyuk yunon faykasufi Aristotelni «birinchi muallim», X asrning ulug' qomusiy olimi Abu Nasr Forobiyni «ikkinchi muallim» deb ataganliklaridan ham bilsa bo'ladi.

O'quvchi endigina atrof-olamni ko'rib, uning ajoyibotlaridam hayratlanayotgan 7-8 yoshdagi bolalarga mo'jizalar yaratishni: yozish, o'qish, hisoblash, go'zallikni his qilish va o'z taassurotlarini hikoya qilish, tasvirlash, kuylash orqali boshqalarga yetkazishni o'rgatadi.

Ota-ona o'z farzandini so'glom qilib o'stiradi, kiyim-kechak, oziq-ovqat, o'quv qurollari va boshqalar bilan ta'minlaydi, odob-axloq o'rtadi. O'qituvchi ham har bir o'quvchini o'z farzandi dek yaxshi ko'rib, unga ta'lim-tarbiya beradi. O'z o'quvchisining tarbiyali, madaniyatli, bilimli, hunarli, hozirjavob, mehribon inson bo'lib kamol topishi uchun bor bilimi hamda kuchini sarflaydi. U shogirdlarining har bir muvafaqiyatidan o'zi erishgan g'alabadek quvonadi.

Kishining jamiyatda o'z o'rnini topib olishida ota-ona va bilimdon o'qituvchilarning xizmatlari beqiyosdir. Shuning uchun ham xalqimiz otani ulug'lab «ota rozi- xudo rozi» desa, ustozlarni ulug'lab «ustoz otangdek ulug'» deydi.

Mamlakatimizda ustoz-murrabiylarga hurmat-e'tibor katta. Har safar o'quv yili tugashi bilan hurmatli ustozlarimiz ikki oyli mehnat ta'tiliga chiqadilar. Dam olish hamda salomatliklarini tiklash uchun respublikamiz va xorijdagi dam olish uylari, sanatoriya va kurortlarga yollanmalar olishadi. Davlat tomonidan yaratilgan turli imtiyozlardan foydalanadilar. Ko'pchilik o'qituvchilarimiz ijodkorligi, tashabbuskorligi, ta'lim-tarbiya berishdagi alohida xizmatlar uchun orden va medallar, «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rssatgan o'qituvchi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi» kabi faxriy unvonlarga sazovor bo'ladilar.

Biz savod o'rgatgan, ta'lim tarbiya bergan' ilm cho'qqilariga yo'l ko'rsatgan muhtaram ustozlarimizni hech qachon unutmaymiz.

12-MAVZU. Kasbim fidoyilari. Referat matni, tuzilishi, ifoda materialining xususiyatlari.

To'qimachilik va yengil sanoat sohasi fidoyilari: M. A. Xojinova, B. Levkovich.

B.LEVKOVICH.

To'qimachilik va yengil sanoat instituti tarixida Boris Appolonovich Levkovich alohida o'rin tutadi. U to'qimachilik sohasida katta ishlar qilgan, taniqli olim edi. Boris Appolonovich 80 yillik umr ko'rgan (1886-1966) bo'lsa, bu davr ichida o'zining asosiy hayotini ilmgaga, xususan paxtani ishlashga bag'ishladi. U 1915 yili Varshava Politehnika institutini tugatib, xozirgi Milliy universitetga kelib ishladi. U tashabbuskor edi. Shuning uchun ham 1927 yili «Paxtani dastlabki ishlash»

kafedrasini tashkil qiladi. So'ng 1929 yili O'rta Osiyo Paxtachilik – Irrigatsiya politexnika institutida dekan bo'lib ishlaydi. Toshkent to'qimachilik institutiga o'z kafedrasini bilan o'tadi va bu kafedra etakchi-asosiy kafedralardan biri bo'lib qoladi. B. Levkovichning ilmiy ishlari paxtani dastlabki ishlashga qaratilgan bo'lib, u chigitdan tola ajratishning nazariy va amaliy masalalarini hal qilish ustida maxsus kitob («Pervichnaya obrabotka xlopka» M.1951) ham chiqaradi. Uning «Element' teorii inirovaniya» (T 1938) asari ham ilmda shubhasiz yuksak baholandi. B. Levkovich 1937 yili texnika fanlar nomzodi bo'lgan. 80 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi B. Levkovich O'zbekiston fanlar akademiyasining muxbir a'zosi bo'ldi. Shuningdek, 1944 yili O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, bir qator orden-medallar bilan mukofotlanishga sozovor bo'lgan olim.

B.Levkovich ilmiy sohadagina emas, u yoshlarga to'qimachilikning asosi paxtani dastlabki ishlash bo'yicha asosli, mazmunli, e'tiborli bilm berdi. O'z sohasining bilmdoni, ustasi sifatida tarixda iz qoldirdi.

O'Z KASBINING USTASI HOJINOVA MAQSUDA A'ZAMXO'JA QIZI

O'zbekiston Xotin-qizlar ichidan yetishib chiqqan birinchi texnika fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, taniqli olima Maqsuda ona A'zamxo'ja qizi Hojinova 1920 - yil 8-iyulda Toshkent shahrida xizmatchi oilasida tug'ildi. M.A.Hojinovaning otasi 1920- yilda vafot etib, onasi besh bola bilan qoldi. Bolalarning uchtasi bolalar uyida tarbiyalandi. 1928- yilda u Toshkent iqtisodiy sanoat texnikumiga o'qishga kirib, 1931- yili uni tamomlagach, Buxoro viloyatining Konimex shahridagi ittifoq paxta qabul qilish bo'limida iqtisodchi – tovarshunos bo'lib ishladi.

Tinib-tinchimas, bilimga chanqoq, izlanuvchan, zakovatli bu ayol 1932- yilda Moskva shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Xalq xo'jaligi institutiga o'qishga kirib, 1936-yilda uni muvaffaqiyatli tamomladi. M.A.Hojinova o'qib yurgan kezaridayoq ilmiy faoliyatini boshlab yubordi; prof. P.A.Arxaevskiy rahbarligida tola, ip-gazlamalarning sifatini oshirish sohasini qunt bilan o'rganib, keyinchalik “Tola, ip-gazlamalarning mustahkamligini aniqlashda ratsional metodlarni izlash” degan qo'llanma yozdi.

M.A.Hojinova 1941-yilda o'zi tugatgan institutning aspiranturasiga qabul qilindi va uni muvaffaqiyatli tugatdi. 1946- yilda professor G.N.Kukin rahbarligida texnika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun desertatsiya yoqladi. Olima o'z desertatsiyasida namlikning paxta iplari xususiyatlariga ta'siri masalalarining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qildi. M.A.Hojinova 1944 – yildan boshlab Toshkent to'qimachilik institutining “Tolali materiallarning mexanikaviy texnologiyasi ” (MTVM) kafedrasida assistent bo'lib ishladi.

M.A.Hojinova 1957-yilda to umrining oxirigacha o'zi tashkil etgan “To'qimachilik materialshunosligi” kafedrasiga rahbarlik qildi.

1957-1973 yillarda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining rektori bo'lgan M.A.Hojinova ko'p yillik ilmiy kuzatishlarini yakunlab, 1958-yilda

Moskva to'qimachilik institutida "Tola va iplarning sifatiga mexanikaviy shikastlarning ta'siri" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi.

M.A.Hojinova 1945-1950 yillarda Toshkentdagi kanop seleksion stansiyalari ishlarida ishtirok etib, uzun tola bilan bir qatorda O'zbekistonda yetishtiriladigan kalta kanop tolasidan ham ip yigirish mumkinligini amaliy jihatdan isbotladi va **"FSMU" STRATEGIYASI**

Grafik organayzer talabalarda o'rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

№	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1.	O'zingga ravo ko'rmaganni birovga ham ravo ko'rma				
2.	Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa - birovga				
3.	Shirin oshing bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin				

Izoh: shartli belgilar quyidagi mazmunni anglatadi:

F - Fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi biron sabab ko'rsating;

M – ko'rsatilgan sababning asosli ekanligini isbotlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring;

REFERAT uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

• Buyuk Ipak yo'li va uning insoniyat tarixidagi o'rni.
• To'maris va Shiroq haqidagi afsonalar.
• Qomusiy olim Al Xorazmiy.
• Ahmad al Farg'oniy va uning merosi.
• Abu Nasr Forobiy va uning buyuk asarlari.
• Ibn Sinoning "Tib qonunlari"
• "Temur tuzuklari"
• Mirzo Ulug'bek – olim va davlat arbobi
• Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi
• Jadidchilik harakati namoyandalari
• Birlashgan Millatlar Tashkiloti
• Milliy madaniy markazlar
• O'zbekiston muzeylari
• Dunyoning mashhur universitetlari
• Terrorizm va uning insoniyatga tahdidi
• Shanxay hamkorlik tashkilotining faoliyati
17.O'zbekiston Respublikasining hukumat portali

Buyuk Ipak yo'li va uning insoniyat tarixidagi o'rni.
• To'maris va Shiroq haqidagi afsonalar.
• Qomusiy olim Al Xorazmiy.
• Ahmad al Farg'oniy va uning merosi.
• Abu Nasr Forobiy va uning buyuk asarlari.
• Ibn Sinoning "Tib qonunlari"
• "Temur tuzuklari"
• Mirzo Ulug'bek – olim va davlat arbobi
• Alisher Navoiy – o'zbek adabiy tilining asoschisi
• Jadidchilik harakati namoyandalari
• Birlashgan Millatlar Tashkiloti
• Milliy madaniy markazlar
• O'zbekiston muzeylari
• Dunyoning mashhur universitetlari
• Terrorizm va uning insoniyatga tahdidi

13-MAVZU Ilm sari yo'l. Taqrizmatni, tuzilishi va ifoda. Materialining xususiyatlari

KITOB-ILMGA YO'L

Kitob – axborotlar,g'oya,obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish vositasidir. Halqaro miqyosda YUNESKO tavsiyasiga ko'ra 3 bosma taboqdan ortiq ,ya'ni, 48 saxifadan kam bo'lmagan bosma asarni shartli ravishda kitob deb qabul qilingan.

Kitob siyosiy va mafkuraviy kurashning muhim qurolidir,u ijtimoiy ong mahsuli sifatida sinfiy va partiyaviy xarakterga egadir.

A.Navoiy : "Olamda kitobdan aziz do'st yo'qdir", "Kitoblar inson tafakkuri javohirlarini yig'ib avlodlarga meros qoldiradi", "Kitob g'oyat,g'oyat katta kuchdir" ;

Oybek : "Xalqning qay darajada madaniyatli ekanligini mamlakatda nashr etilayotgan kitoblarning miqdori bilan o'lchanadi";

Kitob ishi – bu kitobni yaratish,tayyorlash,tarqatish,saqlash va o'rganish bilan bog'liq katta jaryonni o'z ichiga oladi.Kitobni ko'plab chiqarishni paleografiya sanoati amalga oshiradi.

Kitobning paydo bo'lish tarixi Yozuvning yaratilish va shakllanishi jaryoni bilan uzviy bog'liqdir. Yozuvning tuzilish xususiyatlari va materiali kitboning tuzilishini belgilab beradi. Qadimgi Misr , Rim , Yunoniston va O'rta Osiyoda dastlab insonlar tosh , palma darahti barglari , sopol boshqa materiallarga yozishgan, shuning uchun ham qadimgi kitoblar bir necha kilogrammdan iborat bo'lgan. Mil.avv. Dastlab papirusdan, mil.avv.II – asrga kelib pergamentdan foydalanish boshlandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda "Avesto" kitobi ham pergamentga yozilgan.

Arablarning O'rta Osiyoga bosqiniga qadar kitoblar kutubxonalarda saqlangan, halifa Usmon tomonidan pergamentga yozilgan *"Qur'oni Karim"* 681 yili yozilgan bo'lib, hozirgi kunda u Oybek nomli O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda.

Qog'ozning kashf qilinishi kitob rivojlanishida yangi davrni ochdi. Qo'lyozma kitoblar odamlarni kitobga bo'lgan ehtiyojini qondira olmadi, qog'ozning kashf qilinishi kitobning ko'payishiga, tarqalishiga, turli rasmlar, xoshiyalar bilan kitob chiqarish imkonini berdi, hattotlik, muqavasoqlik kasblari shakllandi.

XV – asrning 40 – yillarida Germaniyalik Iogann Gutenberg zamonaviy kitob bosish san'atini ixtiro qildi, u dastlab yog'ochdan keyinchalik metaldan harakatlanadigan harflarni tayyorlab, qog'ozning ikki tomoniga kitob bosishni kashf qildi.

1465 yili Italiyada, 1468 yili CHexoslovakiya va SHveytsariyada, 1470 yili Frantsiyada, 1473 yili Polsha va Vengriyada, 1477 yili Angliyada kitob bosish keng tarqaldi. XVIII – XIX asrlarda bosmaxona, badiiy bezak sohalari alohida kasb sifatida shakllandi. 1798 yilda Litografiya, ya'ni, Toshbosma ixtiro qilindi, endi kitoblarni rasmi hamda turli bezakli qilishi mkoniyati yaratildi.

Pergament – maxsus ishlov berilgan mol teri bo'lib, qadimda xat yozish uchun ishlatilgan, birinchi bo'lib Pergam shahrida (Kichik Osiyodagi qadimiy shahar - Pergam shahri nomidan olingan bo'lib, hozirgi kunda Bergama nomi bilan ataladi) xat yozishda papirus o'rniga pergamentdan foydalanilgan. Pergam shahri kutubxonasida pergament qo'lyozma kitoblar ko'pligi jihatidan Misr (uzoq Aleksandriya) kutubxonasidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi.

Qog'oz – o'simlik tolasidan tayyorlanadigan maxsulot bo'lib, ermisning II – asrida Xitoyda ixtiro qilinganligi haqida ma'lumotlar mavjud. VI – VIII asrlarda O'rta Osiyo, Koreya, Yaponiya, Hindistonga, VIII – XI asrlarda Arab halifaligiga, XI - XII asrlarda Evropaga keng tarqalgan. Xitoylik CHay Lun degan kishi qog'oz tayyorlashda eng murakkab usullardan foydalangan. Xitoyda qog'oz tayyorlash uchun bambuk va ipakli daraxtlardan foydalanilgan.

Qalam – turkcha “qara” va “tash” so'zidan olingan bo'lib, ko'mirning bo'lagi yoki grafit (qalam qattiq siyoh) ga aytiladi. Ko'mirning yozish xususiyati borligi insoniyatga olovdan foydalanish boshlanganidan ma'lum. XIV – asrdan boshlab Italiyaliklar qalami keng tarqalgan. Qalam ichdagi qattiq siyoh shaklidagi qalam XVI – asrdan boshlab uchraydi. Qalam ichiga quyib ishlatiladigan grafit (qora mineral) xom ashyosi 1565 yilda Britaniyaning Kamberlend grafligida, Ispaniyadan keyinchalik Sbirdan topilgan.

Birinchi bo'lib yog'ochdan qilingan qalam 1790 yilda Frantsuz olimi N.Kante (1755 – 1805 y.y.) tomonidan ixtiro qilingan. Bir vaqtning o'zida Chex olimi Gartmut birinchi bo'lib grafit va loy tuproqdan o'zgaruvchan Yozuv vositasi ishlab chiqarishni taklif etgan, shu taklif asosida XVIII – asrda Lomonosov grafitli qalam ixtiro qilgan.

Qalam ishlab chiqarish uchun 3 protsess : qalamning asosi, qalam taxtachalari va qalam ishlab chiqarishdan iborat.

ALISHER NAVOIY NOMLI KUTUBXONA.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi O'rta Osiyodagi eng yirik va boy kutubxonalardan biridir. U 1870-yilda ochilgan. O'sha vaqtda uning fondida 2000 ta kitob va jurnallar bor bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda kutubxona

fondida 70tildagi 4,5 million tom kitoblar mavjud. Kutubxonaga har yili 250 mingdan *ortiq* nashrlar kelib tushadi. Bu yerda bebaho madaniy boyliklar saqlanadi, xususan kutubxonada XV-XVII asrlarda nashr qilingan tarix, jug'rofiya, harbiy ishlarga oid nodir kitoblar, O'rta Osiyo va O'zbekiston haqidagi adabiy asarlar to'plangan. Qadimgi va nodir kitoblar bo'limida Fyodorovning "Apostol", Petr I buyrug'iga asosan tuzilgan I.F. Magnitslriyning "Arifmetika"(1703-y.), M.V. Lomonosovmng "Rossiya grammatikasi" asarlari saqlanadi.

Kutubxonaning kitoblar fondidan har yili 20 mingdan ortiq kitobxonlar foydalanadilar.

Kutubxona roppa-rosa soat 10 da ochiladi. Dastlabki kitobxonlar o'z o'quv chiptalarini ko'rsatgan holda navbatchidan nazorat qog'ozlarini olib umumiy zalga yo'l oladilar. Bir vaqtning o'zida ilmiy, o'smirlar, periodik, xorjjiy adabiyotlar zallari, qo'lyozmalar, nodir kitoblar bo'limlari hamda mikrofilmlar zali ish boshlaydi.

Kutubxonaga har kuni yuzlab kitoblar, jurnallar, broshura, gazeta va jadvallar keltiriladi.

Kataloglar bo'limida 70 tilda yozilgan kitoblarning nomi yozilgan kartochkalar yig'ilgandir. Ularda kitoblarning muallifi, nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili hamda betlar miqdori ko'rsatilgan. Ba'zi o'rinlarda kartochkadajritobning qisqacha mazmuni, ya'ni annotatiya ham berilgan. Katalogda kartochkalar turli sohalar: falsafa, iqtisod, matematika, fizika, kimyo, texnika, badiiy adabiyot bo'yicha ajratilgan holdadir. Biror kitob bo'yicha buyurtma berish uchun katalogdan shu kitobning shifrini topish kifoya qiladi. Kutubxona o'z ishini kechqurungi soat 10 da tamom qiladi. Kitobxonlar o'z kitoblarini topshirib, uylariga ketadilar. Sizchi, aziz talaba, ushbu kutubxonaga a'zo bo'ldingizmi? Bo'lmasa, bugunoq a'zo bo'lishga shoshiling!

Taqriz (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiyommabop asar taxlili. T.da asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviybadiiy xususiyatlari, muallif ijotsida, adabiyotda tutgan o'rni xaqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. T. asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko'maklashadi. Ichki T. ham bo'ladi. Mac, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiyommabop asar ichki T.ga beriladi, biroq, bu T. matbuotda e'lon qilinmaydi. Rus tanqidchiligi tarixida T.ning rivojida V.G. Belinskiyning roli katta. U T.ni haqiqiy san'at darajasiga ko'tardi. T. badiiy asar haqida shunchaki ma'lumot beruvchi janr darajasidan adabiy hayotning muhim masalalarini ko'taruvchi, kitobxonni hayot va adabiyot haqida o'ylashga o'rgatuvchi, uning estetik didini tarbiyalashga yordam beruvchi janrga aylanadi. T. xarakteriga ko'ra xilmaxil bo'ladi. Mac, kengaytirilgan annotatsiya tipidagi T.da asar haqida bibliografik ma'lumot beriladi. Tanqidiy yoki publitsistik maketa T. larida konkret asar munosabati bilan biron muhim masala haqida fikr yuritiladi. Esse (adabiy o'ylar) xarakteridagi T.da taqrizchi o'z fikrtuyg'ularini, asarni o'qish jarayonida hosil bo'lgan taassurotlarini lirik tarzda ifodalaydi. Nihoyat, muallif o'z asariga

ham T. yozishi mumkin (avtotaqriz). Bunda muallifning asarga qarashlari bayon qilinadi yoki u biron munosabat bilan munozaraga kirishadi.

O'zbek adabiyotida T. 20-a. boshlarida vaqtli matbuot bilan teng rivojlana boshlagan. Endilikda T. o'zbek adabiy tanqidchiligining eng muhim janrlaridan bo'lib qoldi. Oybek, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, G'afur G'ulom kabi yozuvchilar, O.Hoshimov, S.Husayn, Olim Sharafiddinov, V.Zohidov, I.Sultonov, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, U.Normatov, N. Xudoyberganov, I.Haqqulov va boshqa olimlar o'zbek adabiy hayotida chuqur iz qoldirgan T.lar yaratdilar

4-topshiriq. B\B\B jadvalini to'ldiring.

Matnni belgilash tizimi

(v) - Bilaman (-) - Bilishni xohlayman (+) - Bilib oldim Tushunchalar	V	-	+
Sodda gap			
Bir bosh bolakli gap			
Ikki bosh bolakli gap			
Qoshma gap			

14-MAVZU. Kasb etikasi. Annotatsiya matni, tuzilishi, ifoda materialining xususiyatlari.

Kasb etikasi deganda biz nimani tushunamiz? Kasb etikasi nima uchun kerak va u qanday maqsadlarda o'rganiladi?

Etika bo'yicha izohli lug'atda ushbu tushuncha ma'nosi quyidagicha:

“Kasb etikasi yoki kasbiy axloq –bu odamlarning kasb faoliyatidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarning axloqiy xarakterini ta'minlaydigan qonuniyatlardir”.

Bunday qonuniyatlarning kelib chiqishi va rivojlanishi inson axloqi yo'nalishlaridan birini aks ettiradi, chunki ular shaxs qadrini va shaxslararo munosabatlarda odamiylikning yuzaga kelishiga yordam beradi.

Axloqiy talablar umumiy bo'lishiga qaramay, ba'zi bir kasbiy faoliyatlarni olib borishda alohida xulq-atvor normalari vujudga kelmoqda.

Masalan, tibbiyot xodimi o'z amaliyotidagi qiyinchiliklarga qaramasdan, insonning jismoniy va ma'naviy sog'lig'I uchun kurashishi va kerak bo'lsa, bunda o'zini ham ayamasligi lozim.

Tibbiyot etikasi doirasiga kasallikni oshkora qilmaslik, hayot uchun muhim bo'lgan organlarni transplantatsiya qilish sharoitlarini ta'minlash, genetic nazorat tajribalarini o'tkazish kabi masalalar kiradi.

Huquq vakillaridan kasb etikasida sodiqlik, hammaning qonun oldida teng ekanligi tamoyiligi rioya qilishni talab qiladi.

Xizmat ko'rsatish sohasida esa, avvalambor, muomala madaniyati, mijozlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan diqqat-e'tiborga bog'liqdir.

Hammamiz mijoz sifatida kichik do'kon yoki supermarket, qimmatbaho restoran yoki kichik kafe, kinoteatr yoki sataroshxonalarga kirib turamiz. Va xizmat qiluvchi shaxslarning qanday munosabatda bo'lishlarini, nozik bir tarzda sezib turamiz. Bir joyda savdo xodimi kulib turib muomala qilsa, boshqa joyda uning qo'pollik bilan javob berishining guvohi bo'lamiz.

G'arb tadbirkorlarining muvaffaqiyatlari quyidagi formulaga asoslangan:

Vijdon haqida gapirganda, har bir xizmat ko'rsatuvchi soha xodimi quyidagi axloqiy qadriyatlarga ega bo'lishi lozim:

-to'g'rilik, nazokat, vazminlik;

-xushmuomalalik, xushfe'llik;

-Itifoq;

-g'amxo'rlik;

-rostgo'ylik, to'g'rilik va h.k.

To'g'rilik-odamlar bilan odob-axloq asosiga qurilgan munosabatni, xushfe'llikni, to'g'rilik esa har qanday vaziyatda o'zini tuta bilishni anglatadi.

Xushmuomalalik- xulq-atvorning kundalik xususiyati bo'lib, odamlarni hurmat qilishni anglatuvchi axloqiy qadriyatdir.

Xushmuomalalik-bu xulq madaniyatining elementar talabi, odamlar bilan mehr-oqibat asosida qurilgan muloqotning sharti, har qanday kishiga, agar u yordamga muhtoj bo'lsa, yordam qo'lini cho'zish, nazokat doirasida ko'zga tashlanadigan xislatlardir.

Xushmuomalalik- mehmonxona xodimlarining madaniyatligi haqida dalolat beradigan eng muhim xislatlardan biridir.

Kamtarlik- yutuqlarini pesh qilmaslik, manmanlikdan xoli bo'lish, vazminlikni bildiradigan sifatdir. Shu bilan birga, o'ta kamtarlik ham manmanlikka kiradi. Iste'dodli odam o'z iste'dodini yashirsa ham, iste'dodi ko'rinib turadi. Kamtarlik tortinchoqlik degani emas. Tortinchoq odam o'zini yetarli darajada baholay olmaydi. Bunday odamlarni tez-tez maqtab turish, ularga dadillik beradi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Bu va boshqa axloqiy sifatlar odamlar bilan bo'lgan munosabatlaringizning azloqiy xarakterini shakllantirishi va ish joyingizdagi xatti-harakatlaringizni aniqlab berishi lozim. Kasbiy etikaning asosiy maqsadi shundan iborat.

Ishbilarmon odamlarning etik tamoyillari va me'yorlari

Etiket-ishbilarmonlik sohasida, odamlarning bir-birini yaxshi tushunishlari uchun muhimdir. Etiket "imidi" ning shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ko'p mamlakatlarda firmaning qanaqaligini unga qo'ng'iroq qilib xodimi bilan gaplashish orqali bilishi mumkin. Bu qonuniyat nafaqat firmada, balki ko'p joylarda kuzatiladi. Qayerda etiket bo'lsa, shu yerda mehnat unumdorligi yuqori, faoliyat natijalari yuksak bo'ladi.

Shuning uchun ham eng muhim qoidalardan biri:

Ishbilarmonlik etiketi- tadbirkorning axloqiy-kasbiy xulqning muhim tomonidir. Ko'p tadbirkorlarimiz chet ellik firmalar bilan ish bilarmonlik etiketini yaxshi bilmaganlari tufayli aloqa o'rnatmaydilar.

Ishbilarmonlik munosabatlari amaliyotida har doim qandaydir standart vaziyatlarda uchraydi, ulardan qutilib chiqib ketish juda mushkuldir. Bu vaziyatlar uchun xulq usullari va shakllari ishlab chiqiladi. Qoidalar majmuasi esa ishbilarmonlik etiketini yaratadi.

Madaniyatli otadbirkor- vazirni ham, kompania prezidentini ham, oddiy farroshni ham bir xil ravishda hurmat qilishi shart. Bu samimiy hurmat inson tabiatining asosiy qismiga aylanishi kerak. Axloqiy xulq asosida quyidagi axloqiy baho yotish kerak: ish bilarmon hamkor-yaxshi odam.

Ishbilarmonlik etiketi mijozlar bilan bo'lgan muloqotda maxsus xulqni talab qiladi. Mijozlarga ko'rsatilayotgan har qanday xizmat turidan xulqqa oid kasbiy nozik alomatlar bor. Eng muhim tamoyil: mijoz-ofisning eng qadrdon va kutilgan mehmonidir.

Ishbilarmonlik doirasida obro'-e'tibor katta ahamiyatga ega. Yaxshi obro' qozonish juda qiyin, lekin uni yo'qotish juda ham oson. Obro' qozonishda hamma narssa muhim: nutq madaniyati, kiyinish, xulq-atvor, ofis interyeri va h.k. Bundan har bir o'zini hurmat qiladigan kompaniya uchun etikaning asosiy qoidasi kelib chiqadi.

Shuning uchun ham har bir zamonaviy tadbirkor faoliyatining asosiy tamoyillari yana biri bu: Tavakkal qila bilish va omadga ishonish, qarorlar qabul qilishda ma'suliyatdan qo'rqmay o'z zimmasiga olish.

Muomala madaniyati

Odamlar bilan muomala qilish sana'ti ham har bir kishidan katta mahoratni talab qiladi. Har qanday lavozimga nomzod deb qaralayotgan odamdanda bunday fazilat bo'lishi va bu fazilat har qanday sharoitda namoyon bo'ishi maqsadga muvofiqdir. Siz mehmonxonada, restoranda, kutubxonada yoki laboratoriyada ishlashingizdan qat'iy nazar, eng muhimi-o'z fikringizni aniq va ravshan ifoda eta olishingizdir. Bu esa sizning muvaffaqiyatingizga zamin yaratadi.

Har bir odam o'z fikrini og'zaki yoki yozma ravishda ifodalay bilishi lozim. Sizning o'z individualingizni saqlab qolishga intilishingiz va o'zingiz tanlab olgan hamkorlaringiz bilan ishlashni xohlashingiz-sizning "jamoaning yaxshi o'yinchisiga" aylanishingizga olib keladi. Nomzodning bo'lajak lavozimga ishgaga o'tish maqsadida suhbatda ishtirok etishining samaradorligi uning kommunikativligi va shaxslararo muomala qilish qobiliyatlarining rivojlanganligiga bog'liqdir.

Masalan, agar suhbat mobaaynida ish beruvchining ko'zlariga qarashga tortinsangiz, u sizni o'ziga ishonmaydigan odam deb o'ylaydi. Muloqotlarda oassiv emas, balki faol qatnashuvchi bo'lishga intiling va savol-javob qilishni o'rganing. Shu sabab bilan siz ritorika usullarini, imo ishoralarva mimikalar yordamida suhbatlashishni o'rganing, suhbat davomida o'zingizni tutib turishni, xulqingiz yaxshi bo'lishini ta'minlang shunda siz qay ishda bo'lmang, qay lavozimni egallamang, sizga doim muvaffaqiyatlar hamroh bo'ladi.

Annotatsiya - badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqaxabardir. Annotatsiya o'zining kamso'zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa

turlaridan ajralib turadi. Batafsil yozilgan annotatsiya quyidagi savollarga javob bera olishi lozim.

Ishda nima haqda soʻz boradi?
Muallif qanday savollarni oʻrtaga qoʻyadi?
Bu savollar qanday yoritib berilgan?
Ishning tuzilishi qanday?
Ishni qanday baholash mumkin?
Yozilgan ish kimlarga moʻljallangan? v.h.

topshiriq. “Zakovat oʻyini”.

Oltita ta kichik guruhga boʻlining. 1-bosqichda eng yaxshi savol-javob tanlanadi (1 daqiqa beriladi). Bunda 5 savol-javob ichidan 6 tasi tanlab olinib, stolga qoʻyiladi. 2-bosqichda har bir guruh vakili oʻzi tanlagan savolni oʻqib, qoʻyilgan savolga javob berishni taklif qiladi. Soʻngra auditoriyada muhokama qilish boshlanadi. Hamma guruhlar javobini aytib boʻlgach, savol tayyorlagan guruh vakili javobni oʻqib eshittiradi.

Berilgan javoblarga koʻra talabalar va kichik guruhga ball beriladi. Navbat keyingi guruh vakiliga beriladi.

15-mavzu: Nutq odobi. Meʼyor tushunchasi.

1. Matnni mustaqil ravishda oʻqib, tarjima qiling. Nutq madaniyati (Культураречи)

Yuqori malakali mutaxassis yuqori darajada nutq madaniyatiga, muomala madaniyatiga ega boʻlishi kerak. Nutq madaniyati nima? Nutq toʻgʻri, aniq va yoqimli boʻlishi lozim. Nutq qanchalik toʻgʻri va aniq boʻlsa, u shunchalik tushunarli boʻladi, nutq qanchalik yoqimli va ifodali boʻlsa, u tinglovchiga shunchalik kuchli taʼsir etadi.

Nutq madaniyati deganda mantiqiy izchillikka va adabiy til normalariga rioya qilgan holda toʻgʻri, aniq va yoqimli soʻzlash uchun til boyliklaridan mazmunga mos zarur soʻzni tanlay olish, soʻzni oʻrin-siz takrorlamaslik, uslub birligini saqlash, nutqning taʼsirchan boʻlishini taʼminlash lozim. Nutqda mantiqiy izchillikka va adabiy til meʼyorlariga rioya qilish kerak. Ogʻzaki nutqda orfoepiya, yaʼni talaffuzga, yozma nutqda esa imlo qoidalariga rioya qilish maqsadga muvofiq.

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. Oʻrta Osiyoda axloqiy tarbiya oʻz anʼanalariga ega. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan. Nutq odobi deganda aytilishi zarur boʻlgan xabarlarini, tinglovchini hurmat qilgan holda, adabiy normadagi ifodalar bilan yetkazish tushuniladi.

Nutqiy muomala sa-lomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan ke-yingi yaxshi suhbatga debocha boʻladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz boʻlsa, keyingi suhbatga salbiy taʼsir etishi mumkin. Odatiy anʼanalarimizga koʻra, «Assalomu

alaykum»ning javobi «Vaalaykum assalom»dan iborat. Yetuk kishilarga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir.

Tilimizda xayrlashganda ish-latiladigan «xayr, sog' bo'ling», «xayr, ko'rishguncha», «xayr, omonlikda ko'rishaylik» kabi ta'sirchan iboralar mavjud. Ulardan o'rinli foydalana bilish lozim. Madaniyatli kishilar o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rash o'z g'ururini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir.

3. Vaziyatli o'yin o'tkazing.

O'yinning borishi. Guruh ikki jamoaga bo'linadi. Ularga bir xil varaqalar beriladi: quyidagi vaziyatlarni muhokama qilish, o'z fikrini aytish, uni asoslab berish. Har bir jamoadan 3 tadan talaba javob beradi. O'yin oxirida o'qituvchi har bir jamoaning javoblariga baho beradi.

1-varaqa

Darsga kechikyapsiz. Bekatda siz va og'ir sumkali keksa bir ayol turibdi. Nihoyat, tiqilinch avtobus keldi. Bunday vaziyatda siz nima qilasiz?

2-varaqa

Divanda televizor ko'rib yotibsiz. Qiziqarli film bo'lyapti. Endigina ishdan kelgan dadangiz xonaga kirdilar. Bunday vaziyatda siz nima qilasiz?

3-varaqa

O'qishdan keldingiz. Qorningiz juda och. Oilaovqatlanishgao'tirgan. Oyingiz dasturxonga laganda palov keltirib qo'ydilar. Shu payt dadangizga kimdirqo'ng'iroqqilibqoldi. Bunday vaziyatda siz nima qilasiz?

INSON ODOBI BILAN

Muomala - inson qalbining ko'zgusi. Kishining yaxshi tarbiya ko'rgan-ko'rmaganligi uning boshqalarga qilgan muomalasida aks etadi. Xalqimiz tilida sayqallangan “O'zingga ravo ko'rmaganni birovga ham ravo ko'rma”, “Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa - birovga” kabi maqollarda odamlar bilan muomalada odobli, xushmuomala bo'lishga da'vat etiladi. Xo'sh, xushmuomalalik deganda nima tushuniladi? Avvalo, shirinso'zlik tushuniladi. “Shirin so'z shakardan shirin”, “Shirin oshing bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin” deydi dono xalqimiz.

Shirinso'zlik birovga murojaat qilganda, gapni “Iltimos, ...”, “Agar malol kelmasa, ...” kabi iboralar bilan boshlashni taqozo qiladi. Bu bilan murojaat qilinayotgan kishiga hurmat ko'rsatiladi. Katta-kichikni sizlab gapirish, qariyalarga “Otaxon...”, do'st-birodarlarga yoshiga qarab “akajon, opajon, Abrorjon..., Lobarxon” deb murojaat qilish ham shirinso'zlik, ham ularning hurmatini o'rniga qo'yish bo'ladi. Ochiq chehralik - biror kishi sizga iltimos bilan murojaat qilganda,

kayfiyatingiz yomonligini, vaqtingiz ziqligini sezdirmay, darhol chehrangizni ochib, uni iltifot bilan tinglash, kerakli javobni samimiy izhor eta bilishdir.

Yoshlikdan odobsiz bo'lib o'sgan, qo'pol kishi ham astoydil istasa, bu kamchiligini tuzatishi mumkin. Chunki axloqsizlik, andishasizlik - insonga xos sifatlar emas.

Lug'at

odob	–	воспитанность	qo'pol	–	грубый
xushmuomala	–	вежливый	taqozo qilmoq	–	предполагать
ko'zgu	–	зеркало	chehra	–	лик, образ
sayqallamoq	–	шлифовать	iltifot	–	любезность
ravo ko'rmoq	–	считать допустимым	samimiy	–	искренний
axloqsiz	–	безнравственный	andishasiz	–	Безрассудный

“FSMU” STRATEGIYASI

Grafikorganayzertalabalardao'rganilayotganmavzuyuzasidanfikrlarnimustaqilb ayonetish, shaxsiymulohazalarnidalillash (misollarbilanasoslash), bahslashishqobiliyatinishakllantirishgaxizmatqiladi.

Talabalarga quyidagi sxema bilan ishlash tavsiya etiladi:

№	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1.	O'zingga ravo ko'rmaganni birovga ham ravo ko'rma				
2.	Pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa - birovga				
3.	Shirin oshing bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin				

Izoh: shartli belgilar quyidagi mazmunni anglatadi:

F - Fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi biron sabab ko'rsating;

M – ko'rsatilgan sababning asosli ekanligini isbotlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring;

Mashg'ulotlarda grafik organayzerni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

2. Savollarga javob bering.

1. O'zbeklarda odob haqida qanday maqollar bor?
2. Odoblilikning qanaqa belgilarini bilasiz?
3. Katta-kichikka qanday murojaat qilish kerak?
4. Ko'chada, transportda bolalarning odobsizlik qilayotganiga guvoh bo'lganmisiz? Bu haqda gapirib bering.

5. Gaplarning mazmuni qanday o'zgarganini ayting.

1. Kecha biz kitoblar ko'rgazmasiga bordik. - Biz kitoblar ko'rgazmasiga kecha bordik. - Kitoblar ko'rgazmasiga kecha biz bordik. - Bordik biz kecha kitoblar ko'rgazmasiga.

2. Endi sen o'zing uchun javob berishni o'rgan. – O'rgan endi sen o'zing uchun javob berishni. - O'zing uchun javob berishni endi sen o'rgan.

6. Savollar asosida do'stlaringiz bilan suhbatlashing.

1. O'zbek xalqining qanday urf-odatlarini sizga yoqadi? Nima uchun?
2. Hasharga borish odati haqida gapirib bering.
3. Qo'shnilar taom chiqarish odati to'g'risida nimalarni bilasiz?
4. Qaysi bayramlarimiz sizga yoqadi? Nimaga?
5. O'zbek to'ylarida bo'lganmisiz?
6. "Kelin salom" qachon va qanday o'tkaziladi?
7. Qachon keksa qarindoshlar va qo'shnilar holidan xabar olinadi?

16-MAVZU San'at va ma'naviyat

Umumxalq leksikasidagi san'atshunoslik terminlari. Kamoliddin Behzod Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirot shahrida tug'ildi. U ota-onadan juda erta yetim qoldi. Uni Husayn Boyqaroning kitobdori (kutubxonalar boshlig'i) Mirak Haqqosh o'z tarbiyasiga oladi. Kamoliddin rassomlik san'atiga qiziqadi, qobiliyati va iste'dodi bilan kishilarning e'tiborini jalb etadi. Ko'p o'tmay, ilm - fan, san'at va adabiyot ahllari orasidan o'ziga munosib o'rin oladi. Navoiy iste'dodli yosh rassomga alohida diqqat - e'tibor beradi, unga har tomonlama g'amxo'rlik qiladi. Behzod 1510-yilgacha Hirotida yashab, ijod qiladi. Keyin esa u Ozarbayjonga - Tabrizga boradi. U yerda poytaxt kutubxonasi va san'atkorlariga boshliq qilib tayinlanadi. Kamoliddin Behzod 1533 -1537-yillar o'rtasida vafot etadi.

Behzodning zamondoshlari hamda keyingi davrning olimlari uni "Sharq Rafaeli" deb nomlashgan. Behzod tasviriy san'atning ulug' namo-yandasi bo'lib, u rassomlikda "Hirot maktabi" deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi va ustoz san'atkor sifatida Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining taraqqiyo-tiga samarali ta'sir etdi.

Topshiriq: 1. Matnni o'qib undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor bering, reja tuzing.

2. Bizga zamondosh rassomlar haqida so'zlang.

Musiqasi san'ati tarixidan

Markaziy Osiyoda IX - XII asrlarda me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik san'ati bilan birgalikda musiqa san'ati ham taraqqiy etdi. Bu-yuk allomalar Forobiy, Ibn Sino, Rudakiy va boshqalar musiqaga katta e'tibor berdilar. Ibn Sino musiqaga doir mulohazalarni "Kitob ush-shifo" asariga alohida bob sifatida kiritgan. Ibn Sino musiqaning estetik aha-miyati va ta'sir kuchiga shunchalik e'tibor berar ediki, u ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin degan fikrni ilgari surgan edi.

Dunyo adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Abu Abdullo Rudakiy ud va chang yordamida xalq qo'shiqlarini kuyga solib, mohirlik bilan ijro etar edi.

- Topshiriq: 1. Matnni o'qing va savollar tuzing. Savollar asosida so'z-lang. Undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor bering
2. Quydagi so'zlarni tarjima qiling: muhim, ijodiy, qobiliyat, san'at-ning manbayi, tasviriy san'at, namoyanda, chang, mohir.

17-MAVZU. Men sevgan asar. Badiiy tasvir vositalari

Badiiy tasvir vositalari va ularni adabiyot darslarida qo'llash

Har bir ijodkor qalam tebratar ekan badiiy ifodani mazmunan quyuqlashtirish, uni his-hayajonlarga yo'g'irish uchun so'z salohiyatiga tayanadi. Har bir so'z shakl-shamoyili, rang-bo'yog'i, o'z salmog'i va ohangiga ega. Har bir ijodkor oddiy so'zlovchidan so'z sohibiga, undan esa so'z san'atkoriga ko'tarilishi uchun «so'z sezgisi», «so'z jozibasini», «so'z sehri» kabi bosqichlarni egallashi lozim. Shoir qalam tebratar ekan uning ixtiyorida bir necha vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlardir.

She'riy san'atlar yillar mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib, «ilmi bade'» nomini olgan badiiylik ilmining asoslaridir. Ular asar jozibasini ko'rsatish va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchilar tasviriy vositalar yordamida o'zlari tasvirlayotgan narsa hodisalarning ba'zi bir tomonlarini, yoki belgisini aniq va qisqa xarakterlab berishga erishadilar. Yozuvchi har bir hodisani aks ettirganda, uning muayyan sharoitda muhim hisoblangan sifatini ajratib ko'rsatadi. Shuning uchun ularni o'quvchilarga o'rgatishda yangicha yondashuv, o'zgacha usul va shakllarga murojaat qilish kerak. She'riy san'atlar o'quvchilar o'zlashtirgan til birliklari, kundalik hayotda uchraydiga yaqin va tanish tushunchalar orqali singdirilsa, mashg'ulotlar jonli kechadi. Bolalar so'zning matnda bajaradigan estetik vazifasini his etadilar. Masalan, tazod san'ati tushuntirilganda rangli qog'ozlardan foydalanish mumkin. Oq rangli qog'oz yoniga sariq, moviy va qora rangli qog'ozlarni qo'yib, oq qaysi rangni oldida ko'proq ajralib turganligi so'raladi. O'quvchilar bu qora rang ekanligini bir qarashdayoq anglaydilar. Oq va qora ranglar yonma-yon turganda bir-birini yorqinroq ko'rinishi va ifodalanishiga xizmat qiladi. Bu xulosa aytilgach, o'quvchilardan hayotda shu ranglar kabi bir-birini bo'rttirishga xizmat qiladigan holat, tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar, masalan, yaxshi-yomon, zulm-adolat, boy-kambag'al kabi so'zlar keltiriladi. Bu so'zlar tilda antonim — zid ma'noli so'zlar deyilsa, adabiyotda tazod deb ifodalanishi aytiladi va ta'rifi misollar bilan yozdirib qo'yiladi.

Tazod arabcha so'z bo'lib, qarshilantirish usulining klassik adabiyotda qo'llangan bir ko'rinishi. Tazodda qarama-qarshi qo'yilgan ikki tomon ayni zamonda uzviy ravishda bir-biriga bog'lanib keladi. Qarshilantirilayotgan narsa, belgi-xususiyat va holatni yorqin va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi:

Sendek menga bir yori jafokor topilmas,

Mendek senga bir zori vafodor topilmas. (Bobur)

Badiiy adabiyotda keng qo'llaniladigan tasviriy-ifodaviy vositalardan biri o'xshatishdir. Yozuvchilar muayyan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilari haqida kitobxon ongida aniq tasavvur hosil qilish maqsadida uni qandaydir boshqa, tanishroq narsa-hodisaga yohud uning belgilariga o'xshatadilar. Mumtoz adabiyotda o'xshatish tashbih deb ham yuritilgan. O'xshatish tasvirlanayotgan narsa-hodisa yoki uning asosiy belgilarini yorqinroq, aniqroq qilib ko'rsatishga xizmat qiladi. O'quvchilarga Hamid Olimjonning «Zaynab va Omon» asarini o'tish jarayonida unda yozuvchi bir necha tasviriy vositalar, jumladan, o'xshatishlardan o'rinli fodalanganligini aytish lozim. Masalan: Qushday yengil uchar edilar,

Oq bulutday ko'char edilar.

O'xshatishlardan ketma-ket foydalanilsa, tashbihi musalsal deb ataladi. «Zaynab va Omon» da tashbihi musalsal bir necha o'rinlarda uchraydi:

Daryo tinmay solardi shovqin,

Qiz ko'ziday qora edi tun.

Qiz qalbiday pok edi havo,

Qiz qalbiday sevgidan davo.

Maktab darsligida berilgan badiiy tasvir vositalarini o'quvchilarga tushuntirish uchun o'qituvchilar o'zlari yetarli ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Su maqsadda quyida asar jozibasini, jarangdorligini va ta'sirchanligini oshiradigan bir necha badiiylik ilmining asoslari haqidagi nazariy ma'lumotlarni misollar bilan keltiramiz: Allegoriya (lotincha allegoria — kinoya, qochiriq, kesatish) — biror mavhum tushunchani konkret narsa, hodisa orqali ifodalagan majoziy, ya'ni o'z ma'nosidan boshqa ma'noga ko'chirilgan so'z va iboralarining bir turi.

Masalan: «Tangriqulxo'ja ilonning yog'ini egan odam edi-da»(A.Qahhor). Bu parchadagi «ilonning yog'ini egan» gapi Tangriqulxo'janing hiylagarligiga kinoyadir.

Masal va ertaklarda tulki aldoqchi, bo'ri ochko'z, chayon zararli, ilon makkor kishilarga nisbatan kinoya qilinadi.

18-MAVZU Iqtisod va hayot. Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar.

Amir Temurning iqtisodiy siyosati iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida ulug' bobokalonimiz, sohib-qiron, buyuk sarkarda Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari, u ishlab chiqqan va amalda yuritgan iqtisodiy siyosat mislsiz ahamiyatga ega Temur iqtisodiy g'oyalarining o'ziga xos ulug'vorligi shundaki, ular xayoliy emas, balki aniq hayotdan kelib chiqqan va unda o'z ifodasini topgan.

Temurning iqtisodiy g'oyalari “Temur tuzuklari” asarida bayon etilgan. Unung iqtisodiy g'oyalari va siyosati zahirida inson, uning manfaat, farovon va tinch hayot kechirish tashvishlari yotadi. U odamlarga kasb-hunar berish, ish bilan

ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati va tijorat ishlari bi-lan mashg'ul bo'lish uchun yetarli sarmoya berish, yetarli uy-joylar qurib berish haqida qayg'uradi.

Sohibqironning iqtisodiy qarashlari va yuritgan yangicha iqtisodiy siyosat tarbiyani yo'lga qo'yish ishlarida biz uchun muhim dasturulamal tarixiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Bunday iqtisodiy qoidalar Garbdan 300-400 yil ilgari amal qilindi, hayotiy tajribadan o'tdi.

Iqtisod haqida.

Biz qurayotgan farovon demokratik fuqarolik jamiyati va o'tkazila-yotgan chuqur iqtisodiy islohotlar mustahkam

Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma'naviy boyliklarga va shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi. O'zbekiston misolida iqtisodiy mustaqillik umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat va jamiyat qurilishining xalqaro tajribalariga, milliy an'analariga, ijtimoiy qadriyatlariga asoslangan. Iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashning asosi - mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligi, uning bir maromda muvozanatni saqlagan holda rivojlanishidir. Iqtisodiy barqarorlashtirish - bozorni shakllantirish bo'yicha qonunlar bilan belgilangan muqarrar jarayon. U tanglik holatiga barham berishga qaratilgan. Bunda ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ishlab chiqarish munosabatla-ri darajasi o'rtasidagi muvofiqlikka iqtisodiy qonunlar orqali erishiladi. Bozorda talab bilan taklif o'rtasida qulay muvozanat yuzaga keladi. Jahon tajribasida iqtisodiy barqarorlashtirishning bir necha ko'rinishlari mavjud:1)- monetar yondoshuv bo'lib, u pulning qadrsizlanishi darajasini pasaytirib turishga, pul hajmini keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslangan. Bunday yondoshuv chuqur iqtisodiy qayta o'zgartirishlarni ta'minlamaydi, aksincha, ishlab chiqarishning moddiy hajmlari kamayishiga, investitsiya faoliyati to'htab qolishiga olib keladi; 2)- ishlab chiqarishni va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirib, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshiradi, iqtisodiy nomutanosibliklarga barham berishga asoslanib yondoshadi. O'zbekistonda iqtisodiyotni barqarorlashtirishning o'ziga hos yo'li tanlandi. Bu yo'l quyidagilardan iborat:

- makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash;
- tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash;
- ishlab chiqarishning barcha darajalarida davlat ta'sirini muvofiqlashtirish va yuksak mehnat intizomini ta'min etish;
- aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va himoya qilish;
- pulning qadrsizlanishini to'htatib qolish choralari ko'rish;
- davlat budjeti va korxonalar moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish imkoniyatini yaratish;
- to'lov balansi va davlat valyuta rezervlar holatini yaxshilash, so'mni ayirboshlash, so'm kursining barqarorligini ta'minlash.

Ichki imkoniyat, salohiyat va zahiralarimizning cheksiz boy va rang-barang ekanligini ko'zda tutib, davlatimiz iqtisodiy mustaqillik yo'lida muvaffaqiyatli odimlab bormoqda.

Topshiriq. 1. Matnni o'qing, savollar tuzing va so'zlab bering.

2. Quyidagi soʻz birikmalari va soʻzlarni tarjima qiling:

Tafakkur, sarkarda, hayot tashvishlari, tadbirkorlik faoliyati, manfaat, sarmoya berish, iqtisodiy qoida, gʻoya, mislsiz, dasturulamal.

Tayanch soʻz iboralar:

1. Ichki manba	12. Undirma
2. Tashqi manba	13. Tadbirkor
3. Semantik usul	14. Sarmoyador
4. Morfologik usul	15. Kafolatnoma
5. Sintaktik usul	16. Merosxoʻr
6. Koʻchma maʼno	17. Mulkchilik
7. Kreditning elastikligi	18. Ikki komponentli termin
8. Oʻrmonlovchi inflyatsiya	19. Er renta
9. Oltin qamal	20. Qarz tilxati
10. Qalqon kredit	21. Kreditning qaytarilishi
11. Moliyachi	

MAVZU BOʻYICHA TESTLAR

- Nuqtalar oʻrniga qaysi soʻzni qoʻyish kerak?
Navoiy 1441 yilda Hirot shahrida ...
 - yashadi
 - boʻlib qaytdi
 - tugʻildi
 - vafot etdi
- Navoiy qaysi asarida ozbek tili boy tillardan biri ekanligini asoslab bergan?
 - «Muhokamat-ul lugʻatayn»
 - «Xamsa»
 - «Chor devon»
 - «Hayrat-ul-abror»

3. Gapga qaysi iboralarni qoʻshish mumkin?

A.Navoiy asoschisi.

- A. oʻzbek tilining
- B. oʻzbek adabiy tilining
- C. urk adabiyoti-ning
- D. oʻzbek xalq ogʻzaki ijodining

4. Navoiyning asarlarini korsating

- A. «Farhod va Shirin», «Mirzo Ulugʻbek»
- B. «Xamsa», «Xazoyinul-maoniy», «Lison-ut tayr»
- C. «Ulugʻbek xazinasi», «Layli va Majnun»
- D. «Oltin devor», «Hayrat-ul abror»

5. Bobur qaysi shaharda vafot etgan?

- A. Dehli
- B. Andijon

- C. Agra
- D. Agraba

6. Bobur nechanchi yilda vatanidan chiqib ketdi?

- A. 1503
- B. 1501
- C. 1500
- D. 1506

7. Bobur necha yoshida Andijon taxtiga o'tirdi?

- A. 14
- B. 15
- C. 12
- D. 11

8. Nuqtalar o'rniga qaysi so'zlarni qo'yish mumkin?

Bobur ... yilda ... shahrida tug'ildi.

- 1485, Samarqand
- 1485, Andijon
- 1530, Agra
- 1483, Andijon

9. Badiiy uslubga xos so'zlarni ko'rsating.

- | | |
|------------------------------|-----------------------------------|
| A. kurtak, o'simlik, gulkosa | C. ma'qul, ajoyib, lazzatli |
| B. qaror, hujjat, shartnoma | D. ma'ruza, rivojlantirish, guruh |

10. Badiiy uslubga xos so'zlarni ko'rsating.

- | | |
|------------------------------|-----------------------------|
| A. kuch, mashg'ulot, ring | C. qaror, hujjat, shartnoma |
| B. dahshat, atrof, o'zbekona | D. kvadrat, sinus, burchak |

11. "Ziyoli" so'zining sinonimini toping.

- | | | | |
|--------------|----------|--------------|---------------|
| A. uddaburon | B. aqlli | C. farosatli | D. o'qimishli |
|--------------|----------|--------------|---------------|

12. Qaysi qatorda qushlar haqida so'z boryapti?

- | | |
|----------------|---------------------|
| A. ilm kaliti | C. qanotli do'stlar |
| B. po'lat qush | D. kumush qish |

2. "Lotinyozuviga asoslangano'zbekalifbosini joriy etish to'g'risida" gironunqacho nqabulqilingan?

- a) 1992-yil 3-mart
- b) 1989-yil 21-oktabr
- c) 1992-yil 2-sentabr
- d) 1995-yil 5-may

3. Turkiy o'zbek tilning rivojida kimning hissasi katta?

- a) Alisher Navoiy
- b) Amir Temur
- c) Ahmad Yassaviy
- d) Zaxiriddin Muxammad Bobur

4. Arab istilosigacha mavjud bo'lgan yozuvlardan foydalanish qachongacha qisman saqlangan?

- a) XX asrgacha
- b) XVI asrgacha
- c) VI asrgacha
- d) XV asrgacha

5. Zardushtiylik dinining 27 jilddan iborat muqaddas kitobi ... yozuvida bitilgan a) O'rxun-Enasoy

- b) Avesto
- c) Qadimgi Xorazm
- d) Qadimiy uyg'ur

6. Yunesko qarori bo'yicha butun dunyo bo'ylab "Avesto"ning 2700 yilligi qachon nishonlandi?

- a) 2001-yilda
- b) 2000-yilda
- c) 2005- yilda
- d) 1995- yilda

7. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlaridan to milodimizning VII asrigacha, ya'ni arablar istilosigacha, xalqimiz qaysi yozuvidan keng foydalangan?

- a) runik yozuvidan
- b) qadimiy uyg'ur yozuvidan
- c) avesto yozuvidan
- d) qadimgi Xorazm yozuvidan 278

8. "Devonu lug'atit turk" asarining muallifi kim?

- a) Mahmud Qoshg'ariy
- b) Yusuf Xos Hojib
- c) Ahmad Yugnakiy
- d) Alisher Navoiy

9. Yusuf Xos Hojib qaysi asarning muallifi?

- a) Qutadg'u bilig
- b) Hibbatul haqoyiq
- c) Devonu lug'atit turk
- d) Xamsa

10. O'zbek tili qaysi tillar oilasiga kiradi?

- a) oltoy tillar oilasining turkiy turkumiga
- b) hind-yevropa tillari oilasining eron turkumiga
- c) hind-yevropa tillari oilasining slavyan tillari turkumiga
- d) oltoy tillar oilasining eron turkumiga

• ***Quyidagi atamalarning qaysi biri sintaksisga tegishli?***

- orttirma nisbat
- modal so'z
- taqlid so'z
- bosh so'z

• ***Sintaksis nimalarni o'rganadi?***

- So'zlarning bir-biriga bog'lanishini
- gap va uning turlarini
- so'zbiikmasini

• ***tsosft (hokim) so'z ot bilan ifodalangan so'z birikmalarini toping.***

- Navro 'z bayrami, o'rik hidi, qattiq aziyat
- bahoriy kayflyat, oydan ham go'zal, yosh ijodkorlar
- ishga shoshilmoq, bayram fayzi, yurakdan o'qimoq
- kamalakdek egik, anketa so'rovi, tarixiy shaxs

• ***Ikki qavatli uv birikmasidagi tobe so'z qaysi qatorda to'g'ri korsatilgan?***

- uy
- qavatli uy
- ikki
- ikki qavatli

• ***Shoshmasdan bajarmoq. to'g'riga yurmoq kabi birikmalardagi so'zlar o'zaro qanday yo'l bilan bo'langan?***

- moslashuv usuli bilan
- ko'makchili boshqaruv usuli bilan
- bitishuv usuli bilan
- kelishikli boshqaruv usuli bilan

• ***Bosh so'z ravish bilan ifodalangan otli birikmani toping.***

- hammadan kuchli
- farovon hayot
- haqiqatga yaqin
- ko'p gapirmoq

• ***Quyidagialarning qaysi biri qaratqichli birikma?***

oltin soat

yurtimiz yoshiari

uzum edi

peshin chog 7

• ***Qaysi qatordagi ergash so'z bilan bosh so'zning tartibi o'zgartirilsa, gap hosil bo'ladi?***

- yura-yura charchamoq
- suvga to'ldirmoq
- maqola o'qimoq
- ko'm-ko'k o'tloq

• ***So'zlar o'zaro teng bog'langanda, qanday vositalar orqali bog'lanadi?***

- ohang va teng bog'lovchilar, teng bog 'lovchilar vazifasidagi yordamchi so'zlar bilan
- barcha bog'lovchilar bilan
- faqat teng bog'lovchilar bilan
- teng bog'lovchilar va teng bog'lovchi vazifasidagi ko'makchi va yuklamalar bilan

•***So'z qo'shilmasidagi so'zlarning tobe bog'lanishini toping.***

- yoritadi, ammo isitmaydi
- dam qizarib, dam oqardi
- taklif-mulohazalar
- jo'shib gapirmoq

•***So'z birikmasi qaysi Grammatik vositalar yordamida vujudga keladi?***

- lobelik aloqasi, egalik va kelishik qo'shimchalari orqali
- tenglanish aloqasi orqali
- ko'makchilar va Ko'makchi xarakteridagi yordamchi so'zlar orqali
- so'z tartibi va ohang orqali

•***Sodda so'z birikmalari berilmagan javobni toping.***

- tandir-tandir non-u kulchalar, bag'ri keng onalar
- yolg'iz yo'l, qishki imtihon
- tinib-tinchimas yoshlar, qiz-juvonlar bilan suhbat o'tkazmoq
- kitobi ko'p kutubxona, maydoni kenghovli, sochi uzun qiz.

• **Keltirilgan misollarning qaysi biri teng bog'lanishli birikma?**

- oppoq paxtazor
- talabalar o'qimoqdalar
- jamoa xo'jaligi a'zolari va hasharchilar
- Karimning kitobi.

• ***Qaysi javobda otli birikma bor?***

- chiroyli yozmoq
- yaxshi kayfiyat
- kitobni o'qib
- hikoyani bayon qilmoq

• ***Grammatik vosita orqali bog'langan birikmani toping.***

- serhosil dala
- ma'noli so'z
- katta daryo
- ertak haqida so'zlamoq.

• ***Tobe bog'lanishli so'z qo'shilmasmi loqing.***

- yosh-u qari

- Markaziy Osiyo
- mehnatda fidokor
- shaftoi va o'riklar

• ***Qanday so'z birikmalarida ergash so'z bosh so'zga grammatik vositalarsiz bog'lanadi?***

- boshqamvda
- moslashuvda
- bitishuvda
- boshqaruv va bitishuvda

• ***Quyidagi grammatik vositalarning qaysi biri so'z birikmasi doirasida qilianadi?***

1) bog'lovchilar; 2) kelishik qo'shimchalari; 3) egaiik qo'shimchalari; 4) shaxs-son qo'shimchalari; 5) yuklamalar; 6) ko'makchilar.

- 1,2,3,4,5,6
- 2,3,6
- 2,5,6
- 2,4,5

• ***So'z birikmasi hosil bo'lgach, birikma tarkibidagi so'zlarga xos bo'lgan qaysi xususiyat yo'qoladi?***

leksik ma'no

ko'p ma'nolilik

omonimlik

B, C.

• ***Ushbu gapdagi murakkab so'z birikmasini aniqlang. Bir ozdan keyin eshik ochildi-yu, qisqa engli guldor shifon ko'ylak kiyib olgan Shoirira kirib keldi.***

- bir ozdan keyin kirib keldi
- Shoirira kirib keldi
- shifon ko'ylak
- qisqa yengli guldor shifon ko'ylak.

• ***So'z qo'shilmasidagi teng bo'g'anishini aniqlang.***

- baland uy
- maktabga bormoq
- shahar va qishloq
- olmay-u o'rik

• ***Tobe bog'lanish necha qismdan iborat bo'ladi?***

- ikki yoki uch qismdan
- Tobe bog'lanishdan hosil bo'lgan birikmalar qismlarga ajralmaydi.
- doim ikki qismdan

- bir yoki bir necha qismlardan
- ***Ot turkumiga xos bo'lgan qaysi grammatik qo'shimchalar sintaktik birlik(so'z birikmasi yoki gap) hosil qilishda ishtirok etadi?***
 - kelishik va ko'plik qo'shimchalari
 - kelishik, egalik va ko'plik qo'shimchalari
 - kelishik va egalik qo'shimchalari
 - ot yasovchi qo'shimchalari
- ***So'z qo'shilmasidagi so'zlarning teng bog'lanishi qaysi qatorda berilgan?***
 - nafis tuyg'u, xalq tabobati
 - sabzi bilan piyoz, go'zallik va poklik
 - xom meva, yaxshi o'smoq
 - birga pishirmoq, yoqqa qovurmoq
- ***Otli birikmani aniqlang.***
 - barkamollikka erishgan, qonib ichdi
 - kitob haqida suhbatlashib, oynadek yarqirab
 - sizni maqtab, o'zi uchun olgan
 - kelganlaming har biri, stulning ikkitasi
- ***Otli birikma qo'llangan qatorni aniqlang.***
 - havo bulut
 - egasiy ibrat
 - mahkam ushlab
 - B, D
- ***Qaysi javobda so'z birikmasi berilmagan?***
 - sekin chertmoq, burchga sodiqlik
 - Dalalar ko'p-kok. Yerimiz unumli
 - B, D
 - Murod indamadi. Hotam hayron bo'ldi
- ***Qaysi qatordagi birliklar lug'aviy birliklar hisoblanmaydi***
 - frazeologik birikmalar, so'z birikmalari, gap
 - tovush, qo'shma so'z
 - so'z va frazeologik birikmalar
 - soz birikmalari, gap
- ***Quyidagilarnmg qaysi biri lug'aviy birlik hisoblanmaydi?***
 - u
 - bosh qotirmoq
 - bir nafas
 - kelib qolmoq

• ***Soʻz birikmasi berilgan qatorni toping.***

- erta bahor
- men oʻqidim
- ukam uchun
- imzo chekmoq

• ***Sintaksisda nima oʻrganiladi?***

- Soʻz turkumlari
- tinish belgilari
- soʻz birikmalari, gap boʻlaklari va uning turlari
- tovushlar

• ***Soʻzlarning oʻzaro biriktirish qonun-qoidalarini tilshunoslikning qaysi boʻlimida oʻrganiladi?***

- morfologiyada
- leksikologiyada
- fonetikada
- sintaksisda

• ***Qaysi qatordagi atama (termin)lar grammatikaning sintaksis qismiga tegishli?***

- umumlashtiruvchi soʻz, undalma, bogʻlama
- aralash qoʻshma gaplar izohlovchi, yordamchi soʻzlar
- birikma, qoʻshma gap, rasmiy uslub
- taqlid soʻz, ichmakchi soʻz, ravishdosh

• ***Tobe bogʻlanishli birikmalarda qanday soʻz bosh soʻz sanaladi?***

- koʻmakchi bilan kelgan soʻz
- keiishik shaklidagi soʻz
- maʼnasi izohlanayotgan soʻz
- boshqa soʻz maʼnosini ifodalaydigan soʻz

• ***Qaysi qatordagi ergash soʻz bilan bosh soʻzning tartibi oʻzgartirilsa, gap hosil boʻladi?***

- maqol oʻqimoq
- oʻnta daftar
- yura-yura charchamoq.
- suvga toʻydirmoq

• ***Soʻz birikmalarida bosh soʻz boshqa soʻzlar bilan qanday bogʻlanadi?***

- faqat teng bogʻlanishi mumkin
- teng va tobe bogʻlanishi mumkin
- faqat tobe bogʻlanishi mumkin
- sanash ohangi, koʻmakchilar, bogʻlovchilar va bogʻlovchi vazifasiz qoʻllanuvchi soʻzlar orali bogʻlanishi mumkin.

- **Otli birikmalarni aniqlang.**
- katta uy, zavodda ishlamoq, vazifani bajarish.
- asalday shirin, hammadan tez, katta bo'lmoq
- O'qishda birinchi, tinglovchilarning barchasi, keng uy.
- mashinada tortish, radiodan eshitmoq, futbol o'ynab
- **Otli so'z birikmasini toping.**
- og 'zi qulog 'ida
- havo rang
- vazifani bajargan
- o'quvchilarning har qaysisi.
- **Bosh (hokim) so'z ot bilan ifodalangan so'z birikmalarini toping.**
- Navro'z bayrami, o'rik hidi, qattiq aziyat
- bahoriy kayfiyat, oydan ham gozal, yosh ijodkorlar
- ishga shoshilmoq, bayram fayzi, yurakdan o'qimoq
- kamalakdek egik, anketa so'rovi, tarixiy shaxs
- **Sevaraxon choyni keltirib. dasturxon yozgach, shirinliklarni olish uchun**
Yon oldiga bordi. Ushbu gapdagi kengaygan birikmalar miqdorini aniqlang.
- 3ta
- 4 ta
- 1 ta
- 2 ta
- **Uyushiq so'z birikmalari hamda kelishik qo'shimchalari qo'llangan so'zlar bilan ifodalangan gapni belgilang.**
- qirdagi va togi etaklaridagi lolalar kishiga huzur bag'ishlaydi.
- Stol ustida va javonda kitoblar tartibsiz yotardi.
- O'quvchilar olmalami va o'rikdami lerdilar.
- Bolalar sport maydonida va maktabda to'plandilar.
- **Qaysi xususiyat teng bog'lanishga xos emas?**
- So'zlar bir-biri bilan teng bog'lovchilar vositasida bog'lanishi mumkin.
- Teng bog'lanish natijasida birikmalar emas, so'z qo'shimchalari hosil bo'ladi
- Teng bog'lanishda so'z qo'shimchasidagi bir so'z boshqasiga tobe bo'lmaydi
- So'zlar bir-biri bilan ko'makchilar vositasida bog'lanishi mumkin
- **Teatrimizning ijodiy kuehlari birikmasidagi tobe so'z hokim so'zga qanday vosita yordamida bog'langan?**
- egalik qo'shimchasi yordamida
- qaratqich kelishigiqo'shimchasi va ohang yordamida
- ohang yordamida

- qaratqich kelishigi va egalik qo'shimchalari yordamida
- ***Fe'lli birikma qaysi qatorda?***
- C va D.
- ishhahasini bo'g 'moq
- ertakni tinglab
- suv bilan yuvmoq
- ***Otli birikmani aniqlang.***
- mayda qirqilmoq
- anorning ikkitasi
- adabini yemoq
- A, B

16.1) charm etik: 2) etik charm kabi sintaktik qo'shilmalardagi o'zaro farq qaysi qatorda ko'rsatilgan?

- har ikkalasi ham so'z birikmasi, lekin ifodalagan ma'nosi har xil
- har ikkalasi ham so'z birikmasi, ma'nosi farqyo'q, faqat birinchisida etik, ikkinchisida charm so'z birikmasi
- birinchisi gap, ikkinchisi so'z birikmasi
- birinchisi so'z birikmasi, ikkinchisi gap

17. Quyidagi birliklarning qaysi biridan nutqda har gal tayyor material sifatida foydalanmaymiz? 1) so'z; 2) qo'shma so'z; 3) so'z birikmasi; 4) ibora (frazologik birlik);

- 1,2,3,4
- 2,3,4
- 3,4
- 3
- ***Sodda so'z birikmasi berilgan qatorni aniqlang.***
- katta tekis yo'l
- keksa tajribali o'qituvchi
- kino haqida gapirmoq
- katta yog 'och qoshiq
- ***Osmonda yulduzlar chamani porlaydi. Ushbu gapdagi so'zlar o'zaro qaysi qo'shimchalar orqali sintaktik bog'angan?***
- -a, -i
- -a, -i, -di
- -a, -lar, -i, -di
- -a, -lar, -i, -y, -di
- ***Qaysi javobda so'z birikmasi berilmagan?***
- sekin chertmoq, burchga sodiqlik

- Dalalar ko'm-ko'k. Yerimiz unumli.
- yoruq xona, qunt bilan o'qimoq
- barchasida so'z birikmasi berilgan
- ***So'zlarning o'zaro teng bog'lanishi qaysi qatorda berilgan?***
- muhtasham shaharcha
- kitobdan foydalanish
- quyosh va oy
- sekin-sekin yurmoq
- ***Qaysi qatorda so'z birikmasi berilmagan?***
- shafaq qip-qizil
- uning qiyofasi
- mehribon qo'li
- barchasida so'z birikmasi berilgan
- ***So'z birikmasini toping.***
- chang-to'zon ichra
- shalpang quloq
- o'qib chiqdim
- olma, o'rik va shaftoli
- ***Quyidagi qo'shilmalarning qaysi biri so'z birikmasi hisoblanadi?***
- gapirib bermoq
- holdan toymoq
- tashrif buyurmoq
- og'ir xo'rsinmoq
- ***Qaysi qatorda so'z birikmasi qo'llanmagan?***
- sohil bo'ylarini kezmoq
- G'arbiv Yevropa
- elga xizmat
- bir-biriga oqibatli
- ***So'z birikmasini toping.***
- qalin qor
- olma, o'rik va shaftoli
- Uo'qidi
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
- ***Quyidagilarning qaysi biri lug'aviy birlik hisoblanmaydi?***
- kungaboqar
- Ko'nglini olmoq
- Go'zal vodi

- konstitutsiyaviy sud
- ***Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning o'zaro birikishidan qanday birlik hosil bolishi mumkin?***
 - Qo'shma so'z, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi, so'z birikmasi
 - So'z birikmasi
 - ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi
 - qo'shma so'z va so'z birikmasi
- ***Quyidagi frazeologik birikmalardan qaysi biri so'z birikmasi (erkin birikma) tarzida qo'llana olmaydi?***
 - izdan chiqmoq
 - ikki oyog'ini tiramoq
 - o'zi ochilmoq
 - xurрак otmoq

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

- Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 288 b.
- Normatova SH., Abdurahmonova M. O'zbek tili (darslik). – Toshkent: JIDU, 2014. – 192 b.
- Fayzullayeva SH., Azimova H., Usmonova G. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent: Iqtisodiyot, 2012. – 108 b.
- Yuldasheva SH., Kabulova D., Sobirova M. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Nukus: Bilim, 2013. – 156 b.
- 5. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). – Toshkent: TMI, 2017. – 336 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. – 46 b.
- 7. O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni (yangi tahrirda) / O'zR Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1989. – 26–28-son, 453-modda; 1991. – 11-son, 273-modda.
- 8. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni. O'zR Oliy Majlisi Axborotnomasi, 1997. – 9-son, 225-modda; 2013. – 41-son, 543-modda.
- 9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni / O'zR QHT, 2017. – 6-son, 70-modda; 20-son, 354-modda.
- 10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.

11. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo'llanma). Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014.– 456b.
12. Asilova G. Bojxona tizimida me'yoriy hujjatlarni yuritish (rus guruhlar uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2016. – 176 b.
13. Iskandarova G. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 2009. – 67 b.
14. Iskandarova G., Gulibonu Keybatuli. O'zbek tili darsligi (xitoyliklar uchun). – Pekin, 2016. – 348 b.
15. Mirqosimova M., Alimova Sh., Zoitova O., Umarova N. O'zbek tili (texnika universitetining rusiyzabon talabalari uchun). – Toshkent: TDTU, 2004. – 101 b.
16. Alo Raun. Basic course in uzbek. Published by Indiana University, 1996.
17. Turdiyeva K., Ahmedova D. O'zbek tili (tibbiyot institutlarining rus guruhlar talabalari uchun darslik). – Toshkent: Musiqqa, 2007. – 206 b.
- Qahhorova H., Muhammedova S. O'zbek tili. -Toshkent: Universitet, 2004. – 192 b.
- Nazarov K.N., Xo'janova G.O'. O'zbek tili (yuridik institut va universitetlarning huquqshunoslik fakultetlari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: TDYuI, 2003. – 334 b.
20. Rafiyev A. va b. Chet elliklar uchun o'zbek tili. II qism (CD diskda). – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
21. Rafiyev A., Mahmudov N., Yuldashev I. Kultura rechi i deloproizvodstvo na uzbekskom yazyke. – Tashkent, 2011. – 143 b.
- Rafiyev A., Mahmudov N., Yuldashev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – Toshkent, 2013. – 143 b.
23. Ruscha-o'zbekcha lug'at (2 jildli). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
24. Tog'ayev T. O'zbek tilining kirill va lotin alifbolaridagi imlo lug'ati. – Toshkent: "Sharq", 1999. – 368 b.
25. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildli). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005–2008.

Internet saytlari

- <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> – Samouchitel uzbekskogo yazyka
- <http://solver.uz/translate.php> – Russko-uzbekskiy perevodchik
- http://sahifa.tj/russko_uzbekskij_razgovornik.aspx – Russko-uzbekskiy razgovornik
- http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx – Uzbeksko-russkiy perevodchik
- <https://my.gov.uz/> - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
- <https://www.lex.uz>. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

